

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

ORIENTAL UNIVERSITETI

Taylakova Dilnoza Norbekovna

**O‘QUVCHILARGA ONA TILI FANINI
O‘QITISHDA SHAXSGA
YO‘NALTIRILGAN PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALARIDAN
FOYDALANISH METODIKASI**

Monografiya

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 494.375(07)

KBK: 74.261.4

T 27

Taylakova Dilnoza Norbekovna.

O‘quvchilarga ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikasi [Matn]: Monografiya / D.N. Taylakova. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – 172 b.

Monografiyada umumta’lim maktab ona tili o‘qituvchilari fanni o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikasini oshirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Taqrizchilar

D.M.Xakimova – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti kafedra mudiri, p.f.d.(DSc) dotsent

I.Rasulova – Samarqand davlat universiteti “O‘zbek tilshunosligi” kafedراسi f.f.f.d (PhD) dotsent

T.M.Isaqulov – “Uzluksiz ta’lim pedagogikasi” kafedراسi mudiri, p.f.f.d (PhD) dotsent

Monografiya Oriental universitetining “Uzluksiz ta’lim pedagogikasi” 2025-yil 29-apreldagi 11-sonli bayonnomasi qarori, universitet Ilmiy kengashining 2025-yil 28 -maydagi 7 -sonli bayonnomasi qarori asosida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-584-2

© Taylakova D.N., 2025.

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

SO‘Z BOSHI

Globalashuv sharoitida axborotlar hajmining yiriklashuvi, ularni qabul qilib olish jarayonining murakkablashishi shaxsning zarur ma'lumotlarni tanlay olish layoqatiga ega bo'lishi zarur ekanligini ko'rsatmoqda. Shaxs tomonidan o'zlashtirilayotgan ma'lumotlar uning turmush tarzini yaxshilash, kasbiy faoliyatini samarali tashkil etish hamda o'ta hayotiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qila olishi lozim. Shu sababli shaxs mavjud axborotlar orasidan o'zi uchun zarur ma'lumotlarni ajratib olish va ulardan amaliy faoliyatida foydalanishga jiddiy e'tibor qaratishi bugungi kunning muhim talablaridan biri sanaladi.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar olimlari ta'lim oluvchilarning ehtiyojlari va talablariga asoslangan holda ta'lim xizmatlarini strategik rejalashtirish va tashkil etish hisobiga ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan turli ilmiy tadqiqot ishlari olib bormoqda. Mazkur tadqiqotlarning zamonaviy tendensiyalaridan kelib chiqib, umumta'lim maktablarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonlarini takomillashtirish orqali pedagog xodimlarining kasbiy mahoratini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda yangi O'zbekistonni va Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish borasida xalq ta'limi tizimida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar va islohotlar samaradorligini ta'minlash "o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqishma-bosqish tatbiq etish"¹ bilan bog'liq. Hozirgi davrda o'quvchilar qobiliyati va talablarini tahlil qilish, ta'lim xizmatlariga bo'lgan talabini o'rganish, pedagogik texnologiyalarning ta'lim iste'molchilariga mos keladigan maqsad va vazifalarini belgilashga asoslangan ta'limni tashkil etishni amalda talab etmoqda. Bu jarayon ta'lim sohasida xizmat ko'rsatishni restrukturizatsiya qilishning ob'yektiv zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shunga ko'ra, shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalari «... yoshlarni maqsadli tarbiyalab borish, ularni maktab davridan seleksiya qilish, keyinchalik oliy o'quv yurtlariga qamrab olish bo'yicha samarali mexanizmni joriy etish, xalq ta'limi tizimida o'quv jarayoniga mutlaqo

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi to'g'risida»gi Farmoni.

yangi yondashuvlarni joriy etish»² kabi muhim vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan. Mazkur vazifalar maktab ta'limida shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalarini tatbiq etish, umumiy o'rta ta'limda tashkiliy-pedagogik mexanizmlarni takomillashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi to'g'risida»gi, 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish shora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2022 yil 29 yanvardagi PF-60-son «2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmonlari, 2020 yil 6 noyabrdagi PQ-4884-son «Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimsha shora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «Xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalari»ga bag'ishlab o'tkazilgan videoselektor yig'ilish ma'ruzasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi 34-son bayoni, 2019 yil 23 avgust.

I-BOB. O‘QUVCHILARGA ONA TILI FANINI O‘QITISHDA SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING ILMIY- NAZARIY ASOSLARI

1.1-§. Umumta’lim maktablarida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning metodologiyasi

Globalashuvning zamonaviy sharoitida o‘rta ta’lim shaxsni har tomonlama voyaga yetkazish, unda komillik va malakali mutaxassisga xos bo‘lgan sifatlarni shakllantirishda muhim o‘rin egallaydi. Bugungi shiddatli davr o‘quvchilarni qisqa muddatda hamda asosli ma’lumotlar bilan qurollantirish, ular tomonidan barcha fan asoslarini puxta o‘zlashtirilishi uchun zarur shart-sharoit va imkoniyatlarni yaratishni taqozo etmoqda. Zamonaviy sharoitda ta’lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko‘ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilishi talab qilinmoqda. O‘zida aynan shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta’lim shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim deb nomlanadi.

Bu esa, o‘z navbatida, ta’lim muhitining o‘quvchi imkoniyatlariga moslashtirilishini, unga ko‘ra ta’lim muhiti, pedagogik shart-sharoitlar, ta’lim hamda tarbiya jarayonini to‘laligicha o‘quvchining shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, qobiliyatini rivojlantirish, shaxs sifatida kamolotga yetishini ta’minlash, tafakkuri va dunyoqarashini boyitishni nazarda tutadi. Shunday ekan, sog‘lom va har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalash umumiy o‘rta ta’lim tizimida faoliyat olib borayotgan pedagog xodimlarning kasbiy mahorati, salohiyati, fidoyiligiga, uning yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash ishiga bo‘lgan munosabatiga bog‘liqdir. “Shundagina o‘qituvchi pedagogik xodisalarning mohiyatini va dialektikasini, pedagogik faoliyat metodi, kasb va texnologiyasini hamda professional pedagogikani tushunib yetadi”³.

Pedagogik bilim va mahorat egasi bo‘lgan o‘qituvchi, avvalo, pedagogika fanining metodologik asoslarini, shaxs rivojlanishining qonuniyatlari va omillarini, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning

³ Мельникова Е.Л. Проблемный урок, или Как открывать знания с учениками: Пособие для учителя. – М., 2002. – 168 с.

mohiyati, maqsad va vazifalarini bilishi kerak. Shu sababli ular o‘z mahoratlarini uzluksiz oshirishlari, bugungi kunning yuksak talablariga mos zamonaviy bilim va tajribalarni o‘zlashtirishlari, ijodiy mehnat qilishlari lozimdir.

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta’limning dunyo ta’lim tizimiga integratsiyalashuv jarayonlarining rivojlanishi ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarga yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda.

Jumladan, tadqiqot ishi doirasida umumta’lim maktablari ona tilini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik ta’lim texnologiyalaridan foydalanish mexanizmini takomillashtirishning metodologik asoslarini o‘rgandik va quyidagilarni tahlil qildik: ta’lim samaradorligini ta’minlash yuzasidan huquqiy-me’yoriy asoslarini; xorij, MDH va mamlakatimiz olimlarining o‘qitish jarayonini takomillashtirishda shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik ta’lim texnologiyalaridan foydalanish borasidagi xalqaro va mahalliy ilmiy g‘oyalar bilan tanishdik.

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish zarurligini taqozo etmoqda.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda “ta’lim-tarbiya jarayoniga o‘qitishning ilg‘or shakllari, yangi pedagogik texnologiyalar, o‘qitishning texnik va axborot vositalari joriy etilishi va o‘zlashtirish zarurligi”⁴ bir necha marotaba takrorlanib, ularni ta’lim muassasalariga olib kirish zarurati qayd etilgan.

Mamlakatimizda maktab ta’limi tizimida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalaridan foydalanish vazifasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmonida belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra, “... o‘quv muddatlarini o‘zgartirmagan holda o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirish kompetentligini kengaytirishni ta’minlovchi zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish”, “... xalq ta’limini boshqarishda strategik rejalashtirishning zamonaviy shakllarini yaratish, innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar, sohada xalqaro tajribadan kelib chiqib

⁴ “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun

ilg'or yutuqlardan foydalanish amaliyotini kengaytirish”, “... zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda virtual ta'lim metodlarini joriy etish”, “... ma'muriy va ta'lim jarayonlarini optimallashtirish uchun zamonaviy blokcheyn texnologiyalarini joriy etish”, “... ta'lim berishning zamonaviy nazariyalarini o'zlashtirishni, pedagogik psixologiyani tushunish, ta'lim berishga kompetentlik hamda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asoslarini egallashni ko'zda tutish”⁵ dolzarb vazifalar sifatida belgilangan.

Bu borada o'ta dolzarb va zarur bo'lgan hamda eng ko'p samara beradigan, ta'lim berish jarayonida o'qituvchi o'quvchini faollashtiradigan, o'zi va o'rganuvchi uchun qulay bo'lgan yo'llar, metod va uslublar, o'qitish shakllari, vositalarini o'qituvchining o'zi yaratadi, takomillashtiradi. Zero, o'qituvchiga kuch-g'ayrat beradigan asosiy manba - o'quvchidir. Ularning qiziqishlari, intilishlari va faolligi o'qituvchiga ruhiy madad, ilhom baxsh etadi. Natijada «Pedagogik texnologiya», «Pedagogik innovatsiya» atamalari yuzaga keladi. Bu jarayondagi asosiy o'rinni, shubhasiz, ta'lim mazmuni egallaydi.

Izlanishlar doirasida tadqiqotimiz muammosining mohiyatini keng tadqiq etish maqsadida “pedagogik texnologiya” atamasining tahlili, rivojlanish tarixini ilmiy-pedagogik jihatdan asosladik.

“Ilmiy texnik taraqqiyot XX asr oxiriga kelib faqatgina ko'plab ishlab chiqarish sohaslarini texnologiyalashtirishga sabab bo'lib qolmay, balki madaniyat sohasiga, bilimlar gumanitar sohaslariga ham kirib keldi. Bugungi kunda biz endi axborot, tibbiyot texnologiyalari haqida gapiramiz, shu jumladan ta'lim sohasida ham. Pedagogik texnologiya deb odatda maqsadi ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, ta'limda ko'zlangan natijalarga erishishga bo'lgan pedagogikaning yo'nalishiga aytiladi”⁶. Atama dastlab AQSHda qo'llana boshladi. Keyinchalik “pedagogik texnologiya” iborasi o'rniga “dasturlashtirilgan ta'lim” atamasidan foydalanish keng tarqaldi. So'ngra pedagogik texnologiya – loyihalashtirilgan ta'lim va aniq maqsadga qaratilgan o'quv jarayonini ifoda eta boshladi.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5712-son Farmoni

⁶ Перегудова Ф. Ф.И., Тарасенко Ф.Г. Введение в системный анализ. — М.: Высшая школа, 2002.

Ma'lumki, har qanday pedagogik texnologiya ta'limning rivojlantiruvchi tamoyillariga asoslangan bo'lib, o'quvchi shaxsini tarbiyalashga yo'naltirilishi lozim. Pedagogik texnologiya nazariyasining markazida ta'lim jarayonining rahbari, ayni vaqtda, ushbu jarayonning ham sub'yekti, ham ob'yekti bo'lgan o'qituvchi va o'quvchilar turadi. Shunday ekan, bu sub'yektlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik, o'zaro muloqot, ularning bir-birlariga nisbatan ko'rsatadigan aks ta'sirlari eng zamonaviy talablarga javob bera olishi zarur. Buning uchun o'qituvchi, avvalo, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga nisbatan qo'yiladigan talablar, ta'limni tashkil etish, boshqarish tamoyillari, yo'llari, o'quvchini aqliy, jismoniy jihatdan rivojlantirishga xizmat qiluvchi usullar, u bilan hamkorlik qilish, uni o'qish, o'rganishga yo'naltirish, o'quvchi shaxsi faoliyatini to'g'ri tashkil etish, ular bilan muloqotga kirishish, pedagogik faoliyatni tashkil etish jarayonida yuzaga keladigan muammo, kelishmovchiliklarni birgalikda bartaraf etish, auditoriyada ijodiy, ishchanlik muhitini hosil qilish, o'quvchi faoliyatini aniq va to'g'ri baholashga imkon beruvchi metodlar bilan qurollangan bo'lishi lozim.

Pedagogik texnologiya tushunchasi dastlab dars jarayonida texnik vositalardan foydalanishni nazarda tutgan bo'lsa, o'tgan asrning 70-yillariga kelib pedagogik adabiyotlarda bu tushuncha mohiyati tamoman yangicha talqin etila boshlandi. Yapon olimi Sakamoto pedagogik texnologiya tushunchasiga "o'quv texnologiyasi - o'quv jarayonining samaradorligini ta'minlovchi yo'l-yo'riqlar bilan bog'liq bilimlar majmuasidir"⁷ deya yangi ta'rif berdi.


O'tgan asrning 80-yillarida pedagogik texnologiya kompyuterli va axborot texnologiyalari bilan sinonim tarzda ishlatila boshladi. Keyingi o'n yilliklarda pedagog olimlar va o'qituvchilar diqqatini jalb qilgan masalalardan biri pedagogik texnologiya hisoblanadi. Bu mavzuning ilmiy ishlarda, hisobotlarda, maxsus davriy nashrlarda qizg'in o'rganilayotganligi, bahs-munozaraga sababchi bo'layotganligi ham ta'lim-tarbiyada uning o'rni naqadar muhimligiga guvohlik beradi.

Yuqoridagi fikrlar asosida pedagogik texnologiya tushunchasini ikki xil izohlash mumkin: birinchidan, uning o'quv jarayonida texnika vositalaridan foydalanishning kengayib borishini ifodalashi nazarda

⁷ Макарова Т.Д. Обеспечение итогового контроля // Образовательные стандарты и контроль качества образования. - Вологда., 1966 г.

tutilib, ta'limdagi, o'qitishdagi texnologiya deb nomlash mumkin bo'lsa, ikkinchidan, bu tushuncha o'quv jarayonining o'zini qurish texnologiyasini bildiradi deb xulosa chiqarish mumkin.

MDH olimi V.S.Zaysevning "Современные педагогические технологии: учебное пособие" nomli o'quv qo'llanmasida pedagogik texnologiyalarning rivojlanish tarixini nazariy va ilmiy-pedagogik asoslagan (1.1.1. - rasmga qarang).



1.1.1-rasm. Pedagogik texnologiyaning rivojlanishi⁸

Ilmiy-texnikaviy taraqqiyot davrida esa pedagogik texnologiya mustaqil fanga aylandi. Har bir mustaqil fan o'z mohiyatiga ko'ra, uning nazariy asoslarini tashkil etuvchi tamoyillarga ega bo'lganidek, pedagogik texnologiya fanining ham maqsadi, vazifasi, tarkibi va mazmuniga ko'ra ilmiylik, loyihalash, tizimlilik, yo'naltirilganlik, faoliyatli yondashuv, boshqaruvchanlik, kuzatuvchanlik, natijaviylik, qayta takrorlanuvchanlik, tejamlilik kabi tamoyillarga asoslanadi. Pedagogik texnologiya tayanadigan tamoyillarda pedagogika va texnologiya fanlarning yutuqlari mujassamlashgan. Pedagogik texnologiya ko'rinishidagi mazkur tamoyillar majmuasi o'zining aniqligi, isbot talab qilmasligi, amaliyligi tufayli yuqori malakali kadrlar tayyorlashda kutilgan natijalarni beradi.

⁸ В.С.Зайцев Современные педагогические технологии: учебное пособие. – В 2-х книгах. – Книга 1. – Челябинск, ЧГПУ, 2012 – 411 с.

Texnologiya deganda, pedagog tomonidan o'quvchiga ko'rsatilgan ta'sir natijasida ta'lim oluvchida sifat o'zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Texnologiya har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalanib, ob'yektga yo'naltirilgan maqsadli amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni nazarda tutadi. Ushbu tushunchalarni o'quv jarayoni misolida ko'radigan bo'lsak, pedagogning o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga muayyan sharoitda ko'rsatgan ta'siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa, deb ta'riflash mumkin. Ta'riflar nazariyasi bo'yicha bunday ijtimoiy hodisani pedagogik texnologiya, desa bo'ladi.

O'tgan asrning 60-yillarida Amerika va Yevropa o'rta ta'limining isloh qilinishi natijasida, pedagogik texnologiyalar ommaviy ravishda ilm-fan va ta'limga tatbiq etila boshladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning Dj.Keroll, B.Blum, D.Bruner, G.Geys, M.Klark va V.Koskarelli xorijiy mualliflarining fikriga ko'ra pedagogik texnologiyaning mohiyati ta'lim sohasida zamonaviy texnologiyalar, ixtirolar va ishlab chiqarish buyumlaridan foydalanishdan iboratdir.

Yurtimiz olimlari bilan hamdo'stlik davlatlari olimlari bilan pedagogik texnologiyalarning loyihalarini tuzish bo'yicha qator ishlarni amalga oshirdilar.

Shunday ekan, umumta'lim muassasalarida ona tilini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan pedagogik ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha respublikamiz, MDH va xorijda olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarini o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirish tadqiqotimiz samaradorligini ta'minlashga xizmat qildi. Pedagogik texnologiya tushunchasi ko'p qirrali bo'lib, unga pedagogik, psixologik, didaktik, tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqa nuqtai nazarlardan yondashish mumkin.

Shunga ko'ra, tadqiqotimiz doirasida belgilangan vazifalaridan kelib chiqib, mamlakatimiz va xorijiy olimlarning pedagogik ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha ilmiy adabiyotlar, tadqiqotlarni o'rgandik va natijalarini umumlashtirishga erishdik.

Rossiyalik olimlaridan K.D.Ushinskiy falsafa, tarix, anatomiya va fiziologiya qonunlaridan foydalangan holda pedagogikaning nazariyasini ishlab chiqqan. [85]

S.T.Shaskiy o‘quvchiga ta’lim muhitining ta’sirini o‘rganish orqali pedagogik texnologiya atamasi doirasini kengaytirgan. U dars mashg‘ulotlarining tarbiyaviy ahamiyatini dars jarayoniga turli faoliyatlarni kiritish orqali takomillashtirish zarurati haqida fikr yuritgan.

A.S.Makarenko o‘zining tadqiqot ishlarida “pedagogik texnika” hamda “pedagogik texnologiya” atamalaridan erkin foydalangan. [44]

V.A.Suxomlinskiy o‘z asarlarida “har bir shaxsning individualligi”ga urg‘u berib, shaxsga nisbatan har qanday ta’sir, uni rivojlantirishi lozimligi, pedagog o‘quvchini jazolash, kamsitishdan yiroq bo‘lishi kerakligini ta’kidlagan. [70]

V.M.Shepel “Texnologiya — ishlov berish, ahvolni o‘zgartirish san’ati, mahorati, qobiliyati, metodlar yig‘indisi” degan fikrni bildiradi.

S.T.Shaskinning fikriga ko‘ra “Ta’lim muhitining o‘quvchiga ta’sirini o‘rganish orqali pedagogik texnologiya atamasi doirasini kengaytirish dars mashg‘ulotlarining tarbiyaviy ahamiyatini dars jarayoniga turli faoliyatlarni kiritish orqali takomillashtirish zarurati sifatida amalga oshiriladi”.

“Pedagogik texnologiya — o‘qitishning, ta’limning shakllari, metodlari, usullari, yo‘llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus yig‘indisi va komponovkasi (joylashuvi)ni belgilovchi psixologik tartiblar (ustanovka)lar majmuasi; u pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalaridan iborat” [45] deya talqin qiladi B.T Lixatchov

Volkov I.P. “Pedagogik texnologiya – ta’limni rejalashtirilgan natijalariga erishish jarayoni tafsiloti” – sifatida o‘z fikrini ifoda etadi⁹.

Shoshanov M. Ta’lim texnologiyasi – didaktik tizimning tarkibiy jarayonli qismi.¹⁰

Pedagogik texnologiya – o‘quv jarayonining o‘quvchilar va o‘qituvchi uchun so‘zsiz qulay sharoitlar ta’minlashni loyihalash,

⁹ Волков, И.П. Приобщение школьников к творчеству: из опыта работы / И.П. Волков. – Москва: Просвещение, 2002. – 144 с.

¹⁰ Tchoshanov, M., Cruz, M., Shakirova, K., Ibragimova, E., Shakirova, L. (2017). Comparative analysis of mathematics teachers’ content knowledge in USA and Russia through the lens of TIMSS results. Education and Self-Development, 12, 1(50), 23-33.

tashkil qilish va o‘tkazish bo‘yicha hamma detallari o‘ylab chiqilgan birlikdagi pedagogik faoliyat modeli .¹¹

Pedagogik texnologiya – so‘zsiz rioya qilishning eng yuqori natijani kafolatlaydigan ko‘rsatmalar emas, balki qonuniyatlar bo‘lib, ularning amaliy ahamiyatidan iborat ¹²

Pedagogik texnologiya — pedagogik maqsadlarga erishish uchun foydalaniladigan barcha shaxsiy, uskunali va metodologik vositalarning tizimli yig‘indisini va ularning amal qilish tartibini bildiradi¹³

Pedagogik texnologiya bu — ob‘yektiv, moddiy jarayon. Agar biz o‘quv-tarbiya jarayonidan uning ob‘yektiv, moddiy (substansiyalik) jihatini ajrata olsak, shunda biz texnologiyaga, eng kamida, uning tafsilotiga ega bo‘lamiz (V.K.Dyashenko)¹⁴

Yurtimiz olimlaridan B.L.Farberman pedagogik texnologiyaga atamasiga quyidagicha ta‘rif beradi: “Pedagogik texnologiya – ta‘lim jarayoniga yangicha yondashuv bo‘lib, pedagogikada ijtimoiy-muhandislik ongi ifodasidir. U pedagogik jarayonni texnika imkoniyatlari va insonning texnikaviy ilmiy ongning pedagogika sohasiga ko‘chirilgan tasviri, ta‘lim jarayonining muayyan standart holga soladigan, uning optimal loyihasini tuzib chiqish bilan bog‘liq ijtimoiy hodisadir” ¹⁵

Nishonaliyev U. “Pedagogik texnologiyaning mohiyati didaktik maqsad, talab etilgan o‘zlashtirish darajasiga erishishdan iborat bo‘lib, uni tatbiq etishni hisobga olgan holda ta‘lim jarayonini oldindan loyihalashtirishda namoyon bo‘ladi” – deya ta‘rif beradi.¹⁶

N.S.Sayidahmedov “Pedagogik texnologiya — bu o‘qituvchi (tarbiyashi)ning o‘qitish (tarbiya) vositalari yordamida o‘quvchi (talaba)larga muayyan sharoit va ketma-ketlikda ta‘sir ko‘rsatish va bu

¹¹ Монахов В.М. Введение в теорию педагогических технологий: Монография. // Волгоград: Изд-во «Перемена», 2006.

¹² 105. Питюков В.Ю. сновы педагогической технологии / В.Ю. Питюков. – 3-е издание, исправленное и дополненное. – Москва : Гном и Д, 2001. – 192 с.

¹³ Кларин М.В. Инновации в мировой педагогике: обучение на основе исследования, игры и дискуссии. (Анализ зарубежного опыта) . — Рига: НПЦ «Эксперимент», 2005.

¹⁴ Дьяченко В.К. Сотрудничество в обучении: О коллективном способе учеб. работы: Кн. для учителя. - М.: Просвещение, 2001. - 192 с.

¹⁵ Farberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. -T.: Fan, 2000.

¹⁶ Нишоналиев У.Н. Тошкент-2011. Инструментарий обучения, воспитания и развития // Учитель Узбекистана. 59 с.

faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan sifatlarni shakllantirish jarayonidir” [69] deya ta’rif beradi “Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya” nomli asarida.

B.R. Ziyomuhamedov “Pedagogik mahorat asoslari” kitobida “Pedagogik texnologiya — bu jamiyat ehtiyojidan kelib chiqib , shaxsning oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarini samarali shakllantiruvchi va aniq, maqsadga yo’naltirilgan o’quv jarayonini tizim sifatida qarab, uni tashkil etuvchilar, ya’ni o’qituvchi (pedagog)ning o’qitish vositalari yordamida tahsil oluvchilarga ma’lum bir sharoitda muayyan ketma-ketlikda ko’rsatgan ta’sirini va ta’lim natijasini nazorat jarayonida baholab beruvchi texnologiyalashgan ta’limiy tadbirdir” [30] deya ta’rif beradi.

Shuningdek, R.H.Jo’rayev, B.R. Ziyomuhamedov, J.G’.Yo’ldoshev, Q.I.Yo’ldoshev, N.S.Sayidahmedov, S.T.Turg’unov, S.A.Usmonov kabi olimlar ijtimoiy-pedagogik sharoitga moslashgan pedagogik texnologiyalarni yaratish va ularni ta’lim-tarbiya amaliyotida qo’llashga oid ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar.

J.G’.Yo’ldoshev va S.A.Usmonovlarning tadqiqot ishlarida “Pedagogik texnologiya — barkamol insonni shakllantirish faoliyati” [27] deya pedagogik texnologiya tushunchasiga eng qisqa ta’rif berilgan.

R.H.Jo’rayev, S.T.Turg’unov va G.M.Nazirovalarning ilmiy ishlarida “pedagogik texnologiya pedagogik jarayonlarning samaradorligini ta’minlashga ta’sir etuvchi asosiy omillardan biri ekanligi, ta’lim-tarbiya jarayoni sub’yektlarining bilim, ko’nikma va malakalarini rivojlantirish, ularning faoliyatini takomillashtirishga qaratilganligi aks etgan”.

Shuningdek, ijodkor olimlardan M.Tojiyev, A.Abdukarimov, A.Pardayev, J.G’.Yo’ldoshev va R.Ishmuxamedovlar bu borada o’z ilmiy imkoniyatlari bilan katta ishlarni amalga oshirmoqdalar.

Mavzu yuzasidan olib borilgan metodologik tahlil natijalaridan ko’rinadiki, o’qituvchining o’qitish vositalari yordamida ta’lim oluvchilarga muayyan sharoitda ta’sir ko’rsatish texnologiyalari (N.Sayidahmedov, S.T.Shaskiy), o’quv maqsadlarining aniq belgilanishi, yakuniy natijaning kafolatlanishi, o’quv jarayoni takrorlanuvchanligining ta’minlanishi va tezkor qayta aloqaning mavjudligi bilan ta’riflanadigan texnologiyalar (R.H.Jo’rayev,

I.N.Nishonaliyev, B.L.Farberman), o‘quv muhitining (yoki sharoitlarining) tabiatiga qarab texnologik o‘qitish usullari (A.S.Makarenko, V.M.Shepel), ta’limni tashkil etishning modulli, moslashuvchan, to‘liq assimilyasiya qilish, ko‘p bosqichli, individual, parasyentrik, nazorat va tuzatish, o‘qitishning individual-jamoa texnologiyalari (J.G‘.Yo‘ldoshev va S.A.Usmonov), shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari (S.T.Turg‘unov, G.M.Nazirova, Sh.A.Amonashvili), o‘qitishni individuallashtirish texnologiyasi (B.R.Ziyomuhamedov, B.P.Bespalko) yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Yuqorida keltirilgan ta’riflardan ko‘rinib turibdiki, o‘tgan davrda pedagogik texnologiya – dastlabki ta’lim maqsadi va mazmunidan kelib chiqib o‘quv jarayonini loyihalashdir, deya ifodalandi. Bu bir tarafdin to‘g‘ri, lekin kengroq fikr yuritilsa, uning bir yoqlamaligi yoki bunday yondashishda o‘quvchi shaxsining inkor etilishi seziladi. Bu kamchilikni birinchi bo‘lib akademik V. Bespalko payqadi va o‘z asarida “Pedagogik texnologiya bu pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan ta’lim oluvchi shaxsini shakllantirish jarayonini ifodalash – loyihalashdir” [14], deb ta’rifladi.

Har bir olim pedagogik texnologiya atamasiga o‘z amaliyoti va nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda ta’rif bergan. Bugungi kunda pedagogik texnologiya tushunchasiga to‘liq va yagona ta’rif qabul qilinmagan. Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiya atamasiga berilgan ta’riflar ichida eng optimali YUNESKO tomonidan berilgan ta’rif hisoblanadi.


YUNESKO tashkiloti tomonidan “Pedagogik texnologiya – ta’lim shakllarini optimallashtirish maqsadida o‘qitish va o‘zlashtirish jarayonini inson va texnika imkoniyatlari hamda ularning o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda yaratish, tatbiq etish va aniqlash tizimidir” [101] deb ta’rif beradi.

Yuqoridagi tushunchalardan kelib chiqib, pedagogik faoliyatda qo‘llanadigan barcha zamonaviy vositalar, ta’lim sifatini yuksaltirishda xizmat qiladigan va dars samaradorligini oshiradigan, o‘qituvchining yuksak mahoratli, san’at darajasidagi ijodiy faoliyati, o‘quvchilarning o‘zlashtirish imkoniyatining yuksakligi va bunday darsdan o‘quvchining zavqlanib bahramand bo‘lishi, ta’limda pedagogik texnologiyalar to‘g‘ri tashkil etilganligidan dalolat beradi.

Uzoq yillar davomida pedagogik texnologiya nazariyasi va amaliyoti bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan holda o‘rganib kelindi va u turli faoliyat doirasida edi. Bugungi kunda yurtimiz mutaxassislarning ilmiy salohiyatini birlashtirishga keng imkoniyatlar yaratildi, nazariya va amaliyotni uzviyligi ta‘minlanayotganligi pedagogik texnologiyaning asl mohiyatini aniqlashga zamin yaratilmoqda.

Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyaga pedagogika fanining alohida tarmog‘i sifatida qarash yoki faqat ta‘lim amaliyotini maqbullashtirishga yo‘naltirilgan tizim, deb qarash mumkin emas. Pedagogik texnologiya bu sohadagi nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtirish doirasidagi faoliyat yo‘nalishlarini aniqlaydi. Bu yerda izlanishning mohiyati – pedagogik tizimni tashkil etuvchi elementlarni o‘rganish asosida modernizasiya qilishdan iboratdir. Sababi, har qanday o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish u yoki bu pedagogik tizimni aks ettiradi. Demak, pedagogik texnologiya – amaliyotga joriy etish mumkin bo‘lgan ma‘lum pedagogik tizimning loyihasidir.

Pedagogik tizim o‘zaro bog‘liq bo‘lgan vositalar, usullar va jarayonlar yig‘indisi bo‘lib, shaxsdagi muayyan sifatlarini shakllantirishga pedagogik ta‘sir etishni *maqsadga* muvofiq tarzda amalga oshiradi (1.1.2. - rasmga qarang). Binobarin, har bir jamiyatda shaxsni shakllantirish maqsadi belgilab olinadi va unga mos ravishda pedagogik tizim mavjud bo‘lishi kerak. Agar maqsad o‘zgarsa tizim ham o‘zgarishi shart.



1.1.2-rasm. Pedagogik texnologiyaning asosiy elementlari¹⁷.

Bunday jarayonni tashkil etishi uchun ta'lim tizimiga moslashgan, o'quvchilar yoshini inobatga olgan holda *pedagogik texnologiyaning quyidagi vazifalari* mavjud:

ta'lim-tarbiya jarayonining umumiy, yaxlit loyhasini ishlab chiqish;

¹⁷ Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik maxorat / – T.: "O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi" nashriyoti. 2006.

ta'lim-tarbiya jarayonida hal etilishi lozim bo'lgan aniq maqsad va vazifalarni belgilash;

ta'lim-tarbiya jarayoni mohiyatini bashoratlash va uning mazmunini ishlab chiqish;

ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini ta'minlashga yordam beruvchi eng samarali, maqbul shaxs, metod, usul hamda texnik vositalarni tanlash;

ta'lim jarayonida o'quvchining erkin, mustaqil faoliyat ko'rsatishi uchun muayyan shart-sharoitlarni yaratish, ularda ma'lum ko'nikma hamda malakalarning shakllanishi uchun vaqt o'rnini belgilash, ularning bilimlari darajasini avvaldan tashxislash;

ta'lim oluvchilarni faoliyatga yo'naltirish va ularni faollashtirish, nazorat qilish hamda baholashni tashkil etish.

Ana shu pedagogik texnologiya o'z vazifalaridan kelib chiqib uch xil xususiyatga ega:

ilmiylik: ilmiy-nazariy hamda amaliy g'oyalar shakllanish jarayonining mohiyatini ifodalash, o'quv-tarbiya maqsadi, mazmuni, shakl, uslublarini ilmiy jihatdan asoslash, pedagogik jarayonning umumiy loyihasini ishlab chiqish;

amaliylik: amaliyotdagi tatbiqiy hamda samaradorlik darajasini aniqlash;

tavsifiylik: rejalashtirilgan pedagogik faoliyat natijalariga erishishning maqsadi, mazmuni, metod va vositalar yordamida algoritm jarayonini yoritish». ¹⁸

Shunga xos belgi va xususiyatlarga ega bo'lgan tizimli yondashuvga asoslangan ta'lim jarayoni shaxsga yo'naltirilgan yondashuv demakdir.

Shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiya o'quvchiga ta'lim jarayonining sub'yekti, ya'ni faol ishtirokchisi, o'qituvchiga esa shu jarayonning tashkilotchisi, boshqaruvchisi ob'yekti sifatida qarashni taqozo etadi. Darsda o'quvchi faol ishlovchi shaxs bo'lib, u butun mashg'ulot jarayonida egallagan bilimlarini xotirasida tiklaydi, uni qisman yangi sharoitlarda qo'llaydi, aqliy faoliyat usullarini bajarib, ma'lumdan noma'lumga qarab boradi.

¹⁸ Saidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. - T.: «Moliya», 2003. -63-b.

Shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyaning mohiyati o'quvchini mustaqil fikrlashga o'rgatish, bilim olishga qiziqish va ehtiyoj uyg'otish, unga kashf etish lazzatini his ettirish demakdir.

Hususan, ona tilini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida o'quvchilarni qiziqtirib o'qitish va bilimlarini to'liq o'zlashtirishga erishish, o'quvchilarning o'z fikrini bayon etishga imkoniyat yaratishdi, unda asosiy talab o'quvchining hayotiy tajribasi, avval o'zlashtirgan bilimlari va qiziqishlari asosida bilim berishni nazarda tutadi.

Pedagogik texnologiya maqsadlari, vazifalari, tarkibi, mazmunining tahliliga ko'ra, N. X. Avliyakov va N. N. Musayevlar tomonidan pedagogik texnologiyaning quyidagi asosli tamoyillarini shakllantirilgan: ilmiylik, loyihalanish, tizimlilik, yo'naltirilganlik, faoliyatli yondashuvlik, boshqariluvchanlik, qayta takrorlanuvchanlik, samaradorlik.¹⁹

Ilmiylik tamoyili har qanday o'quv predmeti, o'quv materiali ona tili fanining zamonaviy yutuqlariga tayanishi lozimligini ko'rsatadi. Ushbu tamoyil, eng avvalo o'quv dasturlar, o'quv qo'llanmalar va dasturlarni yaratish jarayonida amalga oshiriladi. Ilmiylik tamoyiliga muvofiq har yili ona tili fanining ishchi o'quv rejalari va o'quv materiallarini takomillashtirish, muammoli mashg'ulot o'tkazish talab etiladi. Ilmiylik shakli va fanning tili o'rganiladigan predmetlar xarakterining asosiy ko'rsatkichlari hisoblanadilar.


Loyihalanish tamoyili - bu o'quv jarayonini tashkil etish, hujjatlarini – o'quv jarayoni grafigi; ishchi o'quv reja; ona tili fanining ishchi o'quv dasturi; ona tili fanining, bo'limlarning, tayanch iboralarining o'quv maqsadlari toifalari; ona tilini o'qitish jarayoni texnologiyasi, egallangan bilim va malakalarni baholash – oldindan yaratishni anglatadi. Ishlab chiqilgan hujjatlar asosida o'quv jarayoni amalga oshiriladi. Bu hujjatlarning barcha bandlariga rioya etilishi, rejalashtirilgan natijalarga erishishni kafolatlaydi.

Tizimlilik tamoyili pedagogik texnologiya, o'quv jarayonining barcha elementlarini qamrab olishi bilan alohida ajralib turadi. Ona tilini o'qitish jarayonining barcha elementlari, ularning o'zaro bog'liqlik sharti asosida yagona tizim kabi loyihalanadi. Bunda o'quv

¹⁹ Авлиякулов Н. Х., Мусаева Н. Н. Янги педагогик технологиялар. – Т.: “Янги аср авлоди”, 2003. – 191 б.

jarayonning barcha elementlari tuzilmasi, tashkil etilishi va faoliyati – o‘quvchilarni o‘qitishga rag‘batlantiradi.

Maqsadga yo‘naltirilganlik tamoyili o‘quv jarayoni maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishini talab etadi. Buning uchun o‘rnatiladigan maqsad, aniq va o‘lchaniladigan bo‘lishi shart. Bixeviorizm g‘oyalariga tayangan, pedagogik texnologiya aynan shu bilan farq qiladi. Pedagogik texnologiyada, maqsadlarni shakllantirish umumiylikdan xususiylikka tizimli yondashish asosida amalga oshiriladi. Birinchi navbatda, ona tili fanining ma‘lum mutaxassisni tayyorlashdagi o‘rni va ahamiyati aniqlanadi. Buning uchun Davlat ta‘lim standartidan foydalaniladi, uning asosida fanning umumiy o‘quv soatlari o‘quv mashg‘ulotlari turi – ma‘ruza, amaliy (seminar), laboratoriya, mustaqil ishlar – bo‘yicha bo‘linadi. So‘ngra, quyidagicha o‘quv maqsadlari shakllantiriladi (1.1.3-rasmga qarang):



1.1.3-rasm. O‘quv maqsadlarning shakllanish piramidasi.²⁰

Bunda o‘quv maqsadi faqat bitta ma‘noni anglatishi lozim.

Faoliyatli yondashuv tamoyili o‘quv reja, fanlar dasturi, mashg‘ulotlar turi bo‘yicha o‘quv soatlari, mutaxassis faoliyatining batafsil tahlili asosida o‘rnatilishi maqsadga muvofiqdir - hozirgi paytda «yuz bor eshitishdan ko‘ra, bir bor ko‘rish afzaldir» degan tamoyilga tayanish kamlik qiladi.


²⁰ Avliyakov N. X., Musayeva N. N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2003. – 191 b.

Boshqariluvshanlik tamoyili ona tilini o‘qitishning rejalashtirilgan natijalariga erishishni kafolatlaydi, jarayonni rejalashtirilgan maromda amalga oshirish, o‘qitish maqsadlariga erishish dasturini ro‘yobga chiqarish uchun xizmat qiladi. Mazkur tamoyil ona tilini o‘qitishning joriy natijalarini ko‘p bosqichli diagnostik (tashxisiy) tekshiruvlar o‘tkazish imkoniyatini ko‘zda tutadi, ona tilini butun o‘qitish davrida o‘qitish jarayonini boshqarish asosan didaktik testlardan foydalanib amalga oshiriladi.

Qayta takrorlanuvchanlik tamoyili ona tili fani bo‘yicha ishlab chiqilgan pedagogik texnologik xaritani, turli guruhlarda turdosh ta’lim muassasalarida boshqa sub’yektlar bilan ko‘p marotaba (takroriy) qo‘llash imkoniyatini anglatadi. Ushbu tamoyil pedagogik texnologiyaning mohiyatini – o‘qitishning ko‘zlangan natijalariga erishish kafolati bilan uni turli guruhlarda ko‘pchilik o‘qituvchilar tomonidan ko‘p marotaba qo‘llash imkoniyatini belgilaydi.

Samaradorlik tamoyili pedagogik texnologiya ona tilini o‘qitishning ko‘zlangan natijalariga maqbul xarajatlar bilan kafolatli erishish imkoniyatini yaratishini ko‘rsatadi. O‘quv jarayonining samaradorligiga pedagogik texnologiyaning yuqorida bayon etilgan tamoyillari: - ilmiylik, loyihalanish, tizimlilik, maqsadga yo‘naltirilganlik, faoliyat yondashuvi, boshqariluvchanlik, qayta takrorlanuvchanlikni amalga oshirib erishiladi.

An’anaviy o‘qitish yuqoridagi tamoyillar, ona tilini o‘qitishning tushuntiruv-ko‘rgazmali usuli, ommaviy o‘qitish asosida tashkil etiladigan bo‘lsa, zamonaviy o‘qitishda o‘quvchi shaxsi pedagogik jarayon markaziga qo‘yiladi, uning rivojlanishiga va tabiiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga qulay shart-sharoitlar yaratiladi (1.1.4-rasmga qarang).



1.1.4-rasm. O'qitish tizimining blok-chizmasi²¹.

Shuning uchun zamonaviy texnologiyalarda pedagogik jarayon, o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalari asosida amalga oshirilishi lozim.

Ona tilini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv zamirida har bir ta'lim oluvchining individualligi, o'ziga xosligi, rivojlanishining "jamoaviy sub'yekti" sifatida emas, balki birinchi galda betakror "sub'yekt tajribasi"ga egaligini tan olish yotadi. "Sub'yekt tajribasi"ni bilish jarayoniga kiritish shaxsiy ehtiyoj, qiziqish, intilish asosida o'z faoliyatini tashkil qilish demakdir. Shuningdek, o'quv ishining individual usuli va o'zlashtirishning individual mexanizmlaridan foydalanish o'quv faoliyatiga shaxsiy munosabatni qo'llanma qilib olishdir.

²¹Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Ona tilini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv shaxsning individualligini tashkil qiluvchi psixik xususiyatlar birligiga tayangan holda o'z texnologiyasi bilan individual yondashuvning muhim psixologik-pedagogik tamoyilini amalga oshiradi. Unga ko'ra, dars va o'quv mashg'ulotlarida har bir ta'lim oluvchining o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olinadi. Bularning barchasi yosh yetakchi o'quv faoliyati orqali ta'lim oluvchi shaxsi rivojlanishiga ko'maklashuvchi optimal sharoitlarni yaratadi. Amaliyotda o'qitish bola rivojlanishi darajasi bilan belgilanishi isbotlangan. Shuning uchun ta'lim oluvchi rivojlanishining kamida ikkita darajasini belgilash zarur. Ularni bilmasdan turib ta'lim oluvchi rivojlanishining real darajasi va aniq holatida o'qitishning potensial imkoniyatlari orasidan to'g'ri munosabatni topa olmaymiz.

Birinchisi, ta'lim oluvchi psixik funksiyalarining rivojlanish darajasi bo'lib, bu uning rivojlanishi belgilangan va yakunlangan davrlari natijasida hosil bo'lgan. Bunda ta'lim oluvchi mustaqil ravishda, kattalarning yordamisiz qaysi topshiriqlarni bajara olishi mumkinligi e'tiborga olinadi.

Ikkinchisi, shaxs rivojlanishining psixik potensialini aks ettiruvchi daraja – “Eng yaqin rivojlanish doirasi” hisoblanadi. Ushbu daraja bola nimani mustaqil bajara olmaydi, ammo kichik yordam bilan uddalay olishi mumkinligini ifodalaydi.

Buni ona tilini o'qitish jarayonining ba'zi bir misollarida tasvirlash mumkin. Ikki nafar ta'lim oluvchiga “Juft sifatlar va ularning imlosi” mavzusidan murakkabligi bir xil bo'lgan topshiriqlar beriladi. Birinchi o'quvchi mavzuni o'rgangandan keyin bu savolning faqat qoidalarini aytib o'tgan, ikkinchisi esa nafaqat ushbu qoidalarni aytib bergan, balki har qoidaning mohiyatini tushuntirib, tegishli xulosalar yasagan. Demak, ushbu o'quvchilarda nafaqat “Eng yaqin rivojlanish doirasi”, balki rivojlanish dinamikasi ham turlichadir.

O'rtacha o'quvchiga, barcha o'quvchilar uchun yoshi bo'yicha teng bo'lgan “Dolzarb rivojlanish” darajasiga yo'naltirilgan maktab aqliy rivojlanishi yuqori darajali bo'lgan bolalarga o'qitish sur'atlarini muntazam to'xtatib turishi hisobiga noqulay ta'sir qiladi. Shu vaqtning o'zida aqliy rivojlanishi yetarli darajada bo'lmagan o'quvchilar o'qitishning aytilgan sur'atlariga yeta olmay ba'zan

muvaffaqiyatsizlikka uchrab qoladilar. O'qituvchi buni darslarda hisobga olishi kerak.

Ta'lim oluvchilarning o'qish va aqliy rivojlanishidagi yutuqlar, ko'proq "Eng yaqin rivojlanish doirasi" qanday ekanligi bolalar bilan ishlovchi pedagoglar tomonidan hisobga olinishiga bog'liqligi xulosa qilingan.²² Ona tilini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv har bir o'quvchiga o'z qobiliyati va ehtiyojlariga mos sur'atda o'qish imkoniyatini taqdim etadi. O'quvchini rivojlanish darajasiga yo'naltiradi, mavjud imkoniyatlaridan ustun turuvchi doimiy talablarni beradi. "Eng yaqin rivojlanish individual doirasi"dan o'tilishiga imkon tug'diradi. Bu tizim o'quv faoliyati uchun yangi sharoitlarni yaratadi, o'quvchi shaxsining "Eng yaqin rivojlanish doirasi"ni hisobga olgan holda rivojlanishiga imkon tug'diradi.

Ona tilini o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalariga quyidagi asosiy tamoyillar xos bo'ladi:

insonparvarlik, ya'ni insonga har tomonlama hurmat va muhabbat ko'rsatish, unga yordamlashish, uning ijodiy qobiliyatiga ishonch bilan qarash, zo'rlashdan to'la voz keshish;

hamkorlik, ya'ni pedagog va o'quvchilar munosabatidagi demokratizm, tenglik, sheriklik;

erkin tarbiyalash, ya'ni shaxsga uning hayot faoliyatini keng yoki tor doirasida tanlab olish erkinligi va mustaqillikni berish, natijalarni tashqi ta'sirdan emas, ichki hissiyotlardan keltirib chiqarish. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarning kommunikativ asosi - pedagogik jarayonda o'quvchiga insoniy-shaxsiy yondashuv hisoblanadi.²³

Shuningdek, olim O'.Tolipovning fikricha, «Pedagogik texnologiya o'ziga xos tamoyillarga ega va ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

ona tili fanining muayyan mavzu, qism, o'quv fanidan kutilgan asosiy maqsadni shakllantirib olish;

umumiy maqsaddan kelib chiqib, darsni yoki o'quv fanini bo'limlarga ajratib, har bir bo'limdan kutilgan maqsad va bo'limlar ichida hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar tizimini aniqlab olish;

²² G'afforova T. va boshq. Ta'limning ilg'or texnologiyalari. – Qarshi: Nasaf. 2003. – 112 b.

²³ Мельникова Е.Л. Проблемный урок, или Как открывать знания с учениками: Пособие для учителя. – М., 2002. – 168 с.

bo‘lim ishida yechiladigan masalalarning har biri bo‘yicha test savollarini tuzib chiqish;

maqsadlarga yetish usullari tanlanib, ularni ishlatadigan aniq joylarni belgilab olish;

dars qismlari orasidagi zaruriy bog‘liqliklar va fanlararo aloqalarga alohida e‘tibor qaratishdir»²⁴ deb e‘tirof etadi.

Bizning fikrimizcha, ona tilini o‘qitishda individual (shaxsga yo‘naltirilgan) yondashuvning mohiyati shundaki, u ta‘lim tizimida o‘quv fanidan o‘quvchiga emas, o‘quvchidan o‘quv fani tomonga harakatlanishni taqozo etadi, o‘quvchilarning mavjud imkoniyatlarni inobatga olib, ularni rivojlantirish, takomillashtirish va boyitishga qaratilgan bo‘ladi. Shuningdek, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvda o‘rtacha o‘quvchiga yo‘naltirishdan voz kechish, shaxsning yaxshi xislatlarini izlash hamda shaxs rivojlanishining individual dasturlarini tuzishni talab etadi.

Tadqiqot ishi doirasida yuqorida keltirilgan ta‘rif va fikr-mulohazalarning mazmun mohiyatini o‘rganish va tahlil qilish orqali “Shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiya – o‘quv sub’yektlari (o‘qituvchi -o‘quvchi)ning o‘zaro ta‘sirini tashkil etish orqali o‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlariga va dunyoni shaxsiy-predmetli modellashtirishning o‘ziga xos xususiyatlariga maksimal darajada yo‘naltirilgan ta‘lim turi”²⁵ – deya mualliflik ta‘rifini keltirishga erishdik.

YOKI (Shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiya - o‘quv jarayonini tashkil etish shakli, modeli bo‘lib, unda o‘qituvchi bitta har bir ta‘lim oluvchi bilan muloqot qiladigan, har bir bolaning individualligini rivojlantirishga xizmat qiladigan ta‘lim turi.)

YOKI Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim – bu o‘quvchining shaxsiga, qadr-qimmatiga qaratilgan, sub’yektiv imkoniyatlari va qobiliyatlari avval ochib beriladigan va undan keyin ta‘lim mazmuni bilan muvofiqlashtirilgan ta‘lim.

Bugungi kunda mavjud pedagogik texnologiyalar bir qancha belgi va sifatlariga qarab turlarga ajratiladi hamda ushbu masalaga turlicha yondashuvlar mavjud bo‘lib, ulardan ayrimlarini ko‘rsatib o‘tamiz.

Bilish faoliyatini boshqarish bo‘yicha pedagogik texnologiyalar:

²⁴ Tolipov O‘. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: «Fan», 2006. -82-bet.

²⁵ Muallif tomonidan keltirilgan ta‘rif

- klassik ma'ruza;
- texnika vositalari yordamida o'qitish;
- maslahatchilik tizimi;
- darslik bo'yicha o'qitish;
- kichik guruhlar tizimi;
- kompyuter yordamida o'qitish;
- repetitorlik tizimi;
- dasturlashtiriladigan boshqaruv.

Ta'lim oluvchiga yondashuv turi bo'yicha pedagogik texnologiyalar:

- avtoritar;
- didaktik yo'naltirilgan;
- ijtimoiy yo'naltirilgan;
- antropologik yo'naltirilgan;
- pedagogik yo'naltirilgan;
- shaxsga yo'naltirilgan;
- hamkorlikka yo'naltirilgan;
- erkin tarbiyaga yo'naltirilgan;
- ezoterik ta'lim va tarbiyaga yunaltirilgan.

Tashkiliy shakllariga ko'ra, pedagogik texnologiyalar:

- hozirgi an'anaviy ta'lim;
- shaxsga yunaltirilgan pedagogik jarayon asosidagi pedagogik texnologiyalar;
- o'quvchilar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish asosidagi pedagogik texnologiyalar;
- o'quv jarayonini boshqarish va tashkil qilish samaradorligi asosidagi pedagogik texnologiyalar;
- materialni didaktik takomillashtirish va rekonstruksiyalash asosidagi pedagogik texnologiyalar;
- xususiy fanlar pedagogik texnologiyalari;
- al'ternativ texnologiyalar;
- tabiatga moslashtirilgan texnologiyalar;
- rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari;
- mualliflik maktablari pedagogik texnologiyalari;
- texnologiyalarni loyihalash va o'zlashtirish texnologiyalari.

O'rganishimiz va kuzatishimiz natijalari ta'lim tizimi uchun ona tilini o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalari quyidagilardan iborat ekanligini ko'rsatdi:

- muammoli ta'lim;
- loyiha darslari;
- trening darslari;
- hamkorlik darslari;
- anjuman darslari;
- namoyish (taqdimot) darslari;
- rolli (yoki ishbilarmonlik) o'yin darslari;
- dasturli o'qitish;
- tanqidiy fikrlash darsi;
- geymifikatsiya darsi va boshqalar.

Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos xususiyatlariga qo'yilgan maqsadga erishish kafolatini beruvchi o'quv jarayoni loyihalashdan iboratdir.


G.Ye.Muravyovanning tadqiqotlariga ko'ra pedagogik texnologiyalarning asosiy xususiyatlariga quyidagilarni "kiritish mumkin:

- maqsadga yo'naltirilganligi;
- yaxlitligi;
- ilmiy asolanligi;
- natijaga yo'naltirilganligi;
- yuqori samaradorligini;
- tizimlilik;
- pedagog va o'quvchi uchun qulayligi;
- ishonchlilik;
- natijani kafolatlanganligi"²⁶

Yuqorida aytilgan fikrlar asosida pedagogik texnologiyalarni **umumpedagogik, xususiy** (o'quv fanlari) va **kichik** texnologiyalardan iborat uchta darajaga ajratiladi.

J.G'.Yo'ldoshev va S.A.Usmonovlar "Pedagogik texnologiya asoslari" nomli asarida pedagogik texnologiyalarning darajalarini asoslab berganlar (1.1.5. - rasmga qarang).

²⁶ Муравьева Г.Е. Педагогическое проектирование в деятельности школьного учителя : учебно-методическое пособие для начинающих учителей / Е.В. Куренная, Е.А. Дубова; Г.Е. Муравьева . — Шуя : ФГБОУ ВПО "ШГПУ", 2011. — 110 с



1.1.5-rasm. Pedagogik texnologiyalar darajalari²⁷

Ta'lim amaliyotiga nisbatan pedagogik texnologiyaning uch sathi, ya'ni darajalari quyidagicha belgilanadi: umumpedagogik, xususiy metodik, lokal (modul).

1. *Umumiy pedagogik daraja.* Umumiy pedagogik (umumdidaktik, umumtarbiyaviy) texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonining yaxlit tizimlili, ma'lum bir hudud, ta'lim muassasa tomonidan uzluksiz ta'lim tizimining muayyan bir bosqishidagi texnologiyaning umumiy

²⁷ J.G'.Yo'ldoshev, S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. Xalq ta'limi xodimlari uchun qo'llanma. Toshkent: "O'qituvchi", 2004

qonuniyatlari, ilmiy-nazariy asoslari, tamoyillari, amaliyotda qo'llashning umumiy xususiyatlari, shart-sharoitlarini ifodalaydi. Shu o'rinda qayd etish kerakki, uzluksiz ta'lim tizimining har bir bosqichida ta'lim mazmuni orqali tegishli o'ziga xos maqsad va vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutilganligi sababli, pedagogik texnologiya ham o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Bu darajada pedagogik texnologiya pedagogik tizim tushunchasiga sinonim hisoblanadi. Uning tarkibiga ta'lim-tarbiya jarayonining maqsad va vazifasi, mazmuni, vosita va metodlari, tarbiya jarayonining ob'yekti va sub'yekti faoliyatining algoritmlari kiradi.

2. *Xususiy metodik darajada* pedagogik texnologiyaning muayyan bir predmet, kursni o'qitish jarayonining maqsad va vazifalarini amalga oshirish maqsadida foydalaniladigan ta'lim mazmuni, o'qitish vositalari, metodlari, shakllarining majmuasi tushuniladi.

3. Lokal (modul) darajada ta'lim-tarbiya jarayonining ma'lum bir qismining xususiy didaktik va tarbiyaviy maqsadini hal etishga qaratilgan texnologiya tushuniladi. Unda o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish, o'quvchilar bilimni nazorat qilish, shaxsiy fazilatlarni shakllantirish kabi masalalar ko'zda tutiladi.

“Ta'lim shakllari, usullari, uslubiy tizimlari xususiy metodikalar ko'rinishida hosil bo'lgan bo'lib, ular takomillashib borishi jarayonida texnologiya”²⁸ ham rivojlanib boradi. Texnologiya universal xususiyatga ega bo'lib, uni har bir pedagog maqsadga erishish uchun jarayonida qo'llashi mumkin. Buning natijasda texnologiyalarning asosiy mezonlarini quyidagicha belgilash mumkin:

1. Ma'lum ilmiy asosga, konsepsiyaga tayanganligi.
2. Tizimlilik, o'quv-tarbiya jarayoni va uning tarkibiy qismlarining o'zaro mantiqiy bog'liqligi.
3. Samaradorligi, ta'lim standartlariga erishishni kafolatlashi, talab qilinadigan vaqt, kuch va vositalarning me'yor darajasida ekanligi.
4. Boshqalar tomonidan qayta amalga oshirish mumkinligi.²⁹

Pedagogik texnologiya ratsional asosdagi ilmiy mezonlarga asoslangan bo'lishi bilan birga, uning yanada rivojlanishida intuitiv

²⁸ J.G'.Yo'ldoshev, S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. Xalq ta'limi xodimlari uchun qo'llanma. Toshkent: "O'qituvchi", 2004

²⁹ J.G'.Yo'ldoshev, S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. Xalq ta'limi xodimlari uchun qo'llanma. Toshkent: "O'qituvchi", 2004

(empirik) bilimlar ham muhim ahamiyatga ega. Shu ma'noda texnologiyani ma'lum ma'noda san'atga qiyos qilinadi. Chunki san'at intuisiyaga asoslanadi, texnologiya esa fanga asoslanadi. Lekin juda ko'p faoliyat sohalari dastlab san'atdan boshlanadi va texnologiya bilan tugaydi. So'ngra hammasi boshidan boshlanadi. Pedagogik texnologiyaning rivojlanish jarayonlarida ham ushbu holatlarni kuzatish mumkin.


Ma'lumki, inson barcha sohada biror maqsadga erishishda o'zi uchun ma'qul bo'lgan yo'l, usul, vositalardan foydalanib, kerakli faoliyatni amalga oshiradi. Demak, avval maqsad paydo bo'lsa, keyin shunga muvofiq mavjud imkoniyatlarga suyangan holdagi faoliyat kelib chiqadi.

Bundan ko'rinadiki, maqsad har bir ishning sababi va so'nggi natijasi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, maqsadning o'zi ma'lum sabablar asosida shakllanib, ushbu sabablar ehtiyoj deb ataladi. Agar ehtiyoj paydo bo'lsa, maqsad kelib chiqadi va shu maqsad faoliyatga sabab bo'ladi.

Ehtiyoj va maqsadni umumlashtirilib, *motivlar* deb ataladi. Bundan kelib chiqib, har qanday faoliyat motivlar asosida kelib chiqishi va shu motivlarga asosida amalga oshirilishi hamda so'nggi natijaga erishilishi nazarda tutiladi.

Ona tilini o'qitishda pedagogik texnologiyada motivlar ta'lim jarayoni shaklini va mazmunini keltirib chiqaradi hamda ta'lim jarayonining yakuniy natijasiga olib keladi. Bundan esa pedagogik texnologiyani motivlar, jarayon va natijadan iborat uchta tarkibiy qismlarga ajratib tahlil qilish imkoniyati paydo bo'ladi.

Bundan tashqari J.G'.Yo'ldoshev va S.A.Usmonovlar pedagogik texnologiyaning asosiy tarkibiy qismlarini quyidagicha ifodalaydilar (1.1.1 -sxemaga qarang).

Pedagogik texnologiyaning asosiy tarkibiy qismlari³⁰

Pedagogik texnologiya o‘z vazifasi bulgan ijtimoiy buyurtmani bajarib, jamiyat, ota-ona, o‘qituvchi, o‘quvchining ehtiyoj, manfaat, maqsadlariga muvofiq, bo‘lgan motivlarni qondirishga xizmat qiladi.


Pedagogik texnologiya jarayoni serqirra jarayon bo‘lib, unga tayyorgarlik ham o‘ziga xos bosqichlardan iborat.

O‘.Q.Tolipov tomonidan taklif etilgan pedagogik texnologiya jarayoniga tayyorgarlik ishlarining asosiy bosqichlari quyidagi sxemada keltirilgan (1.1.2. - sxemaga qarang).

³⁰ J.G‘.Yo‘ldoshev, S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. Xalq ta‘limi xodimlari uchun qo‘llanma. Toshkent: “O‘qituvchi”, 2004

1.1.2 - sxema

Pedagogik texnologiya jarayoniga tayyorgarlik ishlarining asosiy bosqichlari³¹



Ushbu sxemadagi har bir tushuncha o'z tarkibiga ko'ra keng mazmunga ega ekanligi ma'lum bo'lib, ularning har biri alohida mavzularni tashkil qiladi.

Pedagogik texnologiya natijasining eng asosiy ko'rsatkichi – o'quvchi hamda o'qituvchi uchun raqobatbardoshlikni ta'minlashdan iboratdir. O'quvchi va o'qituvchining raqobatbardoshligiga erishish orqali esa pedagogik jamoa va ta'lim muassasaning raqobatbardoshligi ta'minlanadi.

Agar o'qituvchining o'quv jarayoniga tayyorgarligi, ya'ni uning ona tili fani bo'yicha nazariy bilimlarga ega ekanligi va pedagogik mahorati doimo talab darajasida hamda o'quvchining qiziqishi, diqqatini jamlashi va eslab qolishi doimo yuqori darajada bo'lganda edi, unda ta'lim-tarbiya jarayonida istalgan usuldan foydalangan holda yuqori natija va sifatga erishish mumkin bo'lar edi. Biroq, ushbu ko'rsatkichlar o'zgaruvchan bo'lib, ta'lim jarayonini ana shu

³¹ Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: "Fan", 2005.

o'zgarishlarni hisobga olgan holda tashkil etish eng zarur shartlardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotimiz muammosini tadqiq etish yuzasidan belgilangan vazifalardan kelib chiqib amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari tahlili quyidagi xulosalarni umumlashtirish imkonini berdi:

pedagogik texnologiya insonga (ta'lim-tarbiya oluvchiga) oldindan belgilangan maqsad bo'yicha ta'sir o'tkazish faoliyatidan iborat;

pedagogik texnologiya o'quvchini mustaqil o'qishga, bilim olishga, fikrlashga o'rgatishni kafolatlaydigan jarayondir;

pedagogik texnologiya jarayonida o'qituvchi rahbarligida o'quvchi mustaqil ravishda bilim oladi, o'rganadi, o'zlashtiradi;

faoliyatni amalga oshirish uni tashkil qilish, olib borish, takomillashtirish, tahlil qilish, tadqiq qilish, qiyoslash, umumlashtirish, xulosa shiqarish, boshqarish, nazorat, baholash kabi jarayonlarni o'z ishiga oladi;

bu faoliyat boshqa hamma faoliyatlarga xos bo'lgan belgilarga ega bo'lib, avvalo, jarayon ko'rinishida amalga oshiriladi va shu ko'rinishda mavjud bo'ladi. Shu bilan birga bu jarayon o'ziga xos qonuniyatlarga ega bo'lib, bu qonuniyatlarni insoniyat tomonidan o'rganish davom etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan pedagogik ta'lim texnologiyalaridan foydalanish muammosi bugungi kungacha maxsus tadqiqot ob'yekti bo'lgan emas va o'z yeshimini kutayotgan dolzarb masaladir.

O'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatining samaradorligini ta'minlash, ularning bilim o'zlashtirish jarayonida faolligini oshirish masalalarining ko'p jihatdan nazariy yoritilishiga qaramay, jamiyat, fan va ta'limning yangi yo'nalishlari, talab va ehtiyojlari umumta'lim maktablarida ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan pedagogik ta'lim texnologiyalaridan foydalanish mexanizmini takomillashtirish sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruriyatini kuchaytiradi.

1.2-§. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik xususiyatlari

Zamonaviy sharoitda ta'lim tizimi shaxs imkoniyatlari va ehtiyojlarini har doimgidan ham ko'proq inobatga olish zarur. Zero, ta'lim shaxsning kasbiy jihatdan takomillashuvini ta'minlovchi asosiy

omil sanaladi. Takomillashgan, davr talablariga to'la javob bera oladigan ta'lim o'z xususiyatiga ko'ra ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan bo'lishi, demakki, uning hayotiy intilishlari, ehtiyojlari hamda qiziqishlariga mos kelishi lozim. Bu esa shaxs tomonidan mavjud bilimlarning o'zlashtirilish darajasi va shaxs qobiliyatini inobatga olgan holda tabaqalashtirilishi maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

Bugungi kunga qadar jahonning qator rivojlangan mamlakatlari ta'lim tizimi ustuvor o'rinni egallab kelmoqda hamda bilimlarni o'zlashtirishning o'rtacha darajasiga ega bo'lgan ta'lim oluvchilarga mo'ljallangan an'anaviy ta'lim iste'molchilar ehtiyojini qondira olmayapti. Davomiy tadqiqotlar, ta'lim samaradorligi va istiqbolini belgilash yo'lidagi amalga oshirilgan tahlillar zamonaviy sharoitda an'anaviy ta'limning davlat tomonidan erkin, mustaqil va har tomonlama kamol topgan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishga qo'yilayotgan ijtimoiy talabni qondirish imkoniyatiga ega emasligini ko'rsatmoqda. Takomillashgan ta'lim tizimi ta'lim oluvchilarning ichki imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarish va qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

Shunday ekan, bugungi kunda zamonaviy pedagogik ta'lim ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va ilmiy-texnik taraqqiyotiga moslasha oladigan shaxsni tarbiyalash, shu bilan birga tarixiy-madaniy an'analarni ham inobatga oladigan barqaror va samarador ta'lim tizimining tashkil etilishini taqozo qiladi.

So'nggi yillarda pedagogik ta'lim tizimining rivojida bir qator asosiy an'analarni ko'zga tashlanmoqda. Ular:

- yurtimiz umumiy o'rta ta'lim tizimining rivojida yangi tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari shakllandi;

- pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarining yangi modeli tashkil etildi;

- turli umumiy o'rta ta'lim muassasalarining (prezident maktablari, ijod maktablari, barkamol avlod maktablari) paydo bo'lishi bilan bog'liq holda pedagogik yo'nalish mutaxassisliklari paydo bo'ldi;

- ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida va mehnat bozoridagi o'zgarishlar aniq maqsadga yo'naltirilgan maqsadli o'quv dasturlarni ishlab chiqilishini taqozo etmoqda;

- davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va o'quv fanlari o'zgarishi o'quv jarayoniga yangicha yondashuvni talab etmoqda;

- ta'lim sohasida umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy va professional ta'lim bo'g'inlarida ta'limni tashkil etishga qaratilgan maqsadli dasturlari doirasida nazoratsiz va boshqarilmaydigan axborot jarayonlarini jiddiy tahlil etish zaruriyati yuzaga keldi.

Shunga ko'ra, ona tili fanini o'qitishning zamonaviy usul va vositalarini, o'qitish jarayonini tashkil qilishning yangi shakllarini amaliyotga joriy qilish, shuningdek, o'qituvchilarning ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvga asoslangan zaruriy ko'nikmalarini shakllantirish nihoyatda muhimligidan kelib chiqib, o'quv dasturlari zamonaviy talablar asosida takomillashtirilmoqda, ta'lim mazmuni modernizasiya qilinmoqda. Zero, jahon sivilizasiyasi davri hozirgi avlodni mumtoz pedagogik nazariyalar bilan emas, balki yangilangan o'quv-tarbiya tizimi asosida tarbiyalashni nazarda tutadi. Shu bois umumta'lim maktablarida ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalaridan foydalanishning dolzarb muammolarini o'rganish va tadqiq qilish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Shunga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmonning 1-ilovasi bilan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" tasdiqlandi. Konsepsiya xalq ta'limi tizimining uzoq muddatli rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi:

- "uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

- o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;

- maktab ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish"³²

³² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmon

Konsepsiyada nazarda tutilgan har qanday g'oya va yangilik bizga kelajakda nima berishini aniq anglamog'imiz lozim. Buning uchun esa ushbu kelajak bilan tanishish, unga boradigan yo'llarni ko'rish, bugungi kunning asosiy tamoyillarini anglab yetish va ularni yangi ta'lim loyihasiga kiritish lozim. Bugun kelajakning yangi ta'lim tizimini yaratuvchi mamlakatlar ertangi kunda dunyo iqtisodiyotining yetakchilariga aylanadilar.

Shuningdek, Konsepsiyada umumiy o'rta ta'lim tizimining asosiy maqsad va rivojlanish yo'nalishlari ham belgilab berildi. Unga ko'ra quyidagilar xalq ta'limi tizimining strategik maqsadlari hisoblanadi:

- "umumta'lim tizimida iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi, ilg'or xalqaro tajriba va jamiyatning zamonaviy talablariga muvofiq sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish;
- inson kapitalini mehnat bozorida va umuman mamlakatda o'quvchining raqobatbardoshlik darajasini belgilovchi asosiy omil sifatida rivojlantirish"³³

Mazkur vazifalarni sifatli amalga oshirish uchun o'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan, uzluksiz va mustaqil o'rganishni, ta'lim oluvchilarni faol bilim o'zlashtirish darajasini oshirish imkonini kengaytirishni nazarda tutuvchi texnika va texnologiyalarni ta'lim tizimiga joriy etish muhim vazifalardan hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, biz tadqiqotimiz doirasida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirishni maqsad qilib oldik. Dastlab umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalaridan foydalanishning dolzarb muammolarini o'rganishga erishdik.

Umumiy o'rta ta'lim oldida turgan muammo – faqat sifatli bilim berish emas, balki muammolarni hal etish borasidagi ijtimoiy buyurtmani ham o'zgartirishni talab qiladi. Juda ko'plab fundamental va amaliy fanlarni qayta yo'naltirish shunga olib keldiki, endilikda mazkur fanlarning ilmiy ob'yektlari, eng avvalo, ularning inson hayotidagi ahamiyati, u tomonidan tashkil etiluvchi hayotiy faoliyat mohiyati, shaxsni shakllantirish jarayonida ular tomonidan

³³O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmon

bajariladigan vazifalar nuqtai nazaridan o'rganiladi. Bu o'z navbatida ko'p jihatdan pedagogik ta'lim tizimida jismoniy madaniyat, harakatning ahamiyatini tushunishni taqozo etadi.

Bunday yondashuv mohiyati ta'lim jarayoni sub'yektining yaxlit namoyon bo'lishi, rivojlanishi va o'z-o'zini anglash uchun shart-sharoitni yaratish orqali tarkib topadi. Umumiy o'rta ta'limda ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'z texnologiyasiga ega bo'lib, unga ko'ra motiv (rag'bat)lar qaror topadi, shuningdek, ta'lim maqsadi va vazifalari, ta'lim oluvchilar oldiga qo'yilgan maqsadlariga erishish usullari borasidagi bilimlari, davlat standartlarida ko'rsatilgan tayanch ma'lumotni egallash, ta'lim jarayonining tizimli va ilmiy asoslangan dinamikasi hamda bilim, ko'nikma, malakalarning o'zlashtirilish darajasi aks etishi aniqlanadi.

Ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan vaziyatlarni yaratish bir qadar ustuvor deb tan olinadi. Bu qadriyatli omillarni yuzaga keltiruvchi o'ziga xos pedagogik muhit hisoblanadi. Unga ko'ra ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim ta'lim oluvchining psixologik erkinligini ta'minlaydi, shuningdek, qadriyatlarning boshqa bir tizimini ishlab chiqishini inobatga olinishi lozim. Bundan tashqari, o'quvchi bilimlarning shaxsiy ahamiyatga ega bilimlarga aylanishi ro'y beradi.

Bu turdagi ta'lim o'quvchilarda mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlik kabi sifatlar, shuningdek, mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu turdagi ta'limni tashkil etishda pedagoglardan har bir o'quvchi imkon qadar individual yondashishni, uning shaxsini hurmat qilishni, unga ishonch bildirish taqozo etiladi. Qolaversa, ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'qitish jarayonining ishtirokchilari o'qituvchi - o'quvchi yoki o'quvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'quvchilar guruhi, o'quvchi-o'quvchilar jamoasi tarzida o'zaro hamkorlikda bilim olish, shaxs sifatida kamol toptirish uchun qulay pedagogik sharoitni yaratish zaruriyatini ifodalaydi.

Ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jamiyatning bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashning axloqiy, intellektual va kasbiy darajalariga bo'lgan talablarini hisobga olgan holda o'quvchilarning ehtiyojlari, qiziqishlari, moyilligi va qobiliyatlariga muvofiq o'quv jarayonini tashkil etish sifatida qaralishi kerak. Bunday ta'lim nafaqat

bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarga, balki asosan o‘quvchining odob-axloqi, madaniyati, dunyoqarashi, qiziqishlari, aql-zakovati, munosabatlari, hissiyotlari, salomatligi va turmush tarziga qaratilgan. Uning yetarlicha yuqori sifatini kafolatlaydigan zamonaviy ta’limning ustuvorligi, albatta, o‘z-o‘zini tarbiyalash va shaxsning o‘zini o‘zi rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar bo‘lishi mumkin va bo‘lishi kerak. Ushbu yangi pedagogik paradigma quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

1) har bir shaxsning qadr-qimmatini va uning o‘ziga xosligini tan olish;

2) har bir shaxsni rivojlantirish, shu jumladan uning ijodiy o‘zini o‘zi rivojlantirish imkoniyatlarining bitmas-tuganmasligi;

3) ichki erkinlikning ustuvorligi – ijodiy o‘zini o‘zi rivojlantirish erkinligi;

4) ijodiy o‘zini o‘zi rivojlantirish tabiatini shaxsning refleksiv ongining ajralmas xarakteristikasi sifatida tushunish, uning tarkibiy qismlari o‘z-o‘zini bilish, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘zini takomillashtirish va shaxsning ijodiy o‘zini o‘zi anglashdir.

O‘quvchi nafaqat bilim va tajriba orttirishi, balki “shaxs” bo‘lishni ham o‘rganishi kerak. Shaxs quyidagi fazilatlar bilan ajralib turadi:

kasbni ongli ravishda tanlay olishi;

axloqiy tarbiya va madaniyati mavjudligi;

ijtimoiy javobgarligi;

o‘zini anglashga, ijtimoiy tan olishga intilishi;

refleksiv ong mavjudligi;

qadriyatlarga yo‘nalganligi;

tashqi dunyoga tanlangan munosabat, shaxsiy pozisiya mavjudligi;

o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘zini rivojlantirish uchun intilish;

hayotning ma’nosini izlash;

individuallik, o‘ziga xoslik.³⁴

Inson taraqqiyoti jarayonida shartli ravishda ikkita umumiy yo‘nalish ajratiladi: ijtimoiylashuv va individuallashuv. Ijtimoiylashtirish o‘sib borayotgan shaxs tomonidan ijtimoiy tasdiqlangan ideallar, normalar va xatti-harakatlar hamda faoliyat usullarini o‘zlashtirish bilan bog‘liq. Bu o‘quvchilarning jamiyat, uning madaniyati va turmush tarzi

³⁴ Шарипов Ф.В. «Педагогика и психология высшей школы» Москва 2012 г.

haqidagi g'oyalarini shakllantirishga, ularda ijtimoiy ahamiyatga ega fazilatlarni rivojlantirishga, ularning moslashish qobiliyatlari va odamlar o'rtasida hayot mexanizmlarini shakllantirishga yordam beradi. Ijtimoiylashuv insonda ijtimoiy tipikani shakllantiradi. Ikkinchi yo'nalish, individualashuv, insonning individualligi, uning o'ziga xos ko'rinishi va ichki dunyosi va o'ziga xos turmush tarzining shakllanishi va namoyon bo'lishi bilan bog'liq. Bu unga o'zi anglashga va shaxs sifatida shakllanishga imkon beradi. Individuallashuv insonda jonli shaxsning rivojlanishiga hissa qo'shadi. Hatto bola rivojlanishining ikkita umumiy yo'nalishining qisqacha tavsifi ham ularning har biri uchun pedagogik ta'minot zarurligiga ishoniradi.

Shunday qilib, ta'lim oluvchida o'z faoliyatini ongli, mustaqil tashkil etish ko'nikmalarining shakllanishi uchun sharoit yaratiladi. Maktab ta'limga mo'ljallangan ta'lim dasturlarigina emas, balki o'qitish metodikasi, jumladan, bevosita ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishga yo'naltirilgan metodika mazmuni ham ham o'zgarimoqda.

Shu bois faqatgina ta'lim sifati to'g'risida emas, aynan ta'lim dasturlarini mustaqil loyihalash va amaliyotga faol, samarali tatbiq etish layoqatiga ega shaxsni shakllantirish haqida bormoqda.

Zamonaviy pedagogik ta'lim mazmuni o'ziga xos evolyutsion rivojlanish tajribasiga ega ko'p darajali tizim bo'lib, o'z xususiyatlariga ko'ra yaxlit konsepsiya sifatida namoyon bo'lmoqda. Qolaversa, ko'plab ta'lim muassasalari faoliyatini tahlil qilish ta'lim oluvchilar xuddi avvalgidek "bilimlarni qabul qilib oluvchi", "ta'lim iste'molchisi" o'rnini egallamoqda.

Bizning fikrimizcha, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida yangi konseptual munosabatlar shakllangan sharoitda o'qitishning yangi modelini yaratishda ustuvor asos ta'lim oluvchining faol pozitsiyasi bo'lishi lozim. Bu pozitsiyaga ko'ra o'quvchi nafaqat ta'lim yo'nalishlarini, balki u yoki bu ta'lim maqsadlariga erishishning vosita va yo'llarini ham tanlay olish imkoniyatiga ega bo'lishi bilan belgilanadi. Aynan mana shu jihat maktab o'qituvchisining kasbiy mahorati va salohiyati hamda uning o'ziga xos ko'nikuvchan qobiliyatini oshirish uchun kuchli rag'bat bo'la oladi.

Shunga ko'ra, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan o'qitish faoliyati jarayonini takomillashtirish o'ta muhim

sanaladi. Mana shu maqsadga ko‘ra o‘quvchi shaxsining biologik va ijtimoiy omillarni hisobga olgan holda o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z-o‘zini tashxislashga imkon beradigan tabiiy, nazorat qilish hamda boshqarish mumkin bo‘lgan o‘qitish sharoitida tajriba-sinov ishlariga jalb etish samarali deb topildi. Zero, o‘qituvchilik kasbini tanlagan o‘qituvchi birinchi kundan boshlab butun o‘quv yili uchun mo‘ljallangan o‘quv rejasidan xabardor bo‘libgina qolmay, shu bilan birga asosiy o‘quv fanlari bo‘yicha ta’lim davri uchun o‘zining o‘quv faoliyatini individual rejalashtirishga yordam beruvchi o‘quv dasturlariga ega bo‘lishi lozim.

Umumta’lim maktablarining jamiyat tomonidan qo‘yiladigan ijtimoiy talablarga tezkor javob bera olishi, yuzaga kelgan yangi vaziyatga tez moslashishi, shu bilan birga, to‘plangan ilg‘or tajribalarni saqlab qolishi muhimdir. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, umumta’lim maktablari bir qadar konsyervativ xususiyatga ega bo‘lib, ularda faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilarning aksariyati ro‘y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar va ilmiy-texnik taraqqiyotiga juda sust moslashadilar. Ko‘p vaziyatlarda yangiliklar ijobiy qabul qilinmaydi. Ilg‘or tajribalar, yangiliklarning o‘qituvchilar va o‘quvchilar tomonidan ijobiy qabul qilinishi uchun ma’lum vaqt talab etiladi.

Biroq, global axborotlashuv va raqamlashtirish sharoitida shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalarini qabul qilish va ulardan ta’lim jarayonida samarali foydalanish masalasining ijobiy hal etilishi e’tirozlarga sabab bo‘lmasligi lozim. Agarda an’anaviy ta’lim ustuvor bo‘lgan davrlarda ta’lim tizimida o‘qitish yetakchi o‘rinni egallagan bo‘lsa, mavjud sharoitda mustaqil o‘qish tizimning muhim jihati hisoblanadi. Shu sababli endilikda “o‘qituvchi – darslik – o‘quvchi” tamoyili “o‘quvchi – darslik – o‘qituvchi” tarzida o‘zlashtirilishi maqsadga muvofiqdir.

Ushbu tamoyilga ko‘ra pedagoglarning asosiy vazifasi aniq ta’limiy maqsadlarga muvofiq ta’lim oluvchilarning mustaqil bilim egallash, hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, o‘zlashtirgan nazariy bilimlarni amaliyotda faol qo‘llashga o‘rgatishdan iborat. “Endilikda o‘qituvchi asosiy e’tiborni tayyor bilimlarni o‘quvchilarga uzatishga emas, aksincha, ularni turli manbalardan foydalangan holda bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish, ularda mustaqil, erkin fikrlash qobiliyatini shakllantirish, shaxsiy nuqtai nazarlarini isbotlay olish, avval

o‘zlashtirilgan bilimlarni yangi ma’lumotlar bilan boyitishga imkon beruvchi samarali metodlarni tanlay olishga qaratishi zarur. Pedagog faoliyatining qayd etilgan tahlilda amalga oshirilishiga yordam beruvchi ta’lim rivojlantiruvchi, ya’ni shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim sifatida e’tirof etiladi”³⁵

Rossiyalik pedagog-olimlar Yu.K.Babanskiy, M.Maxmutov, P.I.Pidkasistiy, N.A.Sayfulina va boshqalarning qarashlarida ham “ta’lim tizimida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim metodlari va vositalaridan samarali foydalanishning ahamiyati yuqori baholangan. Zero, ular shaxsda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning zarur sharti so‘zsiz bilimlarni puxta o‘zlashtirish hisoblanadi. Biroq, axborotlarni imkon qadar ko‘proq o‘zlashtirilishi bu hali bilimni egallash degani, shuningdek, o‘zlashtirilgan bilimlarni bayon etishning o‘zigina o‘quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun yetarli emas” deb hisoblaydilar.

Ta’limni faollashtirish, ta’lim oluvchilarni mustaqil ijodiy faoliyatga bog‘lash orqali ularni fikr yuritishga, tafakkurini ishlatishga jalb qilish zarur degan g‘oyalarni J.J.Russo, I.G.Pestolossi singari mutafakkirlarning asarlarida uchratish mumkin. Ularning asarlarida qotib qolgan, yodlashdan nariga o‘tmaydigan eski ta’lim usullaridan voz kechib, ta’limning «faol» usullariga o‘tish targ‘ib qilinganligining guvohi bo‘lamiz.³⁶

XX asrning 70-80-yillariga kelib angliyalik psixolog E.De Bono pedagogik texnologiyalarning ta’limda qo‘llanilishi tarafdori bo‘lib chiqdi va o‘z tadqiqotlarida ularning o‘quvchilar aqliy taraqqiyotiga ta’sirini ko‘rsatib berdi.³⁷ Uning fikricha, ta’lim oluvchida tafakkur jarayonini uyg‘otmaydigan ta’lim har doim kutilgan natija bermaydigan ta’lim hisoblanadi.

Bugungi kunda asosiy maqsad tayyor bilimlarni o‘zlashtirish va umumlashtirish emas, balki ta’lim oluvchining individual intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beruvchi ta’lim vositalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishdan iborat bo‘lmoqda.

³⁵ Nurillayeva A.N., Shayzakova D.A. “Zubtutum (plantago major) dorivor o‘simligi” mavzusini o‘tishda didaktik o‘yin texnologiyalaridan foydalanish. J: Muallim. №5 (2021)]

³⁶ Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М.: ИРПО, 2000. - 212 с.

³⁷ Столяренко Л.Д. Педагогическая психология. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2000. - 544 с.

Ayni vaqtda deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda markazda o'qitish jarayonining asosiy ishtirokchisi bo'lgan o'quvchi, o'quvchi turuvchi va shaxsga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishga imkon beruvchi barcha shart-sharoitlar yaratilgan. "Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – bu o'quvchining shaxsiy, individual layoqati, qobiliyati va imkoniyatlarini inobatga olgan holda o'quv jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini tadbiiq etish asosida unda ma'lum bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish emas, balki, eng asosiysi, uning shaxsini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim hisoblanadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosini o'quvchida ong, xarakter va dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiluvchi tabaqalashtirish va individuallashtirish tamoyillari tashkil etadi"³⁸

Mazmun va shaklning xilma-xilligi – turmush tarzining muhim omillaridan biri bo'lib, mazkur omil o'quvchining individual xususiyatlari, imkoniyatlari va qiziqishlarini inobatga olgan holda taklif etilayotgan o'qitish usullaridan birini tanlash imkoniyatini yuzaga keltiradi. Bu kabi xilma-xillik u yoki bu darajada ta'lim tizimida aks etishi lozim. O'quv predmetlari bo'yicha ta'limning turli darajada bo'lishi esa o'quvchi oldida yuzaga keladigan muammolarni hal etishning eng maqbul yo'li, sharti bo'la oladi.

Ma'lumki, XX asrning boshlarida o'quv mashg'ulotlari shunday tuzilgan ediki, unga ko'ra o'quvchi har kuni muayyan fanlar majmuasi (masalan, bir soat matematika, bir soat, fizika, bir soat adabiyot, musiqa va hokazolar)dan tarkib topgan jarayonda asosiy ishtirokchi bo'la olishi talab etilardi. Mashg'ulotlar so'nggida esa aynan mana shu fanlar bo'yicha uy vazifalari topshirilardi. O'quvchi sanab o'tilgan fanlar bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarni o'zaro bir-biriga bog'lashga qiynalardi, fanlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlarning tizimida aks etishini anglashda qiyinchiliklarni his etardi.

"Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim" tushunchasi tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan ta'limni uzluksiz ta'lim tizimida, ommaviy o'qitish sharoitida tashkil etilishini ifodalaydi. Uzluksiz ta'lim tizimiga tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan ta'limni tashkil etish – bu faqat ta'limni tashkil etish jarayonida ularning ayrim imkoniyatlaridagina foydalanishni anglatadi.

³⁸ Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: "O'qituvchi", 2004. -102 b.]

Ta'lim jarayoni hamda ta'limdan tashqari sharoitlarda ham mazkur yo'nalishlarda o'qitishni tashkil etishda asosiy e'tibor o'quvchining mustaqil anglash faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga qaratilishi maqsadga muvofiqdir. Zero, bir o'quvchiga bilimlarni mustaqil o'zlashtirish maqsadida faoliyatini qanday tashkil etish, manbalardan foydalanish yuzasidan bir marta tushuntirish, yo'l-yo'riq ko'rsatish kifoya qilsa, boshqa bir o'quvchiga esa bir necha marta tushuntirish va yo'l-yo'riq ko'rsatish talab etiladi. Barcha o'quvchilarga esa bu borada aniq ko'rsatmalar berish, yo'l-yo'riq ko'rsatish, so'ngra esa u yoki bu nazariy bilimlarni egallashlarini, ularni amaliy faoliyatda qo'llay olishlarini, faoliyatga ijodiy yondashishlarini izchil nazorat qilib borish pedagogik jihatdan to'g'ri sanaladi. Bunda har bir o'quvchining bilim, ko'nikma va malakalarning o'quv dasturlari va davlat standartlarida belgilangan darajalarini egallay olishlari muhimdir. Bu muammo ham ta'lim jarayoniga maqbul pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish orqali ijobiy hal qilinadi.

Rossiyalik mashhur pedagog B.S.Gershunskiy XXI asrda pedagogik jarayon samaradorligini oshirish yo'llarini tadqiq etishda uni qayta yo'naltirish zarurligiga e'tiborni tortadi. Bunga quyidagilarga erishish maqsadga muvofiqdir:

- "o'quvchining ijrosi, natijaviy faoliyati o'rniga o'quv jarayonining barcha bosqichlarida ijodiy, izlanuvchan faoliyatini tashkil etishga erishish;

- qat'iy boshqaruv, ta'lim, tarbiya va rivojlantirishning maqsad, mazmun, metod, vosita va tashkiliy shakllari birligini ta'minlashdan ta'lim oluvchilarning o'quv-anglash faoliyatini individuallashtirish va tabaqalashtirishga o'tish:

- ta'lim jarayonining barcha elementlarini yagona g'oyaga bo'ysundirishdan g'oyaviy ko'p fikrlilik, hayotiy maqsad va tamoyillarni tanlashda ta'lim oluvchilar erkinligini ta'minlash;

- texnokratik va insonparvarlik yo'nalishlari va ustuvor tamoyillari tizimining o'zaro muvofiqligidan pedagog va ta'lim oluvchilarning ta'limiy va o'quv-anglash borasidagi o'zaro faoliyatlarining tabiiy rivojlanish bilan uyg'un bo'la olishiga erishish"³⁹

³⁹ Гершунский Б. С. Прогностические методы в педагогике. М., Просвещение. 2001

Bundan kelib chiqqan holda, bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim tizimi taraqqiyotining istiqbolli yo‘nalishi sifatida shaxsning xilma-xil, mustaqil va maqsadga muvofiq faoliyati negizida intellektual va axloqiy rivojlanishini ta’minlashni ko‘rishimiz mumkin. AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Kanada kabi rivojlangan mamlakatlarda ta’lim sohasidagi islohotlarni amalga oshirishda ushbu yo‘nalish asosiy deb qabul qilingan. Bundan kelib chiqib, ta’lim sohasida quyidagi vazifalar belgilangan:

- 1) umumiy o‘rta ta’lim tizimini isloh qilish;
- 2) ta’lim oluvchilarning mustaqil fikr yuritishlari va faolliklarini zamonaviy ta’lim va tarbiyaning yetakchi tamoyillari qatorida e’tirof etish;
- 3) ta’lim jarayonida ilg‘or axborot kommunikatsion texnologiyalari va texnik vositalarni integrasiyalash.

Yaqin o‘tmishda an’anaviy ta’lim yondashuviga ko‘ra yuqorida belgilangan vazifalarni ijobiy hal etishning imkoni yo‘q deb hisoblanar edi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining yangi tahririga ko‘ra vaziyat o‘zgardi hamda umumiy o‘rta ta’lim sohasidagi islohotlar strategik muhim vazifalarini hal qilish uchun yetarlicha sharoit yaratib, ular ijobiy hal qilinmoqda. Shunday qilib, bu yo‘lda yaratilgan imkoniyatlar va zarur shart-sharoitlar quyidagilardan iborat:

1) har bir o‘quvchining o‘quv-anglash jarayonida faol ishtirok etish imkoniyati inobatga olindi (endilikda ular o‘quv fanlari bo‘yicha bilimlarni o‘zlashtiruvchi sust tinglovchi emas, aksincha, mustaqil, faol faoliyat ko‘rsatish orqali bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtiruvchi, o‘zlashtirgan nazariy bilimlarni amaliyotda samarali qo‘llay oluvchi, bilimlarni qaysi sharoit, qayerda va nima maqsadda qo‘llashni yaqqol tasavvur eta oladigan sub’yektdirlar);

2) o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni ta’minlashning imkoniyatlari o‘rganildi (pedagog va ta’lim oluvchilarning o‘zaro hamkorlikda ishlashlari hamda turli muammolarni birgalikda hal qilishlari, bu jarayonda aniq kommunikativ malakalarga ega bo‘lishlari, hatto mintaqada joylashgan boshqa oliy ta’lim muassasalari, mintaqadagi qo‘shni davlatlar va boshqa mamlakatlar bilan hamkorlikka erishish, o‘zi ta’lim olayotgan muassasaning axborot texnologiyalari markazida emas, balki butun

jahon mamlakatlarning ilmiy, madaniy, axborot markazlari orqali zarur ma'lumotlarni erkin qo'lga kiritish imkoniyatining yaratilganligi u yoki bu muammolarni har tomonlama, chuqur tadqiq etilishini ta'minlaydi).

Umumiy o'rta ta'lim sohasidagi islohotlarda uzluksiz ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan barcha ta'lim muassasalari, davlat hamda jamiyatning imkoniyatlarini birlashtirish, muayyan nuqtaga to'plash ustuvor vazifalar sifatida belgilandi. Zamonaviy shaxsning ta'lim olishini maktab ta'limi bilan nihoyasiga yetmaydi. Aksincha, u uzluksiz davom etadi. Uzluksiz ta'lim tizimi – aniq davrlarni o'z ishiga olgan va turli bosqishlarda ta'lim oluvchiga muayyan darajadagi, murakkablikdagi bilimlarning uzatilishini ta'minlovchi yaxlit jarayon sanaladi. Shu sababli bilim olishga bo'lgan yangi ehtiyoj yuzaga keldi. Endilikda ta'lim muassasalarida kunduzgi o'qish bilan chegaralanib qolmay, balki zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida masofaviy ta'limdan foydalangan holda mavjud bilimlarni mustahkamlash, boyitish, izchil ravishda o'z ustida ishlashga bo'lgan ehtiyojni qondirish yo'lida amaliy harakatlar olib borilmoqda.

Mazkur dolzarb pedagogik muammoni hal qilish samarali va izchil, shu bilan birga qisqa muddatlarda amalga oshirilishi lozim. Shu sababli ta'lim tizimining asosiy elementlari, tashkiliy qismlari o'rtasidagi aloqa xarakterini inobatga olish, yaxlit zanjirni yaratilishida muhim bo'lgan bo'g'inni topa olish, ya'ni yangi ijtimoiy va iqtisodiy sharoitda ta'lim maqsadini aniq bajarishga erishish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, umumiy o'rta ta'lim tizimining uzviyligini ta'minlovchi muhim bo'g'in – bu o'qitish jarayonida bir biri bilan bog'liq bo'lgan ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash hisoblanadi. Zero, shaxsga yo'naltirilgan ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanishning pedagogik xususiyatlarini ta'lim jarayoniga keng tatbiq etish ta'lim paradigmalarining o'zgartirilishiga olib keladi hamda ilg'or pedagogik texnologiyalarda jam bo'lgan imkoniyatlardan samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi.

1.3-§. O‘quvchilarga ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalar va ularning didaktik imkoniyatlari

Zamonaviy dunyoda jamiyatning har tomonlama rivojlanishi ta‘lim mazmuni va sifati bilan bog‘liq ekanligi o‘z isbotini topib bormoqda. Butun dunyoda yuz berayotgan globallashuv jarayonlarining ta‘lim sohasiga ham jadal sur‘atlarda kirib kelishi, axborot oqimining ko‘pligi, innovatsion texnologiyalarning shiddatli rivojlanishi, albatta, ta‘lim mazmunida ham shunga mos o‘zgarishlar bo‘lishini taqozo qiladi. Ta‘limning bugungi kundagi vazifasi sohaga qo‘yilgan davlat siyosatini amalga oshirish, kadrlar tayyorlash bo‘yicha davlat talablarni sifatli bajarish, o‘quv adabiyotlarining zamonaviy avlodini yaratish, o‘qituvchi -murabbiylarning metodikasini uzluksiz takomillashtirish, o‘quvchilarga shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalari asosida dars berish kabi pedagogikaning metodologik ahamiyatga ega muammolari bilan bevosita bog‘liq. Ushbu muammolarning hal qilinishi ta‘lim mazmuniga qo‘yilayotgan davlat talabining sifatli bajarilishini ta‘minlaydi, ta‘lim berishning asosiy konseptual masalalarining ijobiy yechimiga sabab bo‘ladi. Bu esa fan metodologiyasi va metodologik tadqiqi bilan bog‘liq jarayonlardir.

Umumiy o‘rta pedagogik ta‘lim tizimida ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim jarayonini tashkil etish muammosi ko‘p qirrali bo‘lib, bu sohada mutaxassislar tomonidan turlicha yondashuvlar va nuqtai nazarlar ilgari surilmoqda. O‘qituvchilardan ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim jarayonini maqsadga muvofiq tarzda tashkil etishda mazkur hodisaning o‘ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilishlari talab etilmoqda. Pedagoglar ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim jarayonini maqsadga muvofiq tarzda tashkil etishlari, bu jarayonning maqsadi, vazifalarini yaxshi tushunishlari, shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik ta‘lim texnologiyalarni har tomonlama chuqur o‘zlashtirishlari lozim. Ushbu maqsadga erishishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar va pedagogikaning zamonaviy paradigmalari muammosi mamlakatimizda B.Xodjayev, L.G.Boboxodjayeva, X.A.Shayxova, G.H.Tillayeva, N.Indiaminov, B.Babajanov kabi tadqiqotchilarning; xorijda I.S.Yakimanskaya, S.Morozov, D.Smolyakova, N.Meyer, A.Klapper kabi olimlarning ishlarida yoritilgan.

Ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasida insonparvarlik g'oyasi pedagogika va psixologiya bilan birlashib, muayyan uyg'unlikni namoyon qiladi. Mazkur texnologiyaning samarali ishlashi uchun o'quvchi iqtidori muhim ahamiyatga ega. An'anaviy pedagogik texnologiyalardan farqli ravishda shaxs yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasining markazida o'zining maksimal imkoniyatlarini ishga solib bilim olishga intilish, yangi tajriba-sinovlarni qabul qila olish, har xil vaziyatlarda mustaqil qaror qila olish, nostandart fikrlash kabi fazilatlarga ega o'quvchi shaxsi turadi.

Ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim quyidagi xususiyatlarga ega:

- o'quvchilarning ta'limdagi mustaqilligini ta'minlash, ular uchun ma'qul bo'lgan metodlarni tanlash;

- o'quvchilarning mavjud bilim hamda salohiyatlariga, tajribalariga ishonch bildirish;

- o'quvchilarning ijtimoiy xususiyatlari va turmush tarzini hisobga olgan holda o'z "men"ini namoyon qilishga bo'lgan intilishini rag'batlantirish;

- o'quvchilarning emosional holati, shuningdek, ularning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini hisobga olish;

- o'quvchilarning ta'lim olish strategiyasiga xos bo'lgan o'quv ko'nikmalarini maqsadli shakllantirish;

- ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi vazifalarini qayta taqsimlash: o'qituvchining yetakchilik rolini cheklash, unga yordamchi, maslahatchi sifatida qarash.

Ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasining asosiy tamoyili o'quvchi shaxsiyatidagi individuallikni tan olishdir. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvi variantlilik va aql tavsifi tamoyillari asosida ish ko'radi. Bunda **variantlilik** o'quvchilarning individual xususiyatlari va tajribalariga qarab barcha uchun bir xil bo'lmagan ta'limning turli modellaridan foydalanish (ushbu tamoyilning tatbiqi bo'yicha mas'uliyat o'qituvchi da qoladi)ni anglatadi, **aql tavsifi** bu o'quvchilarning bilish, birgalikda harakat qilish va borliqni emotsional o'zlashtirish jarayoniga qaratilgan texnologiyadir.

Ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim modeli bolaning shaxsiy xususiyatlarini ochib berish va rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni (ijtimoiy, pedagogik) yaratishga qaratilgan. Bu modelda asosiy tushunchalar quyidagilar: o‘quvchining sub’yek sifatidagi tajribasi, shaxsiy rivojlanish trayektoriyasi va aqliy tanlov. Ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning an’anaviy ta’limdan farqi quyidagilardan iborat (2.2.1-jadval):

2.2.1-jadval

Ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning an’anaviy ta’limdan farqi⁴⁰

An’anaviy yondashuv	Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv
Ona tili fanini o‘qitishda ta’limga muayyan qolipga tushirilgan jarayon sifatida qaraladi (o‘zining aniq tartibqoidalariga ega)	Ona tili fanini o‘qitishda o‘quvchiga individual munosabat, uni shaxs sifatida takomillashtirish bo‘yicha pedagogik qo‘llab-quvvatlashga qaratiladi
Ona tili fanini o‘qitishda o‘quvchining rivojlanish vektori oldindan o‘rnatilgan bo‘ladi	Ona tili fanini o‘qitish uchun zarur bo‘lgan rivojlanish vektorini oldindan belgilamaydi, balki rivojlanish vektori uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratadi
Barcha uchun umumiy, yagona va majburiy bo‘lgan aqliy rivojlanish yo‘li belgilanadi	Har bir o‘quvchining mavjud salohiyatidan kelib chiqib individual qobiliyatlarini takomillashtirish, shaxs sifatida rivojlanishiga ko‘maklashish
Ta’limning rivojlanish vektori oldindan belgilanadi	Rivojlanish vektori o‘quvchining rivojlanishiga yordam beruvchi pedagogik ta’sirlarni aniqlashga quriladi

⁴⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Ta'limga oldindan belgilangan xususiyatlarga ega shaxsni shakllantirish vazifasi qo'yiladi	Ta'limga o'quvchining shaxsiy rivojlanishini ta'minlash, strategik faoliyat qobiliyatini rivojlantirish, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash tizimi, o'z-o'zini aniqlash qobiliyati, o'z-o'zini rivojlantirish, ijobiy "Men"ni anglash vazifasi qo'yiladi
--	---

Ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan dars mashg'uloti an'anaviy darsdan, avvalo, o'qituvchi-o'quvchilarning o'zaro munosabatlar turini o'zgartirishi bilan farqlanadi. Jamoaviy yondashuv uslubidan o'qituvchi hamkorlik uslubiga o'tadi, o'quvchining faoliyat jarayoni sifati natijalarning ko'pligiga emas, balki tahlilga ko'proq e'tibor qaratilishi bilan ajralib turadi. O'quvchi dars jarayonida tirishqoq ta'lim oluvchidan ijodkor ta'lim oluvchiga o'zgaradi. Dars jarayoni rivojlantiruvchi maqsadining xususiyatlari ham o'zgaradi. Eng asosiysi, o'qituvchi vazifasi nafaqat bilim berish, balki o'quvchilar shaxsining rivojlanishi uchun munosib sharoit yaratishdan ham iborat bo'ladi.

Quyida ona tili fanini o'qitishda an'anaviy va shaxsga yo'naltirilgan darslar o'rtasidagi asosiy farqlar ko'rsatilgan (2.2.2-jadval).

2.2.2-jadval

Ona tili fanini o'qitishda an'anaviy va shaxsga yo'naltirilgan darslar o'rtasidagi asosiy farqlar

An'anaviy dars	Shaxsga yo'naltirilgan dars
Ona tili fanini o'qitishda barcha o'quvchilarga bilim, ko'nikma va malakalarning belgilangan miqdorini o'rgatadi	Ona tili fanini o'qitishda har bir bolaning o'z shaxsiy tajribasining samarali to'planishiga ko'maklashadi
Ona tili fanini o'qitishda o'quv vazifalarini, bolalarning ish shaklini belgilaydi va ularga topshiriqlarni to'g'ri bajarish namunasini ko'rsatadi	Ona tili fanini o'qitishda o'quvchilarga turli tarbiyaviy vazifalar va ish shakllarini tanlashni taklif etadi, bolalarni bu vazifalarni hal etish yo'llarini mustaqil topishga undaydi

Ona tili fanini o'qitishda o'quvchilarni o'zi taklif etayotgan o'quv materialiga qiziqtirishga harakat qiladi	Ona tili fanini o'qitishda o'quvchilarning real manfaatlarini aniqlash va ular bilan o'quv materialini tanlash va tashkil etishni muvofiqlashtirishga intiladi
Ona tili fanini o'qitishda iqtidorli bolalar bilan individual mashg'ulotlar olib boradi	Ona tili fanini o'qitishda har bir bola bilan individual ish olib boradi
Ona tili fanini o'qitishda o'quvchilar faoliyatini rejalashtiradi va boshqaradi	Ona tili fanini o'qitishda o'quvchilarning o'z faoliyatini rejalashtirishga yordam beradi
Ona tili fanini o'qitishda o'quvchilar ishi natijalarini baholaydi, yo'l qo'yilgan xatolarni qayd etadi va tuzatadi	Ona tili fanini o'qitishda o'quvchilarni o'z ishlari natijalarini mustaqil baholashga va yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatishga undaydi
Sinfdagi xulq-atvor qoidalarini aniqlaydi va ularning o'quvchilarga mosligini nazorat qiladi	Ona tili fanini o'qitishda o'quvchilarni xulq-atvor qoidalarini mustaqil ishlab chiqishga va ularning muvofiqligini nazorat qilishga o'rgatadi
Ona tili fanini o'qitishda o'quvchilar o'rtasida paydo bo'lgan nizolarni hal qiladi: aybsizlarni rag'batlantiradi va aybdorlarni jazolaydi	Ona tili fanini o'qitishda o'quvchilarni ular o'rtasida yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarni muhokama qilishga va ularni hal qilish yo'llarini mustaqil izlashga undaydi

O'qituvchining ona tili dars mashg'ulotidagi shaxsga yo'naltirish faoliyati yo'nalishlari:

- dars davomida barcha o'quvchilarning mehnatiga nisbatan ijobiy emotsional munosabatni yaratish;

- o'quvchilarga dars boshida nafaqat mavzu, balki dars davomida o'quv faoliyatini tashkil etish bo'yicha ma'lumot berish;

- o'quvchilarga o'quv materialning turi va shaklini (og'zaki, grafik, shartli-majoziy) tanlashga imkon beruvchi texnologiyalardan foydalanish;

- muammoli ijodiy vazifalardan foydalanish;

- o'quvchilarni topshiriqlarni bajarishning turli yo'llarini tanlash va mustaqil ishlatishga undash;

- dars mashg'ulotida javob bergan o'quvchilarni baholash (rag'batlantirish) da ularning nafaqat to'g'ri javoblari, balki qanday mulohaza yuritgani, qanday usuldan foydalangani, nima uchun xato qilgani va bunga olib kelgan sabablarni tahlil qilish;

- dars oxirida bolalar bilan nafaqat nimalarni o'rganganini muhokama qilish, balki dars jarayonida nimalar ma'qul (yoki noma'qul) bo'lgani va yana nimani xohlashlarini, qanaqa yo'llardan foydalanish maqsadga muvofiqligi haqida o'quvchilarning fikrini o'rganish;

- dars oxirida o'quvchiga berilgan bahoni turli parametrlarda: to'g'rilik, mustaqillik, originallik, ijodiy yondashgalik bo'yicha izohlash;

- uy vazifasi topshirig'ini faqat mavzu va topshiriqlar doirasini belgilab berish bilan emas, balki uni bajarishning oqilona yo'llarini ham tushuntirish.

Bunday dars mashg'ulotlarida foydalaniladigan didaktik materialning maqsadi o'quv dasturini ishlab chiqish, o'quvchilarga kerakli bilim, ko'nikma va malakalarni o'rgatishdan iborat.

Ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'limda didaktik materialning turlari o'quv matnlari, topshiriq kartochkalari, didaktik test kabilardan iborat. Vazifalar mavzu bo'yicha, murakkablik darajasi bo'yicha, foydalanish maqsadi bo'yicha ko'p darajali, tabaqalashtirilgan, individual yondashuv, o'quvchi o'quv faoliyatining yetakchi turini (kognitiv, kommunikativ, ijodiy) hisobga olgan holda ishlab chiqiladi.

Bu yondashuvning markazida bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishda erishilganlik darajasini baholash qobiliyati turadi. O'qituvchi o'quvchilar o'rtasida kartochkalarni tarqatadi, ularning bilish xususiyatlari va imkoniyatlarini bilib oladi, nafaqat bilim olish darajasini aniqlaydi, balki har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini

hisobga oladi, faoliyatning shakl va usullarini tanlash orqali uning rivojlanishi uchun eng munosib sharoitni yaratadi.

Ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasi o‘quv matni, undan foydalanish uchun didaktik va metodik materiallar, o‘quv muloqoti turlari, o‘quvchining shaxsiy rivojlanishini nazorat qilish shakllarini maxsus qurishni o‘z ishiga oladi.

O‘quvchilarning olgan bilimlari kundalik hayotning real vaziyatlarida foydalanishlari uchun asqotishi kerak. Buning uchun ta’limda kompetensiyaviy yondashuvni qo‘llash maqsadga muvofiq. “Kompetensiya” lotin tilidan olingan bo‘lib, “o‘z kasbiga yaroqli, loyiq” degan ma’noni anglatadi. Kompetensiya nafaqat olingan nazariy bilim, ko‘nikma va malakalarning majmuasi, balki egallangan nazariy va amaliy bilim, ko‘nikma va malakalar majmuini amaliyotga mustaqil va ijodiy qo‘llay olish darajasidir. Shu paytgacha ilmiy adabiyotlarda mavjud bo‘lgan “professionalizm” tushunchasi endilikda “kompetensiya” tushunchasi bilan o‘rin almashmoqda. “Professionalizm” tushunchasi faqat muayyan fan yoki soha bo‘yicha shuqur malakaga ega bo‘lishdir. “Kompetensiya” tushunchasi esa nafaqat kasbiy malakalarni, balki psixologik va qisman falsafiy bilim, ko‘nikma va malakalarni ham egallash zarurligini taqozo qiladi. Kompetensiyaning amaliy ahamiyati kasbiy bilimlar va tanlangan fan bo‘yicha faoliyat yuritish uchun zarur malakalar yig‘indisida ko‘zga tashlanadi.

Bugungi kunda pedagogika nazariyasi va amaliyotida “kompetentlik” va “kompetensiya” tushunchalari o‘zaro muqobil tushunchalar sifatida ishlatiladi. Aslida bu ikkita tushuncha bir-biridan farq qiladi. Kompetensiya o‘quvchi yoki xodimning kasbiy tayyorgarlik darajasiga qo‘yilgan talabni, kompetentlik esa o‘quvchi yoki xodimning xuddi shu talablarga javob beruvchi sifatni anglatadi. Nemis olimi Hilbert Meyr o‘quvchi va o‘qituvchining kompetensiyalarini o‘zaro farqlaydi va bu atamani, ayniqsa, o‘quvchiga yo‘naltirish lozimligini ta’kidlaydi:

– kompetentli o‘quvchi “quruq bilim” sohibi bo‘lib qolmasdan, o‘z bilimlaridan yuzaga keladigan vaziyatlarda yetarlicha foydalana oladi, u xotirasida tez tiklanadigan (faol) bilimlar mazmuniga ega.

– kompetentli o‘qituvchi esa pedagogik faoliyatida o‘ziga ishongan holda, o‘zini qiynamasdan (sog‘ligini asragan holda) nazokat bilan dars bera oladi.

Bundan tashqari, u ta’limdagi qiyinchiliklarni anglagan holda o‘z ustida ishlashga tayyor turadi.

Kompetensiya so‘zining umumiylik ma’nosi, uning muayyan sistemani tashkil qilishi, bu sistemadagi tushunchalarni alohida ajratib olgan holda mashq qilib bo‘lmasligi, bir so‘z bilan aytganda, uning qobiliyatlar jamlamasi ekanligi e’tirof etilgan⁴¹.

Amerikalik olim J. Raven kompetentlilikning turini ta’kidlab o‘tadi⁴².

Kompetensiyaviy ta’lim amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim bo‘lib, an’anaviy ta’limdan muayyan xususiyatlariga ko‘ra farq qiladi. Bu farqlarni quyidagilarda ko‘rish mumkin:

1. An’anaviy ta’limda o‘quvchi ob’jekt, kompetensiyaviy ta’limda esa sub’jekt.

2. An’anaviy ta’limda o‘qituvchi asosiy bilim beruvchi, kompetensiyaviy ta’limda moderator, fassilitator.

3. An’anaviy ta’limda o‘qituvchining yetakchiligiga asoslangan metodlar, kompetensiyaviy ta’limda esa interaktiv metodlar.

4. An’anaviy ta’limda ma’ruza mashg‘ulotlari verbal usulda, kompetensiyaviy ta’limda interaktiv usulda amalga oshiriladi.

Ta’limga kopetensiyaviy yondashuvda faqat ta’limning mazmuni emas, uni tashkil etish jarayonlari, vositalari, texnologiyalari ham o‘zgaradi. Mazkur yondashuv o‘quvchining bilim, ko‘nikma, malaka kabi sifatleri bilan birga uning shaxsiy sifatlarini ham takomillashtirishga qaratiladi.

Bugungi kun pedagogikasida ta’lim samaradorligini oshirishga qaratilgan yangi yondashuvlardan yana biri akmeologik yondashuv hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi ta’lim va tarbiya jarayonining yuksak pog‘onaga ko‘tarilishdagi turli jihatlarini o‘rganishdan iborat. Akmeologiyaning mazmun-mohiyati insonning har-bir kasb-hunarni bilim orqali chuqur egallashi, uning jamiyat rivoji, millat ravnaqi,

⁴¹ Meyer H., Klapper A. Unterrichtsstandards für ein kompetenzorientiertes Lernen und Lehren. – Berlin, 2009

⁴² Meyer H., Klapper A. Unterrichtsstandards für ein kompetenzorientiertes Lernen und Lehren. – Berlin, 2009

turmush farovonligi hamda ijtimoiy taraqqiyotning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-huquqiy jihatlariga ijobiy ta'sirini kuchaytirishga xizmat qilishini chuqur anglash, o'z ijodiy faoliyatini, kasb-hunar sohasidagi burch va mas'uliyatini ado etishga sarflash maqsadida mukammallik va kamolotga erishishni o'rganishdan iborat.⁴³

G.H.Tillayevaning fikricha esa "Akmeologiya tabiiy, umumjamo'a va insoniy qoidalar asosida kasbiy mahoratning yuksak muvaffaqiyatga erishish haqidagi fandi va insonning yetuklik bosqichida rivojlanish qonunlari va mexanizmini hamda asosan bundanda yuksakroq darajalarni egallash fenomenologiyasini o'rganadi."⁴⁴

Umuman, akmeologiya biror kasbga, biror sohaga mehr qo'yib, bilim va tajribaga tayanib, maqsad sari intilib yashashni anglatadi.

Ona tili fanini o'qitishda akmeologik yondashuvga asoslangan ta'limning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- kasbiy ko'nikmalarni muvaffaqiyatli egallashga erishish, mehnat faoliyatiga ko'nikish davrini qisqartirish, ta'lim va tarbiyaning uzviyligini ta'minlash;

- o'quvchilarda qayta fikrlash, ijodiy va nostandart tafakkur tarzi, ta'limning ichki ehtiyojga aylanishiga erishish ko'nikmalarining shakllanishi.

Ona tili fanini o'qitishda akmeologik yondashuvning maqsadi har qanday hayotiy vaziyatlarda o'quvchining mustaqil va to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatish, ijodiy va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdan iborat.

Adabiyotlarda ushbu zamonaviy yondashuvlarning har biri o'ziga xos belgi va xususiyatlarga ega alohida texnologiyalar ekanligi aytib o'tilgan.⁴⁵ Mazkur zamonaviy yondashuvlar ta'limni o'quvchi shaxsiga yo'naltirish bilan bog'liq umumiy xususiyatlarga ega. Shu jihatdan olib qaralganda kompetensiyaviy, akmeologik va evrestik metodlarni alohida belgilarga ega yondashuvlar sifatida "shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiya" tushunchasida birlashtirish ham mumkin.

⁴³ Shayxova X.A. Ma'naviyat – kamolot ko'zguisi. – T.: G'ulom nomidagi NMIU, 2009, - B. 115.

⁴⁴ Tillayeva G.H. Akmeologiya asoslari. – T.: Tafakkur bo'stoni, 2014, - B. 31-bet.

⁴⁵ Tillayeva G.H. Akmeologiya asoslari. – T.: Tafakkur bo'stoni, 2014, - B. 192.; Indiaminov N., Babajanov B. Ta'lim samaradorligini oshirida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim // Zamonaviy ta'lim. 2014. №8. 18-22 betlar; Основы личностно-ориентированного образования. / И.С.Якиманская. – М.: «Бином. Лаборатория знаний», 2011; Монтессори М. Развитие потенциальных возможностей человека. / Пер. с англ. Д.Смоляковой. // Бюллетень МАМА, 1993, №2,3,5.

Ona tili dars mashg'uloti ijodiy va intellektual jarayon bo'lib, uni muayyan yondashuv va qoliplarga solish, oldindan rejalashtirilgan vaziyatlarni to'liq idora qilish, o'quvchilarga nisbatan bir xil metodikada yondashish kutilgan natijani bermaydi. Ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyali yoki akmeologik yondashuvlar pedagogik jarayonga nisbatan umumiy yondashuvni belgilab berishi bilan ahamiyatli. Ammo ona tili dars mashg'ulotini faqat muayyan bir yondashuv asosiga qurish maqsadga muvofiq emas. Har bir ona tili dars mashg'uloti mavzu, vaziyat va ruhiy holat nuqtai nazaridan alohida mustaqil hodisalar bo'lib, unda umumiy yondashuv tamoyillarini saqlagan holda mavjud vaziyatga mos metod va usullarni qo'llash o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq. Shu jihatdan olib qaralganda, muayyan dars mashg'ulotini yoki umuman ta'lim jarayonini uyg'unlashgan (aralash) ta'lim yondashuvlariga asosan olib borish o'qituvchining ona tili dars mashg'ulotidan ko'zlagan maqsadiga erishuvini ta'minlashga xizmat qiladi va didaktik imkoniyatlarini oshiradi.

Ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy va akmeologik yondashuvlar o'zaro bir-birini to'ldiradi. Mazkur yondashuvlarni birlashtiruvshi jihatlar quyidagilardan iborat:

- an'anaviy ta'limning maqbul tomonlarini saqlagan holda unga ona tili dars mashg'ulotida o'quvchini faollashtirish bilan bog'liq yangi metodlarni kiritish;

- ona tili fanini o'qitishda o'quvchi bilan individual tartibda ishlash metod va texnologiyalarini takomillashtirish;

- ona tili fanini o'qitishdagi nazariy bilimlarning amaliy ahamiyatiga e'tiborni kuchaytirish;

- ona tili darslarida o'qituvchining avtoritar faolligini kamaytirish, uning modirator, tashkil qiluvchi va maslahatchi sifatidagi faolligini oshirish;


- ona tili fanini o'qitishda o'quvchilarning mustaqil ishlashlari, berilgan topshiriqlarga nisbatan ijodiy yondashish ko'nikmalarini shakllantirish;

- ona tili fanini o'qitish jarayoni sub'yekti va ob'yekti o'rtasida interaktiv munosabatni yo'lga qo'yish;

- ona tili fanini o'qitishda o'quvchi shaxsini ta'lim jarayonining markaziga qo'yish;


- ona tili fanini o‘qitishda muayyan qoliplardan foydalanmaslik;
- ona tili fanini o‘qitishga ijodiy jarayon sifatida qarash.

Ushbu umumiy jihatlar mazkur yondashuvlarni ta’lim jarayonida aralash (uyg‘unlashgan) holda qo‘llash to‘g‘risidagi nazariyaning to‘g‘ri ekanligini asoslaydi. Bu jarayonda zamonaviy texnologiyalarning belgilarida o‘zaro singishishni kuzatish mumkin (2.2.1 va 2.2.2-shizmalar).



2.2.1-chizma. Ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlarning uyg‘unligi.

ONA TILI FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA DIDAKTIK IMKONIYATLARI



2.2.2-chizma. Ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan va akmeologik yondashuvlarning uyg‘unligi.

Mazkur yondashuvlar asosida ta’lim jarayonini tashkil qilish, albatta, shunga mos muhitni shakllantirishni taqozo qiladi. Buning uchun, avvalo, o‘qituvchining o‘zi, o‘quvchilar jamoasi ushbu yondashuvlarning mohiyatini anglab olishlari lozim. Zamonaviy metodik yondashuvlar muhiti sinfda va undan tashqarida bo‘lgan barcha jarayonlarni qamrab olinadi va didaktik imkoniyatlarni oshirishi lozim .

Zamonaviy didaktik yondashuvlar hamkorlik texnologiyasiga asoslanadi. Mazkur texnologiya ta’lim beruvchi va oluvchi o‘rtasidagi tenglik, demokratiya va sub’yektlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni ma’qullaydi. Hamkorlik texnologiyasiga asoslangan va zamonaviy yondashuvlarni uyg‘unlashtirib tashkil qilingan dars mashg‘ulotlarida quyidagi metod va texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq:

“Tanqidiy tafakkur”, “Jamoada o‘qitish”, “Kichik guruhlarda hamkorlikda o‘qitish”, “Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish”, “Nuqtai nazaring bo‘lsin”, “Birgalikda o‘qiymiz”, “O‘z o‘rningni top” va hokazo. Mazkur metod va texnologiyalar o‘quvchi shaxsidagi o‘z-o‘zini baholash, iqtidorni ro‘yobga chiqarish, tanqidiy tafakkur, muayyan kompetentlikni shakllantirish va hodisa va jarayonlarga nisbatan kreativ yondashuv, tez va to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Umuman, bugungi kun pedagogikasida bilimlar o‘rgatishdan ko‘ra ularni o‘rganishga o‘rgatish ko‘proq ahamiyatli hisoblanadi. An’anaviy ta’limdagi o‘quvchilarga tayyor bilimlarni o‘rgatish ularda masala va hodisalar mohiyatini anglashga nisbatan ijodiy yondashuvni nazarda tutmaydi, faqat mavjud bilimlarni yodlash, ularni amaliyotga joriy etish bilan sheklanadi. Ammo bilim olish jarayoni ikki bosqishdan iboratligini: birinchi bosqish bilimlarni egallash, ikkinchi bosqish undan xulosalar chiqarish va amaliyotda qo‘llash ekanligini hisobga olsak, bu usul tugallanmagan metodika sifatida o‘zini oqlamasligi ma’lum bo‘ladi. Bilim bilim uchun xizmat qilmas ekan, uning oddiy informatsiyadan farqi qolmaydi. Ta’limda zamonaviy yondashuvlar sifatida qaralayotgan shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy va akmeologik yondashuvlar mazkur tumtoq metodikaga qarshi qo‘yiladi. Ularga o‘quvchilarning shaxs va muayyan kasb egasi sifatidagi kompetentligini shakllantirish bilan bog‘liq qator muammolarning ilmiy va amaliy yechimi sifatida qarash, ta’lim jarayoniga tatbiq etish, shubhasiz, ta’limning oldiga qo‘yilgan zamonaviy talablarning qondirilishini ta’minlaydi.

II BOB. ONA TILI FANINI O‘QITISHDA SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA‘LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING METODIK TIZIMI

2.1-§. Ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning tashkiliy-pedagogik shart- sharoitlari

Pedagogika fani rivoji muayyan pedagogik muammolarni tadqiq etish maqsadida olib borilgan tadqiqot ishlarining g‘oyasi, mazmuni hamda natijalari hisobiga ta‘minlanadi. Ijtimoiy va ishlab chiqarish jarayonining keskin rivojlanishi shaxsni har tomonlama kamol toptirish imkonini beruvchi omil hamda pedagogik shart-sharoitlarni aniqlashni taqozo qiladi. Ta‘lim-tarbiya jarayonlarining mohiyatini anglash ularni keng yoki tor doirada o‘rganish, mavjud ko‘rsatkichlar vositasida ularning sodir bo‘lish sabablarini o‘rganish, zarur chora-tadbirlarni belgilash ilmiy izlanishlarni tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Pedagogik izlanishlarning samarali kechishi bir qator ob‘yektiv va sub‘yektiv omillarga bog‘liq. Mazkur jarayonda maqsadga muvofiq keluvchi, maqbul, ayni vaqtda samarali bo‘lgan metodlarni tanlay olish, uni amalga oshirishga yordam beradigan pedagogik shart-sharoitlarni tizimlashtirish va tavsiflash muhimdir.

Shunday ekan, mazkur yo‘nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlarning mazmun-mohiyatini o‘rganish, ularni ta‘lim jarayoniga samarali tatbiq etish yo‘llari va usullarini o‘rganish lozim deb hisoblaymiz.

Pedagogik shart-sharoitlar deganda pedagogik tizimning elementlaridan biri tushuniladi, bu ta‘lim muhiti imkoniyatlari yig‘indisi bo‘lib, uning harakati ushbu tizimning shaxsiy va jarayoniy tomonlariga ta‘sir ko‘rsatish orqali uning samarali ishlashiga yordam beradi.⁴⁶

Bizning ichimizda umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalaridan foydalanish mexanizmini takomillashtirish maqsadida pedagogik texnologiyani amalga oshirish uchun tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar majmuini va ta‘lim jarayonida uning nazariy modelini ishlab

⁴⁶ Латышин В.В. Антропоцентрированный подход к профессионально-педагогической подготовке будущего учителя // Педагогика, 2003, № 9. С. 50-57.

chiqishni aniqlashimiz kerak, bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlaydi.

Ushbu bo'limda keltirilgan vazifalarni ochib berish uchun, birinchi navbatda, "shartlar" va "pedagogik shart-sharoitlar" tushunchalarini ko'rib chiqamiz. Pedagogik nazariyada sharoitlar odatda pedagogik tizimning muvaffaqiyatli ishlashiga bog'liq bo'lgan shora-tadbirlar, omillar va sharoitlar majmuasi sifatida qaraladi.

Ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olish tizimini samarali tashkil etishni rivojlanishi va o'zini-o'zi tarbiyalashning pedagogik shartlarini bevosita ko'rib chiqishdan oldin "shart" tushunchasining ta'rifiga to'xtalib o'tish lozim.

Bu borada V.A.Slastenin [71], A.M.Isayev, A.M.Mishenkolar "shart" tushunchasini falsafiy jihatda talqin etgan. Ularning ta'kidlashicha, "shart" falsafiy kategoriya sifatida ob'yekt yoki jarayonning, uni o'rab turgan hodisalarga munosabatini ifodalaydi, ularsiz u mavjud bo'lmaydi. To'g'ridan-to'g'ri u yoki bu hodisani (jarayonni) keltirib chiqaradigan sababdan farqli o'laroq, sharoitlar jarayon yuzaga kelganda, mavjud bo'lgan va rivojlanadigan soha muhitni tashkil etadi. Falsafiy ensiklopedik lug'atda esa "shart" tushunchasi quyidagicha izohlanadi:

- 1) inson yashaydigan va ularsiz mavjud bo'lolmaydigan muhit;
- 2) biror narsa sodir bo'ladigan muhit.

Shart tushunchasini psixologik nuqatiy nazardan talqin etganda shaxsning psixologik rivojlanishini belgilovchi, uni tezlashtiruvchi yoki sekinlashtiruvchi, shuningdek, rivojlanish jarayoniga hamda dinamikasiga ta'sir etuvchi tashqi va ichki sabablarning birikmasidir.

Pedagogika shart esa – bu o'zgaruvchan tabiiy, ijtimoiy, tashqi ma'lumotlar yig'indisidir. Shaxsning jismoniy, axloqiy, aqliy rivojlanishiga va xulq-atvoriga, uning ta'lim va tarbiyasiga ta'sir qiluvchi ichki ta'sirlardir.⁴⁷ Bulardan xulosa qilib aytganda, shartlar ma'lum bir vaziyatda insoniyatga ta'sir qiladigan holatlardir.

Bu borada N. G.Bajenova, I. V. Xludyevalarning fikriga ko'ra, shartlar - ma'lum bir hodisaning yuzaga kelishi uchun zarur bo'lgan, lekin o'z-o'zidan uni keltirib chiqarmaydigan hodisalardir. Xarakterdan

⁴⁷ Алина Ю.Ш., Татьяна В.С. Педагогические условия использования проектной деятельности для формирования проектно-исследовательских компетенций обучающихся педагогического https://dspace.kpfu.ru/xmlui/bitstream/handle/net/131739/277_284.pdf?sequence=-1 колледжа //

shartlar ma'lum sababning harakat usuli va ta'sirning tabiatiga bog'liqdir. Shartlarni o'zgartirish orqali sababning harakat usulini ham, ta'sir xarakterini ham o'zgartirish mumkin.⁴⁸

“Pedagogik shartlar” tushunchasiga oid fikr mulohaza yuritganda, ushbu ta'rifning ko'p talqinlari mavjudligini ta'kidlash lozim. Masalan, T.Parsonsn,⁴⁹ A.V.Lisenko⁵⁰ A.V.Svershkov⁵¹lar fikriga ko'ra, pedagogik shart-sharoitlar - tarbiyaviy muammolarni hal qilishga qaratilgan pedagogik ta'sir choralari majmuidir. N.Ippolitova,⁵² V.A.Shiryayeva,⁵³ A.X.Xushbaxto⁵⁴larning ta'kidlashicha, pedagogik shart sharoitlar pedagogik tizimning tarkibiy qismlaridan biri sifatida qaraydigan, bu tizimning shaxsiy va prosessual tomonlariga ta'sir ko'rsatadigan, uning samarali ishlashi hamda rivojlanishini ta'minlaydigan o'quv va moddiy-ma'naviy muhit imkoniyatlarining umumiyligini aks ettiradi.

Bizning fikrimizcha, “pedagogik shartlar” tushunchasining eng to'liq va aniq ta'rifini M.I.Shalinni ta'rifiga tayanish lozim. Pedagogik shart-sharoitlar deganda u shaxsning rivojlanishiga ta'sir etuvchi jarayonni tushunadi, bu tashqi holatlarning ichki sub'yektlar va hodisalarning birikmasidir.⁵⁵

Yuqorida keltirilgan olimlarning ishlarini tahlil etish asosida, pedagogik shart-sharoitlarni uchta katta guruhga bo'lish mumkin:

⁴⁸ Баженова Н. Г., Хлудеева И. В. Педагогические условия, ориентированные на развитие: теоретический аспект // file:///C:/Users/User/Downloads/pedagogicheskie-usloviya-orientirovannye-na-razvitie-teoreticheskiy-aspekt.pdf

⁴⁹ Парсонс Т. О структуре социального действия. – М.: Академический Проект, 2002. – 800 с.

⁵⁰ Лысенко А.В. Психолого-педагогические условия формирования профессиональноценностных ориентаций будущего учителя музыки // Дис. ... канд. пед. наук. – Майкоп, 2005. –203 с.

⁵¹ Сверчков А.В. Организационно-педагогические условия формирования профессиональнопедагогической культуры будущих спортивных педагогов // Молодой ученый. 2009. – №4. – С. 279-282.

⁵² Ипполитова Н. Анализ понятия «педагогические условия»: сущность, классификация / Н. Ипполитова, Н. Стерхова // General and Professional Education. – 2012. – № 1. – Р. 8-14.

⁵³ Ширяева В. А. Педагогические условия формирования универсальной ключевой компетенции [Электронный ресурс] // http://www.sgu.ru/sites/default/files/textdocsfiles/2013/07/15/i-09_shiryayeva.pdf.

⁵⁴ Хушбaxтов А. Х. Терминология «педагогические условия» // Молодой ученый. 2015. – № 23 (103). – С. 1020-1022.

⁵⁵ Шалин М. И. Организационно-педагогические условия развития конкурентоспособности личности старшеклассника // Теория и практика образования в современном мире: материалы III Междунар. науч. конф. (г. Санкт-Петербург, май 2013 г.). – Санкт-Петербург: Реноме, 2013. – С. 47-49.


tashkiliy-pedagogik, pedagogik-psixologik, didaktik. O'z navbatida, tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar umumiy o'rta ta'lim muassasasining ta'lim muhitini tashkil etishi bilan bog'liq jarayonda paydo bo'ladi va rivojlanadi.

Tadqiqotimizda pedagogik sharoitlarni pedagogik tizimning yetakchi tarkibiy qismlaridan biri sifatida ko'rib chiqamiz, bu esa umumiy o'rta ta'lim muassasasining ta'lim tarbiya sohasidagi imkoniyatlarini aks ettiradi, bu sub'yektlarning o'zaro ta'sirlari maqsadli tarzda ishlab chiqilgan chora-tadbirlarida, shuningdek, ta'lim va ta'lim jarayoni sub'yektlarining shaxsiy sohasini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi boshqa omillar bilan ifodalanadi. Tadqiqotimizda biz umumiy o'rta ta'lim tizimini modernizatsiya qilish nuqtai nazaridan umumiy o'rta ta'lim ta'lim sifati samaradorligini oshirish muammosini hal qilishning ikki asosiy jihatini majburiy hisobga olgan holda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan vaziyatdan kelib chiqdik:

- ta'lim-tarbiya jarayoni sub'yektlari o'zaro ta'sirining tabiati va mazmunini ochib beruvchi pedagogik jihat;

- pedagogik texnologiyaning nazariy modeli doirasida umumiy o'rta ta'lim muassasasining ta'lim sifati samaradorligini oshirish omili sifatida ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan pedagogik ta'lim texnologiyalaridan foydalanish masalalarini ochib beruvchi tashkiliy jihat.

Shu munosabat bilan umumiy o'rta ta'lim muassasasida ta'lim sifati samaradorligini oshirishning tashkiliy pedagogik shartlari birinchi o'ringa chiqmoqda. Bunda, olimlarning tadqiqot ishlari tahlili asosida ushbu atamaga kengroq tushuncha ishlab chiqsak (2.1.1-shizma):



2.1.1-chizma. “Tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar” konsepsiyasini kompleks tahlil qilish xususiyatlari.

Demak, umumiy o‘rta ta‘limning zamonaviy amaliyotida ta‘lim sifati samaradorligini oshirish umumiy tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari, ularning nazariy va amaliy asoslari mavjud emasligi ko‘rsatmoqda. Bunday pedagogik yangilanishlarni joriy etish uchun har qanday universal tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlar mavjud emas deb qayd etish adolatli bo‘ladi.

Bundan tashqari, ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik ta‘lim texnologiyalarining samaradorligini oshirishda, ayniqsa, turli shart-sharoitlar mavjudligini nazarda tutadi. Shuning uchun bizning vazifamiz ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik ta‘lim texnologiyalari asosida ta‘limni tashkil etish jarayonida eng katta ahamiyatga ega bo‘lgan tashkiliy-pedagogik sharoitlarni aniqlashdan iborat.

Ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik ta‘lim texnologiyalaridan foydalanishning tashkiliy pedagogik shart-sharoitlari ushbu pedagogik tizimning o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, u o‘rta ta‘limning potensial imkoniyatlarini aks ettiradi va pedagogik

tizimning tartibli va muvaffaqiyatli ishlashini ta'minlaydigan tizimdagi tashkiliy tuzilmalar va ta'sir choralari majmui sifatida ta'lim sifati samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Umumiy o'rta ta'limda ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan pedagogik ta'lim texnologiyalari texnologiyalaridan foydalanish mexanizmini takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarning quyidagi vazifa va belgilarini aniqlaymiz.

Vazifalar:

- pedagogik tizimning samarali ishlashini va rivojlanishini ta'minlaydi;

- umumiy o'rta ta'lim muassasalarida yaxlit pedagogik jarayonlarni boshqarish samaradorligini ta'minlaydi;

- o'quvchining o'z-o'zini anglashini shakllantiradi va uning hayotga tayyorgarlik darajasini belgilaydi va hokazo.

Belgilar:

- tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar hozirgi bosqichda umumiy o'rta ta'lim muassasasining mustaqil hayotga tayyor bitiruvchilarini shakllantirish vazifalarini samarali hal etishni ta'minlaydigan maqsadli mo'ljallangan o'quv ta'minot imkoniyatlari, usullari, shakllari va ta'sir choralari mavjudligini nazarda tutadi;

- tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar butun ta'lim-tarbiya jarayonini va uning tarkibiy qismlarini boshqarish jarayoniga asoslanadi;

- tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar o'zaro bog'liqlik bilan ajralib turadi, bu esa umumiy o'rta ta'lim muassasasining mustaqil hayotga tayyor o'quvchisini shakllantirish muammolarini hal etishning muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlaydi;

- tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar o'quvchilarning kasbiy qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonining tuzilishi va xususiyatlariga muvofiq tanlanadi.

Umumiy o'rta ta'limda ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'limni tatbiq etishda tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar yaratish uchun quyidagi asoslarni muhim deb hisoblaymiz:

- umumiy o'rta ta'lim muassasasining ta'lim-tarbiya jarayoni muvaffaqiyatli tashkil etishni ta'minlash zurrati;

- ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalaridan foydalanishda tashkiliy pedagogik shart-sharoitlar

majmuasida o‘zaro hamkorlikning ichki birlashuvi va uyg‘unligini ta‘minlash;

- yagona pedagogik tizimning bir-biriga bog‘liq bo‘lgan tarkibiy qismlari bo‘lgan tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar bilan umumiy o‘rta ta‘lim muassasasida ta‘lim faoliyatini qo‘llab quvvatlash zaruriyati;

- reytingi yuqori bo‘lgan umumiy o‘rta ta‘lim muassasasining mustaqil hayotga tayyor bitiruvchilarini kasbga tayyorlash darajasi va sifatini aniqlash jihatidan jamiyatning maktabga aniq ijtimoiy buyurtmasini belgilash va mustahkamlash zarurati, shu jumladan, istiqbolli oliy ta‘lim muassasalarining fikriga binoan umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarining ta‘lim oluvchilarining raqobatbardoshligining asosiy xususiyatlarini aniqlash va mustahkamlash;

- umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarining bitiruvchilarining oliy ta‘limga qamrovini oshirishini ta‘minlovchi shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalari asosida ta‘lim-tarbiya jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari to‘liq ta‘minlash, shu jumladan umumta‘lim muassasalarining raqobatbardosh o‘quvchilarini tarbiyalashning tizimli-funksional xususiyatlarini aniqlash zarurati.

Fikrimizcha, tadqiqotlar umumiy o‘rta ta‘lim muassasasi o‘quvchisi raqobatbardoshligini kuchaytirish ona tili darslarida shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalari asosida tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar tizimini yaratish quyidagi asosiy elementlarning mavjudligini nazarda tutadi:

- *tashkiliy va pedagogik element* - darsni samarali rejalashtirish asosida ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalarini qo‘llash orqali umumiy o‘rta ta‘lim sifati samaradorligini oshirishning moslashuvchan pedagogik tizimini yaratishni nazarda tutadi;

- Davlat ta‘lim standartlari talablariga, o‘quvchining shaxsiy ehtiyojlariga hamda davlat, jamiyat va ota-onalarning talablariga muvofiq ta‘lim-tarbiya berilgan o‘quvchilarni tayyorlashning zamonaviy ta‘lim dasturlari, rejalari va o‘quv-uslubiy qo‘llab-quvvatlashni o‘z ishiga olgan *o‘quv-tashkiliy element*;

- umumiy o‘rta ta‘lim muassasasi pedagogik xodimlarining pedagogik, uslubiy va axborot kompetentligini oshiruvchi *axborot-*

uslubiy element va ularning umumta'lim muassasasi ta'lim sifati samaradorligini oshirish bo'yicha faoliyatga kasbiy tayyorgarligi;

- *psixologik va pedagogik element*, o'quvchilarda ta'lim olishga bo'lgan zarur intilishlarni rivojlantirib, rejalashtirilgan natijani olish uchun ijobiy turtki yaratish, ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari umumiy o'rta ta'lim muassasa ta'lim sifati samaradorligini oshirish bo'yicha ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini qo'llashlari kerak;

- umumiy o'rta ta'lim muassasasi o'qituvchilari va boshqa pedagogik xodimlar faoliyatining o'quv, metodik va innovatsion yo'nalishini hisobga olgan holda *o'quv-innovatsion element*;

- ona tili fanini o'qitishda ta'lim sifati samaradorligini oshirish uchun zarur moliyalashtirish va yetarli moddiy-texnika bazasini tashkil etuvchi *tashkiliy-iqtisodiy element*.

Umumiy o'rta ta'lim sifati samaradorligini ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalardan foydalangan holda oshirishning tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlari sifatida quyidagilarni belgiladik:

- umumiy o'rta ta'lim sifati samaradorligini oshirishning me'yoriy-huquqiy bazasini yaratish va umumiy o'rta ta'lim muassasasining ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim muhitini rivojlantirish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ta'minlash;

- ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim muhitini rivojlantirishda fanlararo ta'lim sub'yektlari o'rtasidagi funksional hamkorlik va integratsion tizimini yaratish va rivojlantirish;

- ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim muhitini rivojlantirish orqali umumiy o'rta ta'lim sifati samaradorligini oshirishga qaratilgan umumiy o'rta ta'lim muassasa pedagog kadrlarini rag'batlantirish tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

- umumiy o'rta ta'lim sifati samaradorligini oshirishga qaratilgan ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining joriy etish bo'yicha monitoring tizimini tashkil etish;

- ona tili fanini o'qitishda o'quvchilarning o'qish va darsdan tashqari faoliyatda faol va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim

texnologiyalaridan foydalanish orqali interaktiv hamkorlikka qo‘shilishini ta‘minlash;


- umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida sub‘yekt-sub‘yekt munosabatlari darajasini oshirish: o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida hamkorlik munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirish.

Ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim o‘qitish muhitining o‘quvchi imkoniyatlariga moslashtirilishini nazarda tutadi. Unga ko‘ra ta‘lim muhiti, pedagogik shart-sharoitlar, ta‘lim hamda tarbiya jarayonini to‘lalgicha ta‘lim oluvchining shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, qobiliyatini rivojlantirish, shaxs sifatida kamolotga etishini ta‘minlash, tafakkuri va dunyoqarashini boyitishni nazarda tutadi.

Bu turdagi ta‘lim o‘quvchilarda mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlik kabi sifatlar, shuningdek, mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limni tashkil etishda pedagoglardan har bir ta‘lim oluvchiga imkon qadar individual yondashishni, uning shaxsini hurmat qilishni, unga ishonch bildirish taqozo etiladi. Qolaversa, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim o‘qitish jarayonining ishtirokchilari o‘qituvchi -o‘quvchi yoki o‘quvchi-o‘quvchi, o‘quvchi-o‘quvchilar guruhi, o‘quvchi-o‘quvchilar jamoasi tarzida o‘zaro hamkorlikda bilim olish, shaxs sifatida kamol toptirish uchun qulay pedagogik sharoitni yaratish zaruriyatini ifodalaydi.

Ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim turlaridan foydalanar ekan, bir qator tashkiliy-pedagogik shartlarga qat‘iy rioya etishi kerak (2.1.2-shizma).



2.1.2-chizma. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning tashkiliy-pedagogik shartlari⁵⁶.

⁵⁶ Muallif tomonidan tadqiqot davomida ishlab chiqilgan

Ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchini ta'lim tizimiga moslashtirishni emas, aksincha, uning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda har tomonlama rivojlanishi, shaxs sifatida kamolotga yetishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Bu turdagi ta'lim o'quvchilarni o'z-o'zini rivojlantirishga, mustaqil bilim olishga, o'zining ichki imkoniyatlari, qobiliyatlarini to'la namoyon eta olishi, bilish faolligini oshirish uchun zarur sharoitni vujudga keltirishi zarur. O'quvchilar ona tili darslarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida o'quv materialini o'zlashtirishga ijodiy, tanqidiy yondashishni, yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni asoslash, o'z fikrini himoya qilish, muammoli vaziyatlarda samarali yechimni topish ko'nikma, malakalarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Pedagog tomonidan ona tili dars mashg'ulotlarida shaxsga yo'naltirilgan turli metodlarning qo'llanilishi o'quvchilarni qobiliyatlarini yanada o'stirishga xizmat qiladi. Xususan:

- muammoli izlanish;
- kichik tadqiqotlarni olib borish;
- debat;
- bahs-munozara;
- evristik suhbat;
- kichik guruhlarda ishlash va b.

Ona tili dars mashg'ulotlarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalaridan foydalanishda o'qituvchilar o'quv axborotlarining o'quvchilar bilim, ko'nikma, malaka va tayanch kompetensiyalariga tayangan holda ularni qiziqтира oladigan, fikrlashga, ijodiy yondashishga undaydigan imkoniyatga ega bo'lishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratishlari zarur. Ona tili fanini o'qitishda pedagoglar tomonidan:

- ona tili fanini o'qitishning turli shakl, metod, vosita va texnologiyalardan samarali, maqsadli foydalanish;
- o'quv topshiriqlarini bajarishda o'quvchilarga usullarni mustaqil tanlash imkonini berish;
- ona tili fanini o'qitishda o'quvchini juftlikda, kichik guruhda va jamoada ishlashini ta'minlash;

- ona tili dars mashg'ulotlarning loyihalashtirilishiga e'tiborning qaratilishi nafaqat ta'lim sifatini yaxshilashi, balki o'quv jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim tizimi amaliyotida ushbu tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni amalga oshirish zarurligini anglab yetgach, umumta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini modernizatsiya qilishning yetakchi vazifalaridan biri sifatida biz o'quv jarayoni sub'yektlarining hamkorligining amaliy tomondan tiklash va mustahkamlashni aniqlaymiz.

Umumiy o'rta ta'lim buyurtmachilari, davlat, jamiyat va ota-onalar o'rtasida ijtimoiy muloqotni yo'lga qo'yish umumta'lim muassasasida sifat jihatidan yangi tashkiliy pedagogik tizimni shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi kerakligiga ishonamiz.

Buning sababi shundaki, ishtirokchilar o'rtasida ijtimoiy muloqotni amalga oshirish jarayonida motivasion muhit paydo bo'ladi, shu nuqtai nazardan pedagogik jarayon sub'yektlari ta'lim oluvchining talab va shaxsiy qarashlarini rivojlantirishga, ularning intellektual, ijodiy va jismoniy salohiyatini, kasbiy qobiliyatlarini hamda zarur kompetensiyalarini to'liq amaliyotga joriy etishga yo'naltirilgan.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, potensial buyurtmashi sifatida DTS talablariga muvofiq qo'llanadigan pedagogik ta'lim texnologiyalarining mazmunini optimallashtirish yoki takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish huquqiga ega.

Pedagog kadrlar tarkibini oldindan tayyorlash umumiy o'rta ta'lim tizimi sharoitida darsni samarali tashkil etishning elementi bo'lib, o'quvchilar tomonidan bajariladigan ishlar turlari va jadvalini tashkil etishni birgalikda tasdiqlashni nazarda tutadi.

Demak, o'quvchilarning ona tili fani asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlari, ularda bilim olish ehtiyojining yuzaga kelishi, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarning o'zlashtirishlari, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlar, mehnat, ijodiy fikrlash, atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lish, shuningdek, kasb tanlash ko'nikmalarining shakllanishi uchun pedagogik shart-sharoit yaratiladi.

Olimlarning va shu soha mutaxassislarining olib borilgan ilmiy-pedagogik, ilmiy-metodik kuzatishlar, tadqiqotlar, tahlillar natijasi ona tili fanini o'qitish jarayonining markaziga o'quvchini qo'ymasdan

turib, ta'lim jarayonini shaxsni rivojlanishga va uning tabiiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun qulay shart-sharoit yaratmasdan turib mamlakatimiz intellektual salohiyatini rivojlangan mamlakatlar darajasiga olib chiqish imkoniyati yo'qligi ayon bo'ldi.

Hozirgi kunda zamonaviy ta'lim va axborot texnologiyalarini ona tili fanini o'qitish jarayoniga keng joriy qilgan holda bu borada ijobiy yutuqlar qo'lga kiritilmoqda. O'qitishning shaxs rivojlanishiga (har tomonlama) yo'naltirilgan texnologiyalar (noan'anaviy ta'lim metodlari yordamida o'qitish)ning pedagogik shart-sharoitlarini joriy etishda o'qituvchi quyidagi qoidalarga rioya qilishi lozim deb hisoblaymiz:

1. Shaxsga har tomonlama hurmat va muhabbat ko'rsatish, uning ijodiy faoliyatiga ishonch bildirgan holda rivojlanishi uchun har tomonlama yordam berish va rag'batlantirish.

2. Ta'limni demokratlashuviga olib kelish, ya'ni o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik, munosabatlarini shakllantirish hamda rivojlantirish.

3. Shaxsga o'z hayotiy faoliyati yo'nalishini tanlab olish erkinligi va mustaqilligini berish, bunda tashqi ta'sirlar natijasida emas, balki o'z ichki hissiyotlaridan kelib chiqishiga erishish, ya'ni erkin tarbiyalash.

4. Ta'lim jarayonida o'quvchiga insoniy-shaxsiy yondashish.

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsiga yangicha qarashni shakllantirish va munosabatlarni demokratlashtirish deganda quyidagilarni nazarda tutamiz:

– ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsiga ob'yekt emas, balki sub'yekt sifatida qarash (o'qituvchi ham sub'yekt hisoblanadi);

– har bir o'quvchi o'ziga xos qobiliyat egasi, iste'dod egasi sifatida qarash;

– shaxsning barcha fazilatlariga (vatanparvarlik, insonparvarlik, haqgo'ylik va oqillik, salomatlik, mehnatsevarlik, oilaparvarlik, bilimga chanqoqlik, intiluvchanlik, tashkilotchilik va h.k.) hurmat bilan qarash ularning shakllantirish va rivojlantirishga doimo yordam berish;

– o'quvchilarning o'z nuqatai nazariga, o'zining mustaqil fikrga ega bo'lishi va uni ochiq-oydin ayta olish huquqi;

– erkin tanlash imkonini berish;

– ta'lim jarayonini o'qituvchi tomonidan emas, birgalikda, o'quvchilar bilan hamkorlikda boshqarish;

– o‘qituvchi tomonidan buyruq usulida (avtoritar) emas, balki tashkil etishga erishish;

– o‘quvchi o‘z fikrini, munosabatini bildirishda xatoga yo‘l qo‘yishi mumkinligi va h.k.

Yuqoridagilarni joriy qilishning asosiy mazmuni va maqsadi hozirgi zamon sharoitida ta‘lim jarayoni samaradorligini va o‘qitish sifatini oshirishga imkon beradigan darsni tashkil etish lozim. Chunki ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limni tashkil etish o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishini va ularda ijodiy fikrlash hamda faolashuvni rag‘batlantiradi.

Shunday qilib, bugungi tezkor davr o‘quvchilarni ham qisqa muddatda va asosli ma‘lumotlar bilan qurollantirish, ular tomonidan turli fan asoslarini puxta o‘zlashtirilishi uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda. Zamonaviy sharoitda ta‘lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko‘ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilishi talab qilinmoqda. Bu turdagi ta‘lim o‘quvchilarda mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlik kabi sifatlar, shuningdek, mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi.

2.2-§. Ona tili fanini o‘qitish pedagogik ta‘lim texnologiyalarining shaxsga yo‘naltiruvchi metodik vositasi sifatida

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilingan keyin o‘tgan vaqt ishida ta‘lim tizimini qayta qurish hamda ta‘lim jarayonida ilg‘or axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga imkon beruvchi zarur shart-sharoitlar yaratildi. Bundan tashqari, ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim ta‘lim oluvchilarni hamkorlikda ishlash, ularda kommunikativ qobiliyatni rivojlantirish, ularning ma‘lum bir muammo yuzasidan nafaqat o‘zi yashayotgan mintaqaga, shu bilan birga boshqa mamlakatlarning yoshlari bilan o‘zaro fikr almashishlari, hal etilayotgan masala yuzasidan shaxsiy fikrlarni ilgari surish, ularni dalillar asosida asosli bayon etishlariga erishish, ana shu maqsadda axborot texnologiyalarida mavjud bo‘lgan ma‘lumotlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishlari uchun sharoit yaratishi lozim.

Bu kabi masalalarni hal etishda nafaqat umumta'lim muassasalar, balki respublika uzluksiz ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan ta'lim tashkilotlarining barchasi birdek faollik ko'rsatishlari talab etiladi. Ana shundagina ta'lim olishni takomillashtirish borasidagi ijtimoiy ehtiyojni qondirish imkoniyati yuzaga keladi. Bu o'rinda ilg'or pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Shundan kelib chiqib, biz tadqiqotimiz doirasida ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan pedagogik ta'lim texnologiyalaridan foydalanish mexanizmini takomillashtirishning metodik va ijtimoiy jihatlarini aniqlashtirdik.

Biz pedagogik texnologiyani qo'llash haqida so'z yuritishdan avval, pedagogik texnologiyaning ilmiy asoslariga to'xtalib o'tamiz.

Pedagogik texnologiya bir qancha asoslarga ega. Bulardan eng ahamiyatlilari ijtimoiy, falsafiy, metodologik, didaktik, pyedagogik, psixologik, fiziologik, gigiyenik, mafkuraviy, huquqiy-me'yoriy, iqtisodiy, tarixiy, nazariy, amaliy va boshqa asoslar hisoblanadi. Ular bilan qisqacha tanishib chiqamiz.

Pedagogik texnologiyaning *ijtimoiy asosi* har bir shaxs, jamiyat va davlatning ta'lim-tarbiya sohasidagi ehtiyojlaridan kelib chiqadi va shu ehtiyojlarni qondirishning maqsad va talablarini, tashkiliy shakllari va usullarini belgilaydi. U shaxsning, jamiyatning va davlatning rivojlanishida asosiy omillardan hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyaning *falsafiy asosi* uning maqsadlari hamda tashkiliy shakl va usullarining falsafiy jihatdan to'g'ri yo'nalishda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. Falsafiy oqimlar va yo'nalishlarning har biri ta'lim-tarbiya masalalariga o'ziga xos yondashadi. Shu sababdan pedagogik texnologiyaning falsafiy yo'nalishi uning to'g'ri yoki noto'g'riligini, jamiyatning ma'lum maqsadlariga muvofiq yoki zidligini ko'rsatadi. Bu pedagogik texnologiyalarga baho berishda asosiy ko'rsatkichlardan hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyaning *metodologik asosi* uni amalga oshirishda qanday metodlarga asoslanilishini belgilaydi. Insonlarning olamni hamda o'zlarini bilishlari turli tarixiy davrlarda turlicha asoslarga ega bo'lgan va ular o'ziga xos metodlarni keltirib chiqargan. Hozir olam va uning xususiyatlari haqida xolis ma'lumotlar olish, haqqoniy bilimlar hosil qilishning ilmiy metodologiyasi pedagogik

texnologiyalarning metodologik asosi hisoblanadi. Metodologik asosning ilmiy jihatdan to'g'ri bo'lishi pedagogik texnologiyalar uchun zaruriy shartdir.

Pedagogik texnologiyaning *didaktik asosi* uning ta'lim-tarbiya qoida va tamoyillariga muvofiqligini belgilaydi. Didaktik talablar ta'lim-tarbiyaviy vazifalarning nazariy jihatdan to'g'ri bajarilishini ta'minlaydi. Pedagogik texnologiyaning didaktik jihatdan to'g'ri bo'lishi uning yuqori samaradorligining zaruriy sharti hisoblanadi. Buning uchun zamonaviy didaktikaning ilmiy xulosalaridan ijodiy foydalanish talab qilinadi.

Pedagogik texnologiyaning *pedagogik asosi* zamonaviy pedagogika fanining ilmiy xulosalaridan kelib chiqadi. Bunda pedagogik texnologiyaning umumiy tarkibiy tuzilishi, mazmuni, shakli, usullari, vositalari, pedagogik jarayonning tashkil qilinishi, olib borilishi, uning diagnostikasi, monitoringi, o'quv mavzu rejalar va shu kabilarning ilmiy jihatdan to'g'ri bo'lishi ta'minlanadi. Pedagogik texnologiyalar hozirgi pedagogika fanining rivojlanishida katta o'rin egallab bormoqda.

Pedagogik texnologiyaning *psixologik asosi* psixologiya fanining ilmiy xulosalari va tavsiyalari bilan belgilanadi. Ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida to'g'ri foydalanish orqali kutilgan natijaga yerishish mumkin. Shu sababli pedagogik texnologiya psixologiya qonunlarini to'liq hisobga olishi talab qilinadi. Ta'limning har bir bosqichida tegishli yosh psixologiyasi xususiyatlariga moslashtirilgan pedagogik texnologiyalar qo'llaniladi. Har bir bosqichda tegishli darajadagi bilim va tarbiya beriladi. Bu masalalarni o'rganish bilan pedagogik psixologiya fani shug'ullanadi.

Pedagogik texnologiyaning *fiziologik asosi* ta'lim oluvchilarning turli yoshdagi fiziologik xususiyatlarini hisobga olishdan iborat. Bunda o'g'il va qiz bolalar fiziologiyasidagi farqlar aloxida hisobga olinishi lozim. Pedagogik texnologiya jarayonida fiziologik talablarni hisobga olish sog'lom avlodni voyaga yetkazishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyaning *gigiyenik asosi* ta'lim-tarbiya jarayonida salomatlikni saqlash talablariga rioya qilishdan iborat. Bunda turli zararli va ortiqcha ta'sirlarni bartaraf qilish, o'quv sharoiti: yoritilganlik, harorat, havoning tozaligi, ta'lim oluvchining va o'qituvchining ish o'rni, jihozlar, o'quv nagruzkalarining me'yorlari,

didaktik vositalarning qulayligi, sifati va shu kabilar tibbiyot, fiziologiya, ergonomika, ekologiya talablariga, insonparvarlik va xalqparvarlik g'oyalariga muvofiq bo'lgan ilmiy asoslarda belgilab boriladi. Bu talab va me'yorlarga rioya qilish pedagogik texnologiyani amaliyotga tatbiq etish imkoniyatini yaratadi. Bu masalalarni o'rganish bilan maktab gigiyenasi fani shug'ullanadi.

Pedagogik texnologiyaning *mafkuraviy asosi* uning milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi tamoyillarini o'zida mujassam etishi va ularni amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'lishidan iborat. Bunda barkamol insonni shakllantirishda mafkuraviy tarbiyaning fidoyi, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan boshqalarga ibrat bo'ladigan, bilimli, ma'rifatli, ijtimoiy faol insonni voyaga yetkazishdan iborat asosiy vazifalarni amalga oshirib borishi har bir pedagogik texnologiya uchun dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyaning *huquqiy-me'yoriy asosi* ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish va amalga oshirishga doir qonuniy va me'yoriy hujjatlar bilan belgilanadi. Bular O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, Davlat ta'lim standartlari, o'quv reja va dasturlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim-tarbiya sohasiga tegishli Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining qaror va buyruqlari, ular asosida tayyorlanib, o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan nizomlar, ustavlar va boshqa me'yoriy hujjatlar hisoblanadi. Pedagogik texnologiya jarayoni ishtirokchilari ushbu huquqiy-me'yoriy asoslarni tegishli darajada bilishlari va amalga oshirib borishlari lozim.

Pedagogik texnologiyaning *iqtisodiy asosi* ta'lim menejmenti xulosalari va marketing tadqiqotlari natijalariga muvofiq belgilanadi. Pedagogik texnologiya ijtimoiy sohadagi faoliyat bo'lgani sababli uning iqtisodiy samarasi o'ziga xos tartiblarda aniqlanadi va ta'minot masalalari hal qilib boriladi. Pedagogik texnologiya iqtisodiy asosining mustahkam bo'lishi uni amaliyotda davom ettirish uchun zaruriy shart xisoblanadi.

Pedagogik texnologiyaning *tarixiy asosi* ta'lim-tarbiya masalalarini turli tarixiy davrlarda amalga oshirishning shakl va usullari, mazmuni hamda turli pedagogik nazariyalar haqidagi ma'lumotlardan iborat bo'lib, ular zamonaviy pedagogik

texnologiyalarning kelib chiqishi uchun zamin hisoblanadi. Hozirgi pedagogik texnologiyalar turli davrlarda boshlangan ishlar, olib borilgan tahlillar, chiqarilgan xulosalar, mutafakkirlar bildirgan fikr-mulohazalarning rivojlantirilishi asosida paydo bo'lib, takomillashib bormoqda. Pedagogik texnologiyaning tarixiy asosi uning o'ziga xos ildizlarini tashkil qilishini hisobga olgan holda ularni bilish va chuqur o'rganish kelgusi rivojlanish yo'llarini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida aytilgan va boshqa metodik asoslar umumlashtirilsa, har bir pedagogik texnologiyaning o'z nazariy va amaliy asoslari kelib chiqadi. Pedagogik texnologiyalar muammosi pedagogik nuqtai nazardan ilmiy asosda chuqur o'rganilgan. Biroq ular ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etilganda, talaba shaxsiga (uning psixik jarayonlariga) nisbatan psixologik ta'siri masalasi shu paytgacha jiddiy tadqiq qilinmagan. Zero, inson shaxsi o'ta murakkab va ko'p qatlamli tuzilmaga ega bo'lgan psixologik ob'yekt hisoblanadi. Pedagogik texnologiyalar o'quvchi shaxsiga yaxlit holda ta'sir qiladi, unda muayyan o'zgarishlarni vujudga keltiradi. Pedagogik texnologiyalar ma'lum mazmunni talabalar ongiga yetkazish usuli sifatida ularning aqliy taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadi. Ko'plab psixolog olimlar ta'kidlaganlaridek (B.G.Ananyev, V.V.Davidov, L.S.Vigotskiy, A.A.Verbitskiy, A.M.Matyushkin), aqliy taraqqiyot bevosita mazmun ta'siri asosida amalga oshiriladi. Shakl va mazmun uyg'unligi, ya'ni samarali ta'sir ko'rsatadigan pedagogik texnologiyalar zamiriga mazmunning joylashtirilishi talim oluvchilar aqliy taraqqiyotining asosini belgilaydi.

Pedagogik texnologiyalar o'zida an'anaviy ta'lim tizimidagi kamchiliklarni takrorlamasligi bilan, aksincha, ta'lim oluvchini faol shaxsga aylantirib qo'yishi bilan, uning tafakkuri taraqqiyotiga imkoniyat yaratib berishi bilan tavsiflanadi.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, pedagogik va psixologik texnologiyalar uchta funksiyani bajaradi.

Instrumental funksiya. Bunda ona tili fanini o'qitish ta'lim sub'yektlarida ma'lum ko'nikma va malakalar shakllantiriladi.

Gnostik funksiya. Bunda ona tili dars mashg'uloti qatnashchilarida bilimlar shakllantiriladi va o'quvchi hamda ta'lim oluvchilarning tafakkuri rivojlantiriladi.

Ijtimoiy-psixologik funksiya. Bunda o'quvchilarda ma'lum ijtimoiy-psixologik ko'nikmalar rivojlantiriladi. Masalan, kommunikativ ko'nikmalar shakllantiriladi.⁵⁷

Har bir funksiyaga mos holda ma'lum texnologiyalar qo'llaniladi: instrumental funksiya uchun o'yin mashqlari, gnostik funksiya uchun didaktik texnologiyalar, ijtimoiy-psixologik funksiya uchun rolli o'yinlar qo'llaniladi.

Shaxs ijtimoiy muhitdan tuzilgan holda mavjud bo'la olmaydi. Buning misoli sifatida R.Kipling tomonidan yaratilgan asardagi Mauglini keltirish mumkin. Garchi, inson bolasi bo'lsada, ijtimoiy munosabatlar jarayonida ishtirok etish ko'nikma va malakalari shakllanmaganligi bois odamlar hayotiga moslasha olmaydi.

Bola yoshligidan o'yin, mehnat va o'qish faoliyatlarini tengdoshlari bilan birgalikda tashkil etish asosida ijtimoiy muhitga moslasha boradi. Ijtimoiy muhit bolaga borliqni anglash uchungina emas, balki o'zligini anglash uchun ham imkoniyat yaratadi. Bolaning doimiy ravishda jamoa orasida bo'lishi, uning jamoa ta'sirida shakllanishi unda ijtimoiy faollikni yuzaga keltiradi.

Sharq mutafakkirlari jamoaning shaxs kamolotini ta'minlashdagi o'rni va roliga alohida e'tibor berganlar. Xususan, Abu Ali ibn Sino ijtimoiy muhitning shaxsni shakllantirishdagi rolini yuqori baholaydi. Tashqi muhit va odamlar insonning borliq, unda kechayotgan o'zgarishlar, jarayonlar mohiyatini anglashgagina emas, balki uning xulqida yaxshi va yomon sifatlarning shakllanishiga ham sezilarli ta'sir etishi, shu bois bolalarni tarbiyalashda u mansub bo'lgan mikromuhit xususiyatini inobatga olishni ta'kidlaydi. Bolani yomon ta'sirlardan saqlash zarurligini uqtiradi.

Abu Nasr Forobiyning uqtirishicha, inson boshqalar bilan munosabatda bo'lish, ularning yordami va qo'llab-quvvatlashlarini his etish ehtiyojiga ega. Ana shu ehtiyojni qondirish yo'lidagi amaliy harakatlar insonni kamolotga yetaklaydi, deb hisoblaydi. Abu Rayhon Beruniy esa shaxsning rivojlanishida o'zaro yordam, hamkorlik, odamlarga nisbatan xayrihohlik uning ijtimoiy muhitdagi roli va o'rnini belgilab beradi.

⁵⁷ . Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М.: ИРПО, 2000. - 212 с.

Bolaning bilish jarayonining, tafakkurining taraqqiyoti to‘g‘risida eng e‘tiborli nazariyalardan biri – L.S.Vigotskiuning oliy psixik funksiyalar taraqqiyoti nazariyasi hisoblanadi. Mazkur nazariyada insonning ijtimoiy mohiyati va (uning) faoliyatining bilvositalik tabiati (uning qurollar orqali, belgilar yordamida amalga oshirilishi) o‘z aksini topgan.⁵⁸

Agar shaxsning ijtimoiylashuvi sohada yaxlit rivojlanishi nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, ta‘lim muassasalaridagi tarbiya jarayonida shaxsning o‘z imkoniyatlaridan foydalanish orqali ijtimoiy xulq-atvor shakllanishiga e‘tibor qaratadi. Aynan shu qonuniyat tarbiya sohasida shaxsning ijtimoiylashuvini shakllantirish jarayonida katta ahamiyatga ega. Shaxs ijtimoiylashuvi, ta‘lim muassasasining ta‘siri o‘quvchi shaxsida ijtimoiylashuvning yangi darajasini belgilaydi. Chunonchi, hozirgi kun ta‘lim muassasalari oldidagi asosiy vazifalardan biri bu har bir shaxsni ijtimoiy faolligini oshirish orqali ijtimoiylashuv jarayonini tezlashtirish, jamiyat talablariga muvofiq xulq-atvor normalarini shakllantirish, insoniy munosabatlar uchun muloqot madaniyatini rivojlantirishdan iborat.

Ta‘kidlash joizki, ijtimoiylashuv tushunchasining mohiyati va uning inson hayotidagi o‘rnini baholash muhim hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan olganda, adabiyotlar keltirilgan ijtimoiy kompetentlik tushunchasining mohiyatini asoslash muhim hisoblanadi.

XX asrning 90-yillarida ijtimoiylashuvi shaxsning shaxsiy sifati kabi barcha ijtimoiy tarmoqlarda mashhur bo‘lib, fanlararo bir mavzu sifatida qabul qilinadi va murakkab, ko‘p komponentli va o‘lchovli hodisa sifatida tahlil qilinadi. Bu an‘ana hozirgi zamon olimlarining tadqiqot ishlarida davom etmoqda.

Ye.V.Koblyanskayaning tadqiqot ishida ijtimoiylashuv “Men” munosabatini tushunish - jamiyat, to‘g‘ri ijtimoiy yo‘nalishni tanlay olish, ushbu yo‘nalish bo‘yicha o‘z faoliyatini tashkil etish” sifatida ko‘rib chiqadi.⁵⁹

V.N.Kunisina ijtimoiylashuvning quyidagi turlarini ajratib ko‘rsatadi: kompetentlik; kommunikativ kompetentlik; ijtimoiy-kasbiy kompetentlik; o‘z-o‘zini aniqlash.

⁵⁸ Виготский Л.С. Педагогическая психология/ Под ред. В.В.Давыдова. – М.: Педагогика, 1991. - 480 с.

⁵⁹ Е.В.Коблянская

I.A.Zimnyaya ijtimoiylashuvni insonga ta'siriga ko'ra, ijtimoiy hamkorlik (jamiyat, jamoa, oila, do'stlar, hamkorlar bilan ziddiyatlar va ulardan qaytarish, hamkorlik, bag'rikenglik, ijtimoiy safarbarlik) va muomala kompetentligi (og'zaki, yozma, suhbat, monolog; bilim va an'analarga rioya qilish, etiket; madaniy va xorijiy aloqalar; biznes; kommunikativ vazifalar)ga ajratadi. ⁶⁰

Shunday qilib, mavjud yondashuvlarni tahlil qilish natijasida biz "ijtimoiylashuv" tushunchasi shaxs integrativ sifatlari sifatida ta'riflashimiz uchun asos bo'ldi, ular ijtimoiylashuv natijasida shakllangan zarur bilim, tajriba, qobiliyatni o'z ishiga oladi. Ijtimoiylashuv ijtimoiy sohada muammolarni samarali hal qilish imkonini beradi.

N.V.Kalininaning fikricha, kishining ijtimoiylashuv – zarur psixologik yangilik bo'lib, yoshga doir inqiroz vaqtidagi muammolarni konstruktiv hal qilish imkonini beradi. Shuningdek, olim ijtimoiylashuvni ta'lim muassasalari tomonidan jamiyat, davlat talablarini bajarilishi bilan bog'laydi, uni faoliyat ko'rsatkichi samaradorligi sifatida hisoblaydi. Xususan, muallif shunday yozadi: "Ijtimoiylashuvni ijtimoiy faoliyatni amalga oshirishni ta'minlovchi bilim va ko'nikmalar, mas'uliyatni o'ziga olish bilan bog'liq shaxsiy sifatlar sevgi, ishonch birligi sifatida ta'riflaydi va o'quvchi shaxsining ijtimoiylashuvi modeli sifatida quyidagilarni ko'rsatadi:

-ona tili fanini o'qitishda maqsadga erishish motivatsiyasining shakllanganligi;

- ona tili fanini o'qitishning samarali usullari va tajribalarning rivojlanganligi;

- o'zini o'zi nazorat qilish;

- o'zini o'zi tarbiyalashning shakllanganligi;

- ongli ijtimoiy normativ maqsadlar va qoidalarga rahbarlik;

- ijtimoiy xulq-atvor normalarini o'zlashtirish;

- o'z ishidan qoniqish hosil qilish;

- o'ziga nisbatan yuqori baho berish;

- o'zi va atrofdagilarga tanqidiy munosabatda bo'lish;

- tengdoshlari va kattalar bilan o'zaro konstruktiv hamkorlik ko'nikmalarini o'zlashtirish, do'stona aloqalar o'rnatish;


⁶⁰ Зимняя И. А. Психология обучения иностранным языкам в школе. – М.: Просвещение 2001, – 222 с.

- qiyin hayotiy vaziyatlarda konstruktiv xulq-atvor ko'nikmalarini shakllanishi.⁶¹

Shaxsni ijtimoiylashuv jarayonning asosiy ko'rinishlaridan biri bola shaxsi omilining yuqori bosqishga ko'tarilishini ta'minlaydigan pedagog va ta'lim oluvchilarning o'zaro hamkorlikdagi o'quv faoliyatlarini shaxsga yo'naltirish sanaladi. Binobarin, "ta'lim oluvchi shaxsini hurmat qilish va ta'lim mazmunida uning ma'naviy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, jahon madaniyati bilan uyg'unlashtirish tamoyili ijtimoiy tajribaning muhim jihati sifatida e'tirof etilmoqda"⁶² Shunga ko'ra ta'lim, shu jumladan, "o'qitish, tarbiyalash hamda rivojlantirish jarayoni ijtimoiy tajribaning shaxsiy tajribaga aylanishni, ta'lim oluvchi tomonidan kishilik madaniyatini to'laqonli o'zlashtirilishini ta'minlovchi maqsadli ta'lim bo'lishini kafolatlaydi"⁶³

Bu o'rinda ta'lim mazmuni konsepsiyasining mavjud modellarini qisqacha sharhlanishi muhim ahamiyatga ega. Asosiy e'tibor muayyan darajada ustuvor o'rin tutgan pedagogik fanlar rivojini belgilovchi, shuningdek, shaxsiy yondashuv bilan qorishib ketgan ijtimoiy tajribaga muvofiq keluvchi ta'lim mazmuni modeliga qaratiladi. Quyida ana shu modelning shakllanish jarayoni va tarkibiy tuzilmasi to'g'risida so'z yuritiladi.

(2.1.1.-rasmga qarang).



2.1.1-rasm. Ta'lim mazmunini tarkibiy tuzilmasi⁶⁴

⁶¹ Н.В.Калинина

⁶² Железнякова, С. И. Ориентации и установки учителей на инновационную деятельность Текст. : Автореф. дис. канд. социол. наук : 22.00.08 : Уральск. гос. ун-т им. А. М. Горького / С. И. Железнякова. Екатеринбург, 1997. - 22 с.

⁶³ Крюкова Е.А. Личностно-развивающие образовательные технологии: природа, проектирование, реализация / Монография. – Волгоград: Перемена, 2000.

⁶⁴ Taylakova D.N.Components of educated games pedagogical technology Web of

Ta'lim jarayonida shaxsiy yo'naltiruvchi yondashuv to'g'risida bevosita so'z yuritilganda uning ta'lim oluvchilarning shaxsiy va yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda asosiy tamoyillari ko'rib chiqiladi.

Ta'lim mazmunining insonparvarlik g'oyalariga asoslanishi. Insonparvarlik g'oyalarini ifodalovchi ta'lim natijasi atrofda bilan hamdard bo'la oladigan, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni erkin tanlash, shaxsiy intellektual qobiliyatni o'stirishga intiluvchi, o'zini hamda o'zgalarni hurmat qiladigan, turli madaniyat va millat vakillariga nisbatan toqatli (tolerant), shu bilan birga mustaqil shaxs shakllanishini ta'minlay olishi lozim.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ta'lim mazmunini ifodalovchi asoslari uzoq o'tmishga borib taqaladigan turli konsepsiyalar mavjud. Ularning har biri negizida shaxsning jahonda va jamiyatda tutgan o'rni hamda rolini yorituvchi tasavvur, tushunchalar yotadi. Demokratiya va insonparvarlik g'oyalarining yuzaga kelish manbai, bir tomondan, avtoritar yondashuvni, ikkinchi tomondan esa, shaxsning jamiyatda tutgan o'rniga baho beradigan turlicha qarashlarning tug'ilishini ta'minlaydi. Shu o'rinda quyidagicha savol tug'iladi: inson faoliyat ko'rsatar ekan, u davlat uchun maqsad va vositami? Yoki aksincha, davlat inson uchun maqsad va vositami?

Xatto, nazariy va amaliy jihatdan ham insonning ijtimoiy rivojlanish maqsadi emas, balki vositasi sifatida qabul qilinishi insonparvarlik g'oyalaridan uzoqlashtiradi.

Ta'lim muassasalarida o'qitiladigan fanlarni pedagogik g'oyalarga moslashtirilishi. "Ta'lim mazmunini bu tarzida tushunilishi ta'lim muassasalari o'quvchilari oldiga ona tili fanidan asosiy ilmiy bilimlarni shakllantirish va ularni amaliyotga tatbiq etish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadini qo'yadi".⁶⁵ Bunday bilimlar hajmini o'zlashtirgan shaxs ishlab chiqarish vositalari orasida "asosiy ishchi kuchi" sifatida namoyon bo'ladi. O'zida bunday mazmunini ifodalagan ta'lim texnokratik yoki senistik (yuksak madaniy qadriyatlar borasidagi bilim va metodlarni yorituvchi dunyoqarash) xususiyat kasb etadi.

Senistik g'oyalar fanlarning kishilik jamiyati madaniyati tizimidagi rolini mutloqlashtiradi.

Ta'lim mazmunida o'quvchilar o'zlashtiradigan bilim, ko'nikma va malakalar mohiyatining aks etishi. Ta'lim mazmunining bunday tavsiflanishi o'zlashtiriladigan bilim, ko'nikma hamda malakalarning xususiyatlarini ochib bermaydi, zero, bunda kishilik madaniyatining barcha tarkibiy qismlari tahlil qilinmaydi. Ona tili fani bo'yicha bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish shaxsga mavjud ijtimoiy tuzilmada to'laqonli hayot keshirish va harakatlanish imkonini beradi. Shu bois bunday holatda ona tili fanini o'qitishda ta'lim mazmuniga nisbatan quyidagi talabni qo'yish maqsadga muvofiqdir: so'z va gaplarni bog'lagan holda fikrini aniq va ravon yozma bayon qilish, 140-160 so'zdan iborat diktant yozish, 20-25 gapdan iborat ijodiy matn (bayon, insho) va bayonga reja tuzish, epigraf tanlash, matnda badiiy tasvir vositalridan o'rinli foydalanish, rasmiy ish qog'ozlarini (ariza, ma'lumotnoma, xat, tarjimai hol, e'lon) yozish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni uzatish zarur va yetarli. Biroq, ta'limni bunday tor doirada tushunish xato sanaladi.

Ta'lim mazmunining ijtimoiy-pedagogik tajribalarga asoslanishi. Bunga ko'ra ta'lim inson tajribasi va ijtimoiy pedagogikaga moslashib jahon madaniyati tizimini hisobga oladi.

Mavjud manbalar bilan tanishish, insonini shaxs sifatida tadqiq qilishga turli nazariyalar mavjudligi va ularning mohiyati turlicha ekanligi aniqlandi.

“Ma'lumki, har bir davr o'zining muhim hayotiy sharoitlari, ehtiyojlari va faoliyati, o'ziga xos qarama-qarshiliklari, psixikasining sifat xususiyatlari va psixik jihatdan xarakterli yangi sifatlarning hosil bo'lishi bilan ajralib turadi. Har bir davr o'zidan oldingi davr tomonidan tayyorlanib, uning asosida shakllanishi va o'z navbatida, o'zidan keyingi davrning paydo bo'lishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ona tili fanini o'qitish shunday faoliyatki, unda shaxsning psixik jarayonlari shakllanadi va rivojlanadi, uning asosida yangi faoliyatlar yuzaga keladi. O'quv faoliyati insonning butun hayoti davomida namoyon buluvchi Uzluksiz jarayondir. Rus psixologi A.N.Leontyev

inson faoliyatining psixik va amaliy shakllari mavjudligini, bola ongi aynan o‘quv faoliyatida o‘rishini ta’kidlaydi”.⁶⁶

D.B.Elkonin esa “o‘quv faoliyatining xususiyatlarini ko‘rsatib, uni mohiyatiga, mazmuniga va o‘zini namoyon bo‘lish shakliga ko‘ra ijtimoiyligini” ta’kidlaydi.⁶⁷

“Ta’lim va tarbiya jarayonida bolani rivojlanish muammosi psixologik markaziy masalalardan biridir. Ta’lim va rivojlanish muammosiga doir qator nazariyalar ishlab chiqilgan bo‘lib, ulardan biri – P.Ya.Galperinning aqliy hatti-harakatlar, bilimlar, malaka va ko‘nikmalarni bosqichma bosqich rivojlantirish nazariyasi” bo‘yicha bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni olti bosqichni boshidan kechirib, ularga:

1. “Motivatsiya.
2. Tushunirish.
3. Moddiy formadagi hatti-harakatlarni bajarish.
4. Baland ovozda hatti-harakatlar va vazifalarni bajarish.
5. Bajariladigan hatti-harakatlarni ichki rejada ovoz chiqarmay bajarish.
6. Faoliyatni fikran bajarish kiradi”.⁶⁸

Ushbu nazariyada ta’limning uchta asosiy turlari ajratiladi:

- “birinchi turda - hatti-harakatlarni o‘zlashtirish xatolar bilan kechadi, berilayotgan material yetarli darajada anglanilmaydi, ta’lim oluvchi ta’limning asl mohiyatini tushunib yetmaydi;
- ikkinchi turda - materialni nisbatan dadil va to‘la tushunilishi va material bilan bog‘liq tushunchalarni ajratilishi bilan xarakterlanadi;
- uchinchi tur - tez, samarador va bexato hatti-harakatlarni o‘zlashtirilishini ta’minlab beradi”.⁶⁹

“Pedagogik amaliyotda pedagogik jarayonning moddiy, ob’yektiv jihati doimo ruhiy jarayonlar bilan qo‘shilgan holda mavjud bo‘lib, biri ikkinchisiz mavjud bo‘lmaydi. Bu har qanday faoliyatga, ayniqsa, ta’lim oluvchilar, tarbiyalanuvchilar va tarbiyachilar faoliyatiga

⁶⁶ Леонтьев, А.Н. Деятельность. Сознание. Личность/ А.Н. Леонтьев. - М., 2001. - 301 с.

⁶⁷ Эльконин, Б. Д. Психология развития: учеб. пособие для студентов/ Б.Д. Эльконин. - М.: Academia, 2001. - 141 с.

⁶⁸ Гальперин, П.Я. Введение в психологию: учебн. пособие для вузов/ П.Я. Гальперин. - М.: Книжный дом «Университет», 2000. - 3-е изд. - 336 с.

⁶⁹ Гальперин, П.Я. Введение в психологию: учебн. пособие для вузов/ П.Я. Гальперин. - М.: Книжный дом «Университет», 2000. - 3-е изд. - 336 с.

ko‘proq, tegishli. Pedagogik jarayonni psixologik mexanizmlarsiz amalga oshirib bo‘lmaydi”.⁷⁰

Ona tili fanini o‘qitishning kutilayotgan natijalarini ishlab chiqishda zamonaviy psixologik yondashuvlar qadim davrlardayoq yaratilgan bo‘lib, Aristotel ta‘lim maqsadlarining uchta asosiy kategoriyasini, ya‘ni tafakkur, sezish qobiliyati va qo‘l amallarini bir-biridan farqlagan.

Odatda psixologik va ijtimoiy xarakterdagi pedagogik texnologiyalar jamoadagi muhitni yaxshilash, shaxslararo munosabatlarning ijobiy bo‘lishiga erishish, muloqotga kirisha olish, jamoada yagona birlikni qaror toptirish, o‘zgalarning ruhiy holatini to‘g‘ri baholash, og‘ir vaziyatlarga duch kelgan sub‘yektlarga yordam ko‘rsatish hamda samarali, unumli faoliyat ko‘rsatish uchun zarur sharoitni yaratishga xizmat qiladi. Barcha o‘yinlarda bo‘lgani kabi pedagogik o‘yinlar jarayonida ham ishtirokchi – o‘quvchilar faol holatda bo‘ladi, sheriklari bilan o‘zaro munosabatga kirishadi, shuningdek, o‘z qarashlarini sheriklariniki bilan taqqoslash, jamoa bilan zarur munosabatni o‘rnatish orqali o‘zini o‘zi o‘rganadi.

Ona tili fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchining individual psixologik xususiyatlari namoyon bo‘ladi. Ya‘ni, pedagogik jarayonning maqsad va vazifalari ta‘lim oluvchilarni shaxsini o‘rganishni, ularni yetuk barkamol inson qilib tarbiyalashni ham o‘z zimmasiga oladi.

Shunday ekan, aniq sub‘yektlar uchun mo‘ljallangan ona tili fanidan ta‘limiy dasturlarni ishlab chiqish uchun qulay sharoitlarni yaratish talab etiladi.

L.V.Zankov va A.M.Matyushkin tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlar muammoli ta‘lim asosida darslarni tashkil etishga qaratilgan.

Ona tili fanini o‘qitishning samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchi-pedagog tomonidan beriladigan ko‘rsatmalarga ham bog‘liq. O‘qituvchi-pedagog o‘quvchilarga tegishli psixologik sharoitni hosil qilishi, ong osti va ong usti xotiralarni ahamiyatini tushuntirib berishi lozim. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, kerakli ko‘rsatmalar berilmaganda, o‘quvchilarda ko‘pincha noto‘g‘ri tasavvurlar vujudga keladi.

⁷⁰ Сластенин В.А., Исаев А.И., Мищенко А.Н. Педагогика: учебное пособие для студентов педагогических учебных заведений. – М.: Школа-Пресс, 1997. – 512 с.

“O‘qitishning emotsionalligi ta’limning muvaffaqiyatligini ta’minlovchi omillardan biridir. Ta’lim berish jarayoni emosional jarayon. Agar o‘quvchilarga berilayotgan axborot ularda hech qanday his-tuyg‘u uyg‘otmasa, uni o‘quvchilar yaxshilab esda olib qolmaydilar. Gap o‘quvchilarning psixik xolatlari, ya’ni ularning muayyan bir paytdagi kechinmalari haqida ham borishi kerak, albatta. Ulardagi quvonchli, optimistik kayfiyat o‘quv faoliyatini juda samarali qiladi. O‘quvchilar emosional ruhdagi ma’lumotni yaxshiroq o‘zlashtiradilar.”⁷¹

Psixologlar olib borgan tadqiqotlarda o‘quvchilar tomonidan berilgan materialning o‘zlashtirilishi ko‘p jihatdan irodaning tarbiyalanishiga bog‘liqdir. Irodaviy aktivlik ta’limning zarur shartidir. Ta’lim muassasasidagi ta’lim jarayonining o‘zi o‘quvchilardan irodaviy o‘stirish omillaridan biridir. Bunda o‘quvchilarning kundalik rejimi, o‘qish va oqilona dam olishni bir-biri bilan to‘g‘ri almashtirib turish katta rol o‘ynaydi.

Ona tili fanini o‘qitishda bilish jarayonlarini shakllantirishga alohida e’tibor berish lozim. Zero bilish jarayonlari juda murakkab faoliyat bo‘lib, unda jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga, abstrakt tafakkurdan amaliyotga o‘tiladi, ana shundan so‘ng ob’yektiv haqiqat bilib olinadi.

Binobarin, biz birinchi navbatda ko‘rib chiqishimiz lozim bo‘lgan narsa o‘quv materialini idrok qilish jarayonidir. Umumiy psixologiya kursidan ma’lumki, idrok bu narsa va hodisalarni sezgi organlariga ta’sir etishi natijasida ularning kishi psixikasida yaxlit obrazini paydo bo‘lishi bo‘lib, idrok etish jarayoni ta’limda turli formalarda o‘qituvchining og‘zaki hikoya qilishida, suxbat o‘tkazishda, leksiya o‘qishida, ko‘rgazmali qurollar ko‘rsatish, ekskursiyalar o‘tkazish, axborot va pedagogik texnologiyalaridan foydalanish, o‘quvchining o‘ziga darsliklar hamda boshqa qo‘llanmalarni o‘qitish tarzida o‘tishi mumkin. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, idrokni tarkib toptirishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish nihoyatda muhimdir. Chunki, fazoni, vaqtni va harakatlarni idrok etishda ham yosh xususiyatlarda turli farqlar mavjud bo‘ladi.

⁷¹ Муравьева Г.Е. Педагогическое проектирование в деятельности школьного учителя : учебно-методическое пособие для начинающих учителей / Е.В. Куренная, Е.А. Дубова; Г.Е. Муравьева .— Шуя : ФГБОУ ВПО "ШГПУ", 2011 .— 110 с.

Ta'lim olish jarayoni insondagi motivlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, uning mohiyati - inson xulq-atvorining ichki barqarorligi, harakatga undovchi tushunchada ifodalanadi.

“Motivasiya esa xulq-atvorni psixologik va fiziologik boshqarishning dinamik jarayoni bo'lib, unga tashabbus, yo'nalganlik tashkilotchilik, qo'llab-quvvatlash kiradi. Ta'lim jarayonida o'qish motivlari “nima uchun?”, “nimaga?”, “qanday maqsad bilan?” kabi savollar asosida yuzaga keladi. Motivlar birinchidan, o'quv faoliyatiga undasa, ikkinchidan, maqsadga erishish uchun zarur yo'l va usullar tanlashga yordam beradi. O'quv faoliyatida o'quv motivlar o'quvchilar tomonidan tanlanib, ular o'quvchining maqsadi, qiziqishi, kelajak rejalari bilan bevosita bog'liq bo'ladi”⁷²

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, turli psixotipdagi o'quvchilar uchun ta'limning yagona qulay, optimal sharoitlarini yaratish imkoniyati mavjud emas. Biroq, o'zlashtirishning samaradorligini oshirishda muammoli ta'lim, noan'anaviy ta'lim usullarini qo'llash muhim ahamiyatga egadir.

Ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'limning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik jihatlari ta'lim oluvchi shaxsini tan olish, uni har tomonlama rivojlantirish uchun qulay, zarur muhitni yaratishdan iborat. Bular:

o'quvchilarda mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlik kabi sifatlar, shuningdek, mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga xizmat qilish imkoniyati;

ona tili fanini o'qitishda pedagoglardan har bir o'quvchiga individual yondashishni, uning shaxsini hurmat qilishni, unga ishonch bildirish, o'qitish jarayonini o'quvchilarning individual va psixologik imkoniyatlarini inobatga olishni taqozo etishi;

ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'qitish jarayonining ishtirokchilari pedagog-o'quvchi yoki o'quvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'quvchilar guruhi, o'quvchi-o'quvchilar jamoasi tarzida o'zaro hamkorlikda bilim olish, shaxs sifatida kamol toptirish uchun qulay pedagogik sharoitni yaratish zaruriyatini ifodalashi.

Demak, ona tili fanini o'qitishda shaxs ta'lim-tarbiyasida ijtimoiy-psixologik yondashuv turli guruhlar bilan bo'ladigan turli shakldagi

⁷² Шамова Т.И. - Исследовательский подход в управлении школой. - М., 2002.; Менеджмент в управлении школой. -/Науч. ред. Т.И. Шамова. - М.,1992 г.

o‘zaro munosabatlarning oqibati sifatida qarashimiz mumkin. Ya’ni, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim avvalo biror guruhning a’zosi hisoblangan shaxs xulq-atvori qanday qonuniyatlarga bo‘ysunishini, shaxsning muloqotlar tizimida olgan ta’sirlari uning ongida qanday aks topishini o‘rganadi. Guruhning shaxsga ta’siri qay yo‘sinda sodir bo‘lishi ijtimoiy psixologiyada sosializatsiya, ya’ni ijtimoiylashuv muammosi bilan uzviy bog‘liq bo‘lsa, bu ta’sirlarning shaxs hatti-harakatlari, xulqida bevosita qanday namoyon bo‘lishi ijtimoiy yo‘l-yo‘riqlar muammosi bilan bog‘liqdir. Ana shular asosida shaxsda shakllanadigan fazilatlar va ularning turli tipdagi shaxslarda namoyon bo‘lishini aniqlagan holda, shaxs xulq-atvorini boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqish ijtimoiy psixologiyaning asosiy vazifalaridan biridir deb hisoblaymiz.

Tadqiqotimiz davomida kuzatishlarimiz va ilmiy adabiyotlarni o‘rganishlarimiz natijalari ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim turlaridan foydalanishda quyidagi shartlarga qat’iy rioya etish lozimligini ko‘rsatdi:

- har bir ta’lim oluvchini alohida shaxs sifatida ko‘ra bilish;
- ta’lim oluvchini shaxs sifatida hurmat qilish;
- ta’lim oluvchining ruhiy holatini baholay olish;
- ta’lim oluvchining qiziqishlari va qobiliyatini inobatga olish;
- har bir ta’lim oluvchiga tolerant munosabatda bo‘lish;
- ta’lim oluvchining aqliy imkoniyatlariga ishonch bildirish;
- har bir ta’lim oluvchi uchun qulay ta’lim muhitini yaratish;
- ta’lim oluvchilarning mustaqil hamkorlikda ishlashlari uchun imkoniyat va sharoit yaratish;
- ta’lim jarayonida ta’lim oluvchiga tazyiq o‘tkazmaslik;
- ta’lim oluvchining kamchiliklarini bo‘rttirib ko‘rsatmaslik;
- ta’lim oluvchining o‘zlatirilishi past bo‘lishi sabablarini o‘rganish va aniqlash;
- ta’lim jarayonida har bir ta’lim oluvchi uchun ijod muhitini yarata olish;
- har bir o‘quvchi ta’lim oluvchiga ta’lim olishda muvaffaqiyatga erishishiga ko‘maklashish;
- ta’lim oluvchining qobiliyatini rivojlantirish;
- ta’lim oluvchining shaxs sifatida rivojlanishiga yordam berish.

Keltirilgan nazariy manbalar va o‘tkazilgan tadqiqot natijalarga asoslanib, shaxsning ijtimoiylashuvi yuzasidan quyidagi xulosalarni berish maqsadga muvofiq:

- shaxs kamolotida ijtimoiy munosabatlar muhim o‘rni egallaydi;
- o‘quvchi shaxsida muomala, muloqotning rivojlanganligi shaxsning ijtimoiylashuvini shakllantiruvchi omil bo‘lishi mumkin;
- shaxsning ijtimoiylashuvi o‘qish davrida shakllanishi ulardagi ijtimoiy hayotga qiziqishning ortishi, tashabbuskorlik kabi sifatlarni rivojlanganligi bilan belgilanadi;
- o‘quv faoliyatidagi muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi, ta’limni tashkil etishning samarali usul va vositalari o‘quvchi shaxsida ijtimoiylashuvni tarkib toptiruvchi mexanizmlaridan hisoblanadi;
- tengdoshlari va kattalar bilan o‘zaro do‘stona munosabatlarni o‘rnatish hamda qiyin hayotiy vaziyatlarda xulq-atvor ko‘nikmalarini shakllanishi shaxsning ijtimoiylashuvi muhim jihat sanaladi.

Tadqiqot doirasida ona tili fanini o‘qitish pedagogik ta’lim texnologiyalarning shaxsga yo‘naltiruvchi metodik vosita sifatida aniqlashtirdik hamda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim o‘quvchining individual xususiyatlarini inobatga olgan holda har tomonlama rivojlanishi, barkamol shaxs sifatida yetishishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi degan xulosaga keldik. Tadqiqot natijalari ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim o‘quvchilarni o‘z-o‘zini rivojlantirishga, mustaqil bilim olishga, o‘zining ichki imkoniyatlari, qobiliyatlarini to‘la namoyon eta olishi, bilish faolligini oshirish uchun zarur sharoitni vujudga keltirishi zarur degan xulosaga kelish imkonini berdi.

Demak, ona tili darslarida o‘quvchilarda shaxsning shakllanishi ijtimoiy omillarga bog‘liq bo‘lib, ularning ruxiy rivojlanishida yangi fazilatlar shakllanadi. Ta’lim va tarbiya jarayonida ushbu ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni e’tiborga olgan tarzda faoliyat olib borilsa, o‘smirlardagi yaxshi xulq-atvorlarning va hayotiy ko‘nikmalarini shakllantirilishiga ijobiy ta’sir qilgan bo‘lar edi.

2.3-§. Ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik ta’lim texnologiyalar asosida darslarni tashkil etishning didaktik tizimi.

O‘zbekiston Respublikasining taraqqiyoti va istiqbolini ta’minlash ta’lim sohasida yuksak o‘zgarishlarni amalga oshirilishi bilan bog‘liq. Bu o‘z navbatida o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishda hayotiy ko‘nikmalarini shakllantirish, yuksak madaniyatni, ma’naviy yetuklikni va keng dunyoqarashni shakllantirishni talab etadi. Ushbu talablar va intilishlar asosida ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etishda pedagogik shart-sharoitlarning didaktik imkoniyatlaridan samarali foydalanish ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Ayni paytda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maktab ta’limi tizimini rivojlantirish to‘g‘risidagi qarorlarida ta’lim jarayoniga pedagogik texnologiyani tatbiq etish jarayonini jadallashtirish asosida ta’lim sifatini yanada yaxshilash masalasini qo‘yilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun, ta’lim tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan pedagog kadrlar zamonaviy pedagogik texnologiya tamoyillari asosida fanlarning o‘quv mashg‘ulotlarini o‘quvchi shaxsining imkoniyatlarini inobatga olgan holda tashkil etishlari talab etiladi.

Didaktika ta’lim usullari muammosini ham qamrab oladi. O‘qituvchi biror fan bo‘yicha o‘quvchilarning tizimli bilim olishini ta’minlash maqsadi sari intilar ekan, ma’lum ishlarning bajarilish namunasini ko‘rsatadi. Ayni vaqtda, u ta’limning barcha bosqishlarida o‘quvchining faolligi va mustaqilligini ta’minlaydi. O‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligida tajriba va kuzatuvlari asosida yangi bilimlarni o‘zlashtiradi. Ularga chuqur va mustaqil o‘zlashtirishlari, o‘rgangan bilimlarini amaliyotda ijodiy qo‘llashlari uchun maxsus topshiriqlar beriladi.

Bugungi kunda ta’lim sohasida fan va texnikaning so‘nggi yutuqlari asosida ishlab chiqilgan audio, video, telekommunikatsiya va informasion texnika va texnologiyalarning qo‘llanilishi katta ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun ularning didaktik imkoniyatlari bilan tanishib chiqish va mashg‘ulotlarda ularni qo‘llash o‘quvchining har tomonlama rivojlanishi, barkamol shaxs sifatida yetishiga yordam beradi.

Pedagogik texnologiyaning didaktik asosi uning ta'lim-tarbiya qoida va tamoyillariga muvofiqligini belgilaydi. Didaktik talablar ta'lim-tarbiyaviy vazifalarning nazariy jihatdan to'g'ri bajarilishini ta'minlaydi. Pedagogik texnologiyaning didaktik jihatdan to'g'ri bo'lishi uning yuqori samaradorligining zaruriy sharti hisoblanadi. Buning uchun zamonaviy didaktikaning ilmiy xulosalaridan ijodiy foydalanish talab qilinadi.

“Didaktika (ta'lim nazariyasi: yunoncha “didaktikos” o'rgatuvchi, “didasko” esa o'rganuvchi) ta'limning nazariy jihatlari (ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati mazmuni, ta'lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari va hokazo myammolar)ni o'rganuvchi fan”⁷³

“Bu tushunchani buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670 yillar) “Buyuk didaktika” (1657 yil) nomli mashhur asarida tilga oladi. Ayni o'rinda pedagog “didaktika bu faqat ta'limgina emas, balki tarbiyalash ham” ekanligini alohida qayd etadi”⁷⁴

Ona tili fanini o'qitish jarayonini loyihalashtirish va ularni ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha xorijiy mamlakatlar va respublikada faoliyat yuritayotgan olimlarning ilmiy-tadqiqotlar bag'ishlangan bo'lib, xususan, V.P. Besspalko «Методические указания по проектированию процесса обучения»,⁷⁵ V.M.Монахов «Технологические основы проектирования учебного процесса»,⁷⁶ G.L.Ilin «Теоретические основы проектирования образования»: докторlik dissertatsiyasi,⁷⁷ G.A.Монахов «Проектирование собственной методической системы учителя: дидактический практикум для студентов педагогических университетов».⁷⁸

⁷³ Коменский Я.А. Избранные педагогические сочинения. Тт.1-2. [Текст] / Я.А.Коменский. – М.: Педагогика, 1982. – Т.1. – 656 с. – Т.2. – 576 с.

⁷⁴ Каменский Я.А. Учитель учителей («Материнская школа», «Великая дидактика» и др. произв. с сокращ.). М.: Карапуз, 2009, 288 с.

⁷⁵ Беспалько В.П. Методические указания по проектированию процесса обучения. – М., 2005. – 25 с.

⁷⁶ Монахов В.М. Технологические основы проектирования учебного процесса: Монография. – Волгоград: Перемена, 2005, – 152 с.

⁷⁷ Ильин Г.Л. Теоретические основы проектирования образования: докторская диссертация. – М., 2005. – 180 с.

⁷⁸ Монахова Г.А., Монахов Н.В. Проектирование собственной методической системы учителя: дидактический практикум для студентов педагогических университетов. – м., риЦ «альфа» мгопу, 2003. – 60 с.

Shuningdek, o'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha respublikamiz pedagog-olimlarining ham xizmatlari katta bo'lib, L.V.Golish, D.M.Fayzullayeva⁷⁹ «Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish», M.Tajiyev, B.Ziyamuxamedov, M.O'ralova «Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat fanining o'quv mashg'ulotlarini loyihalash (Pedagogik texnologiya milliy modelining amaliyotga tatbig'i)»⁸⁰ va boshqalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida ko'rish mumkin.

Didaktika ta'limni ijtimoiy tajribani berish vositasi sifatida e'tirof etiladi. Ta'limiy faoliyatni tashkil etishda o'qituvchi – o'quvchi, o'quvchi – o'quv material, o'quvchi – boshqa o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlar yuzaga keladi. O'qish, o'rganish ta'lim jarayonining ajralmas xususiyatidir. Ijtimoiy tajribani o'rgatish jarayoni sifatida ta'lim ikki shaxs (o'quvchi va o'qituvchi) o'rtasidagi munosabatlarga asoslanadi.

“Didaktikaning ilmiy-nazariy vazifasi ta'limning mavjud jarayonlarini o'rganish, uning turli jihatlari o'rtasidagi bog'liqliklar, ularning mohiyatini ochib berish, rivojlanish tendensiyalari va kelajagini aniqlashdan iboratdir. O'zlashtirilgan nazariy bilimlar ta'lim amaliyotini yo'naltirish, ta'limni jamiyat tomonidan qo'yilayotgan ijtimoiy talablarga muvofiq takomillashtirishga imkon beradi. Ta'lim mazmunini anglab olish, ta'lim tamoyillari, ta'lim metod va vositalarini qo'llash me'yorlarini aniqlash asosida didaktika amaliy-me'yoriy hamda tashkiliy-texnologik vazifani bajaradi”.⁸¹

Pansofik harakatning yorqin namoyondalaridan biri chex pedagogi Yan Yamos Komenskiy “Buyuk didaktika” asarida didaktikaning ta'lim nazariyasini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan bo'lsa-da, lekin didaktikani ta'lim nazariyasida ta'lim-tarbiya mazmuni, shakli va uslublari (ayniqsa, sinf-dars tizimi g'oyasi) Ibn Sinoga tegishli g'oya ekanligini alohida qayd etib o'tishimiz lozim. Zero, Sharqda IX asrda hali Yevropaning ko'p hududlarida, husnixat ishlatilmagan va sinf-dars

⁷⁹ Голиш Л.В. Замонавий та'лим texnologiyalari: mazmun, loyixa lashtirish va amalga oshirish. Ekspress kullanna, – T.:Ta'sis, 2001.

⁸⁰ Тожиёв М., Зиёмухаммадов Б. Ўралова М. «Педагогик технология ва педагогик маҳорат фанининг ўқув машғулотларини лойиҳалаш» (педагогик технология миллий моделининг амалиётга татбиғи). Қ.И: Ўқув қўлланма/ – Т.: «MUMTOZ SO'Z», 2011. – 196 б.

⁸¹ Каменский Я.А. Учитель учителей («Материнская школа», «Великая дидактика» и др. произв. с сокращ.). М.: Карапуз, 2009, 288 с.

tizimining nimaligini bilmagan bir vaqtda Xorazmdagi Ma'mun akademiyasi qoshida tashkil etilgan maktab va madrasalarda ilmiy-pedagogik faoliyat bilan shug'ullangan qomusiy olimlar yaratgan pedagogik nazariyaning o'ziga xosligi shundan iboratki, ular ilgari surayotgan didaktik g'oyalar bevosita o'rganilayotgan fan mantig'idan ajratilmagan. Ta'lim-tarbiya maqsadi, prinsiplari, mazmuni va uslublariga xos g'oyalar bironta fanda aniq bilim va ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida yoritiladi.

Shunday ekan, didaktikaning tadqiqot ob'yekti, predmeti, maqsadi va ilmiy-tadqiqot metodlari nimadan iborat, degan savollarga javob topish mumkin.

Didaktikaning ilmiy tadqiqot ob'yekti – ta'lim va tarbiya jarayonidir.

Didaktikaning ilmiy tadqiqot predmeti – ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etuvchi “ta'lim-tarbiya oluvchi”, “ta'lim-tarbiya beruvchi”, “o'quv dasturi, darslik va boshqa didaktik materiallar”, “o'qitishning usul va uslublari” hamda “o'qitishning texnik vositalari” orasidagi funksional aloqadorliklardan iboratdir.

Didaktikaning maqsadi – shu funksional aloqadorliklarning mavjudligi ta'lim-tarbiya jarayonining ichki qonuniyatidan kelib chiqqanligini isbotlash va ularni bir-biriga mutanosib ravishda taraqqiy ettirishdir.

Bu degani ta'lim-tarbiya jarayonida qatnashuvchi biron-bir elementi o'zgarsa, uning boshqa qismlarining ham shunga moslashtirish zarur ekanini isbotlab berishdir. Masalan, ta'lim-tarbiya jarayoni kechadigan sinfdagi pedagog o'zgarsa, ta'lim-tarbiya jarayonini shakllantiruvchi o'qitishning usul va uslublari, texnik vositalardan foydalanish usullari ham o'zgarishi mumkin. Yoki, ona tili fanining dasturi o'zgarsa, darslik va boshqa didaktik materiallar hamda o'qituvchi o'zini va dars berish usullarini bir oz bo'lsa-da o'zgartirishga majbur. Chunki ular o'zaro funksional bog'liqdirlar. Didaktikaning maqsadi mana shu o'zgarishlarni asoslab, ta'lim-tarbiya jarayonini muayyan qonuniyatlardan asosida kechishini nazariy tomonidan asoslab berishdan iboratdir.

Komenskiyning ta'kidlashicha, bilim davomli mashqda va amalda mustahkam o'rin olsa, istagan vaqtda o'quvchilar uni eslay olsa va

bayon etsa, undan foydalana olsa, u to'liq va xaqiqiy bilim xisoblanadi.⁸²

Komenskiy o'z didaktik ta'limotida ta'limning amaliyot bilan aloqada bo'lishini shukur asoslash bilan birga, o'qitish jarayonining tuzilishi va bosqichlarini xam belgiladi. Ular:

- sezish orqali qabul qilish;
- tushuntirish;
- mashqdan iborat.

O'qitishning birinchi bosqichida — tashqi sezish (ko'rish, eshitish, sezish, dilbarlik)ga xizmat qiladi;

ikkinchi bosqichida — aql, idrok – bilimni puxta egallash;

uchinchi bosqichda xotira, ya'ni barcha yaxshi bilimni o'zlashtirish, tip — tushunchalarni aytib berish, qo'l — kerakli ko'nikma va malakalarni ko'rsatish.

Shuni inobatga olib mashg'ulotlar o'yin, ko'rgazmali qurollar, multimedia-didaktika o'yinlaridan foydalanilgan holda tashkil etilsa, har bir o'quvchida o'rganishdagi rag'batning amaliy natijasi his etilib, axloqiy fazilatlarini rivojlanadi, halollik, adolatlilik, qat'iyatlilik, erkin fikrlash, nutqining o'sishi va eng asosiysi, zamonaviy texnologiyalar bilan hamnafas bo'lib voyaga yetishiga zamin yaratiladi.

Didaktik o'yinlarga izoh beradigan bo'lsak, o'quvchilar bilan maxsus ta'limiy o'yinlar shaklida mashq qilish usulida o'quvchining bilim doirasini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ularni ham o'yin, ham ta'lim vositasi sifatida qo'llasak bo'ladi. Bunday o'yin jarayonida ta'lim oluvchi barcha aqliy jarayonlarni rivojlantiradi va individual xususiyatlarini shakllantiradi.

“Ta'lim amaliyotida qo'llaniladigan amaliy o'yinlar o'z-o'zidan didaktik xususiyat kasb etadi, shu sababli ular ko'p holatlarda “didaktik o'yinlar” deb yuritiladi.

Didaktik o'yinlar har bir ona tili darsning maqsadini, har bir ona tili dars mashg'ulotlarining maqsad va vazifalarini yaxshiroq tushunib olishga yordam beradi. Didaktik o'yinlar ona tili fanini o'qitishning ko'rgazmaliligini, o'qituvchining nutqini va bolalar harakatini o'z ishiga oladi, buning natijasida idrokda (ko'rish, eshitish, teri sezgisi belgilarida) birlik tug'iladi. Bu esa o'qituvchining aytganlarini

⁸² Каменский Я.А. Учитель учителей («Материнская школа», «Великая дидактика» и др. произв. с сокращ.). М.: Карапуз, 2009, 288 с.

bolalarning o‘ylab olishiga va o‘sha aytilganlarni ifodalab berishlariga, ya’ni didaktik o‘yinlar qoidalarini o‘quvchilarning o‘zlari bajarishlariga imkon beradi.


O‘yin shaxsning tarbiyalash, rivojlantirish, unga ta’lim berish xususiyatlariga ega. Mavjud xususiyatlari tufayli o‘yinlar qadimdan xalq pedagogikasining muhim asoslaridan biri bo‘lib kelmoqda. Bevosita o‘yinlar bolalarda idrok, sezgi, xotira, tafakkur, nutqni rivojlantirishga yordam berish orqali ularni ma’naviy-axloqiy, aqliy, jismoniy va estetik jihatdan tarbiyalashga xizmat qiladi. O‘quvchi o‘yin faoliyatida o‘qish va mehnatga tayyorlanadi. Yosh ulg‘aygan sari o‘yinning roli biroz kamayib boradi. O‘yinlarning tarbiyaviy ahamiyati bolaning butun hayoti davomida saqlanib qoladi”⁸³

“O‘yinning mohiyati va tuzilishi ma’lum ko‘nikma, malaka, qobiliyat va sifatlarning har bir ishtirokchida butun o‘yin davomida shakllanishini ta’minlaydi. Ta’lim jarayonda o‘yin texnologiyalaridan foydalanishda o‘qituvchi pedagogik vazifalarini senariyda aniq ifodalay olishi zarur.

O‘quv faoliyatining asosiy motivi – bu o‘quv-bilish motivi bo‘lsa, o‘quv faoliyatining eng muhim motivasiyasi esa o‘quvchida o‘zi tanlangan va asoslarini o‘zlashtirayotgan kasbga bo‘lgan qiziqishi sanaladi. Ta’lim oluvchi o‘quv jarayonidagi egallagan bilim, malaka va ko‘nikmalaridan hissiy jihatdan qoniqa olishi lozim. Bu vazifani hal qilishda o‘qitish jarayonida o‘yinli texnologiyalardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi”⁸⁴ (2.3.1 - rasimga qarang). O‘yinli texnologiyalari, shuningdek, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyati va kreativ tafakkurini o‘stiradi.

⁸³ Fayzullayeva D.M., Ganiyeva M.A., Ne’matov I. Nazariy va amaliy o‘quv mashg‘ulotlarda pedagogik texnologiyalari to‘plami / Met.qo‘ll. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limida innovasion ta’lim texnologiyalari seriyasidan – T.: TDIU, 2013. – 137 b

⁸⁴ Каменский Я.А. Учитель учителей («Материнская школа», «Великая дидактика» и др. произв. с сокращ.). М.: Карапуз, 2009, 288 с.



2.3.1-rasm. Didaktik o'yinlarning asosiy turlari

Biz tadqiqotimiz doirasida o'yinli texnologiyalarni ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'limdan foydalanish mexanizmini sifatida ko'rib chiqdik.

Umumiy o'rta ta'lim muassasa o'quvchilarida ona tili fanidan bilim o'zlashtirishga bo'lgan ishtiyoqni shakllantirish va rivojlantirishda dars jarayonida tashkil qilinadigan ta'limiy o'yinlar salmoqli o'rin egallaydi. Dars jarayonida tashkil etiladigan o'yinlardan muayyan ta'limiy maqsad nazarda tutiladi. O'yinning eng muhim ahamiyati ham ana shundadir. Ta'limiy o'yinlar o'qitish vazifasiga xizmat qiladi va qiziqarli, maroqli, tushunarli darajada olib boriladi.

Ularda o'yinda g'olib chiqish maqsadi ustunlik qiladi. Shuning uchun har bir o'yin shartini jon-dili bilan bajarishga harakat qiladilar. Ta'lim jarayonini ham o'yinlardan foydalanib tashkil qilish bolaga o'yin olamida yurishga imkon berilganday bo'ladi. Bu o'yin o'quvchi kuchi yetadigan darajada tashkil qilinsa, ularda didaktik topshiriqlarni bajarishga bo'lgan qiziqishi orta boradi. Ta'limiy o'yin topshiriqlari asta-sekin ko'paytirilib, murakkablashtirilib borilsagina o'quvchi uni o'yin tarzida qabul qiladi. Ta'limiy o'yinlar o'quvchining his-tuyg'usiga ta'sir etib, unda o'qishga ijobiy munosabat va qiziqish xislatini tarkib toptiradi.

Ta'limiy o'yinlar ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u o'quvchilarning tabiatiga juda mos. Bola toki o'ynamaguncha, kattalar xatti-harakatlarining ma'no va mohiyatini anglab yetolmaydi. Professor A.G'ulomov o'zining bu sohada olib borgan tadqiqotida o'yin-topshiriqlarga ta'lim mazmunining ajralmas qismi, o'qitish metodi sifatida qaradi. Metodist olimlarimiz o'yin-topshiriqlar bilm berishga

qaratilgan bo'lsa, ularga ta'lim metodi sifatida qarash to'g'ri bo'ladi, deb ta'kidlaydilar.


E.I.Imomov, K.Shodiyevalar "Darsda qo'llaniladigan o'yinlar" maqolasida "dars paytida yaxshi tashkil etiladigan o'yin usullari mavzuning maqsad va mazmunini kengroq ochishga, materiallarning puxta o'zlashtirilishiga, eng muhimi, o'quvchilarning uzoq vaqt yodida qolishiga ko'maklashadi", deb ta'kidlaydilar. Jumladan, ona tili darslarida uyushtiriladigan o'yinlar ko'ngilochar mashg'ulot bo'lmasdan, ta'limiy harakterga ega bo'lishi, o'rganilayotgan mavzuni mustahkamlashga, uning yangi-yangi qirralarini ochib berishga, mavzuni amaliy o'zlashtirishga qaratilishi lozim. O'yinlar ham muayyan bir tartibda, izchillikda, tadrijiy rivojlanishda uyushtirilishi lozim.

Didaktik o'yinlar o'quvchini izlanishga, ijodiy faoliyat ko'rsatishga, o'rganilayotgan til hodisalarining mohiyatini aniqlab, hukm va xulosalar shiqarishga undaydi. Ta'limiy o'yinlar har bir o'quvchiga o'zini namoyish etish, o'z fikr-mulohazalarini himoya qilish, topshiriqni shavqi-zavq bilan bajarish imkoniyatini beradi. Har bir shaxsda tarbiyalanishi zarur bo'lgan ijodiy sifatlar: tezkorlik, sezgirlik, topqirlik, xushyorlik, qat'iyatlik, bilimdonlik, mustaqillik, tadbirkorlik, ijodkorlik kabilar ko'pincha ta'limiy o'yinlar orqali tarkib toptiriladi.

Ta'limiy o'yinlar orqali ona tili darslarida motiv yaratishda ham foydalaniladi. O'quv jarayonini motivatsiya bilan ta'minlash murakkab masalalardan biridir. O'qituvchidan darsga katta tayyorgarlikni va o'quvchining o'ziga xos rivojlanishini chuqur tushunishdek og'ir mehnatni talab etadi. O'qitishdagi motivatsiya bilimlarni yaxshi o'zlashtiruvchi o'quvchi bilan o'zlashtirishi qiyin kechadigan o'quvchilarda darsga bo'lgan emotsional munosabatni, o'z kuchiga ishonchni saqlash, mulohaza yuritish uchun turtki ham bo'ladi. Bu muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish o'quvchining darsga ixtiyoriy o'z xoxishi bilan aloqa qilishga, fikrlashishga undovchi metod va usullarni qo'llashga bog'liq. Ta'limiy o'yinlar o'quvchilarning o'qituvchi va o'z sinfdoshlari bilan o'zaro munosabatga kirishishlarini tezlashtiradi.

O'yindan ona tili fanini o'qitishning turli bosqishlarida foydalanish mumkin, lekin ular shunday joylashtirilishi kerakki, o'quvchi og'ir

aqliy mehnatdan so‘ng o‘yindan o‘ziga emosional quvvat olishi lozim. Qiyin jarayonida o‘quvchi o‘zining harakatini o‘rtoqlarining harakatiga solishtiradi, o‘zini anglay boshlaydi va unda tashabbuskorlik paydo bo‘ladi. Ona tili dars mashg‘ulotlarida faqat bir xildagi o‘yin-topshiriqlar bilan cheklanib qolmay, balki ko‘proq ijodiylikka undovchi o‘yin – topshiriqlarga e‘tiborni kuchaytirishga to‘g‘ri keladi. Zero, o‘quvchilarni fikrlashga, o‘ylashga, matn yaratishga o‘rgatmasak, hozirgi zamon darsiga qo‘yilgan muhim talab shaxsning rivojlanishiga erishib bo‘lmaydi. Dars jarayonida qo‘llanilib kelinayotgan o‘yinlar xilma-xil bo‘lib, ular turli tomondan turlarga bo‘lingan (2.3.2-rasmga qarang).



2.3.2-rasm. O‘yin metodikasiga ko‘ra guruhlangan ta‘lim texnologiyalari⁸⁵

Pedagog olimlardan J.Yo‘ldoshev va S.Usmonovlar didaktik o‘yinlarni o‘quvchilarda muayyan faoliyat turlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘yinlarga ajratilishini ta’kidlaydi.⁸⁶ Bu o‘yin turlari dars jarayonining qaysi bosqichida o‘tkazilishi, qanday maqsadni ko‘zlashi (o‘tilgan materialni takrorlash, xotirada saqlash, tezkorlik, topqirlik), qanday tartib-qoida belgilanishi va o‘yinning mazmun-mohiyatidan kelib chiqib belgilanadi.

⁸⁵ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

⁸⁶ Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. – T.: O‘qituvchi, 2004

Didaktik o'yinlarni tanlashda ona tili fanini o'qitishda nimalarga e'tibor qaratish lozim?

- o'quv materialining mazmuniga;
- o'quv materialining maqsadiga;
- o'tkazilayotgan o'yinning qoidasi va maqsadiga;
- oddiydan murakkabligiga;
- o'quvchilar uchun aniq va tushunarli bo'lishiga;
- yakka tartibda va jamoada ishlanishiga;
- o'quvchilarning barchasini ishtirokini qamrab olishiga;
- vaqt mey'yorlariga;
- o'quvchilarning yoshiga;
- o'quvchilarning individual xususiyatiga.

Bundan tashqari o'yinni o'tkazish jarayonida o'yinning maqsadi, qoidasi, izchilligi, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlari bilan birga psixologik holatlarini ham inobatga olish muhimdir. O'yinda ishtirok etishga o'quvchining ruhiyati tayyormi? O'quvchining psixologik holati tekshirilib, unda o'yinda ishtirok etishga xoxishni shakllantirish va rivojlantirish, uning faol ishtirokini ta'minlash – O'qituvchidan yuksak mahoratni talab etadi.

Ta'limiy o'yinlarni o'tkazish uchun foydalaniladigan vositalar o'yinning turi va maqsadiga qarab tanlab olinadi. Vositalarning nechog'li samara berishi uning aniq va to'g'ri belgilanishiga bog'liq. Bunday vositalar turli o'quv qurollari (qog'oz, qalam, bo'yoqlar, yelim...), o'quv asbob-uskunalari, tabiiy materilallar, tabiatda mavjud predmetlarning modellari (uy, daraxt, piyola, svetofor...), tabiatda yuz beradigan hodisalar yoki tabiat jismlarining modellari (yer, oy, quyosh, qor, yomg'ir, qor parchalari...), turli qo'g'irchoqlar, texnika vositalari (kompyuter, proyektor, videomagnitafon, televizor...) bo'lishi.

Bugungi kunda texnik vositalar asosidagi, xususan kompyuter vositasidagi didaktik o'yinlar ommalashmoqda. Ta'limiy o'yinlar o'quvchilarni faol bilim o'zlashtirishi va ma'naviy kamolotga erishishida muhim ahamiyat kasb etadi. To'g'ri tanlangan hamda to'g'ri tashkil etilgan bilim va tarbiya olishdan iborat faoliyatni faollashtirishga xizmat qiladi.

Tan olish lozim, mutaxassislarni kasbiy tayyorlashda asosiy maqsadi kasbiy faoliyatni tashkil etishda asos bo'ladigan bilim va malakalar tizimini shakllantiruvchi o'quv fanlari yetakchi sanaladi. Shu

sababli, eng avvalo, kasbiy tayyorgarlik asosini tashkil etuvchi blok – o‘quv fanlari tizimini shakllantirishga jiddiy e‘tibor qaratish lozim. Bakalavrlar tayyorlash bo‘yicha amaldagi dasturlarga muvofiq keladigan o‘quv rejasini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, o‘quv fanlari blokida amaliy malakalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan predmetlar joy olgan. Shunga qaramay, amaldagi o‘quv dasturlar talablariga ko‘ra bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda jamiyatning zamonaviy ijtimoiy talablarini inobatga olgan holda o‘quv predmetlarini takomillashtirish ustuvor maqsad bo‘lishi lozim. Zamonaviy mutaxassis-pedagogning kasbiy ma‘lumoti holatini ifodalovchi sifat tavsiflarini aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Qayd etib o‘tilgan talab nihoyatda muhim sanaladi, zero, bugungi kunda o‘rta ta‘lim myassasalari bitiruvchilarining bilim darajasi barcha jihatlariga ko‘ra zamonaviy talablarni qondira olmayapti. Binobarin, bugungi kunda mutaxassisning kasbiy salohiyati mavjud nazariy ilmiy hamda kasbiy bilimlarni o‘zlashtirishdan iborat ko‘nikmalar bilan emas, balki bilim va malakalarni o‘zaro uyg‘unlashtira olish, o‘z fani bo‘yicha ta‘limni tashkil etishda ulardan samarali foydalanish yo‘llarini mustaqil tanlash qobiliyatiga egaligi bilan belgilanadi. Uzluksiz ta‘lim tizimi, xususan, bevosita umumiy o‘rta ta‘limi tizimida kadrlarning yetishmasligi asosiy sababi – bu oliy ta‘lim myassasalarida pedagoglarning kam tayyorlanayotganligi emas, aksincha, tayyorlangan mutaxassis-pedagoglarning kasbiy faoliyatni samarali tashkil etish ko‘nikma va malakalariga ega emasliklari bilan bog‘liq.

O‘quvchining ta‘lim jarayonida ham ob‘yekt, ham sub‘yekt sifatida namoyon bo‘lishi esa u tomonidan mashg‘ulotlarning muayyan darajada tizimli va samarali tashkil etilishi orqali umumiy rivojlantiruvchi va maxsus natijalarni qo‘lga kiritilishini ta‘minlaydi.

K.D.Ushinskiy “ta‘limni bolalarning psixologik jihatdan kamol topishlarining yosh bosqichlarini hisobga olishni va ular psixologiyasining xususiyatlarini e‘tiborga olib tashkil etish kerakligini talab qildi. K.D.Ushinskiy xotira bilan esda saqlab qolish to‘g‘risida gapirib, unutilishning oldini oladigan tez-tez takrorlash yo‘li bilan tarbiya oluvchilarda o‘z xotiralariga ishonishni mustahkamlash kerak, deb ko‘rsatdi”⁸⁷.

⁸⁷ Ушинский, К. Д. Избранные педагогические сочинения: в 2 т. / К.Д. Ушинский; под ред. А. И. Пискунова. - М.: Педагогика, 1994. - Т. 2

U “darsda ko‘rsatmalilik tamoyiliga katta ahamiyat berib, psixologik nuqtai nazardan ko‘rsatmali ta’limni mohiyatini yoritib berdi”.⁸⁸

K.D.Ushinskiy ta’lim jarayonida ko‘rsatmali ta’limga munosib o‘rin berdi: u ko‘rsatmali ta’lim o‘quvchilarning rivojlanishini ta’min etadigan shartlardan biridir, deb bildi. Olim bolalarning o‘quv materialini anglab, puxta va mustahkam o‘zlashtirishi tamoyiliga katta e’tibor berdi.

K.D.Ushinskiy o‘zining pedagogik tizimida dars hamda ta’lim metodiga katta ahamiyat berdi. “Darsda mashg‘ulotlar turlicha bo‘lishi mumkin: yangi bilim berish, o‘quvchilarning mashqlar bajarishi, o‘tilgan mavzularni takrorlash, o‘quvchilarning bilimini hisobga olish, o‘quvchilarning yozma ishlarni bajarishlari. Har bir dars ma’lum maqsadga qaratilgan, tugallangan bo‘lishi va yetarli darajada tarbiyaviy xarakterga ega bo‘lishi lozim”.⁸⁹

K.D.Ushinskiy mashg‘ulotlarni almashtirib va metodlarni xilma-xil qilib turishni tavsiya qildi. K.D.Ushinskiy bolalarda mustaqil ishlash qobiliyatini o‘stirishga e’tibor berib, o‘qituvchi maktabga yangi kirgan bolalarga darsda mustaqil ishlashning to‘g‘ri usullarini o‘rgatishi kerak, bolalar to mustaqil ishlash malakalarini mustahkam o‘zlashtirib olmaguncha, ularga uyga vazifalar berish yaramaydi, deydi. Ushinskiy o‘qituvchi shaxsiga yuksak baho berib, “Pedagogning o‘quvchilarga ta’siri shunday tarbiyaviy kuchga egadirki buni hech qanday ustav va dastur bilan, ta’lim muassasani har qancha qulay tashkil etish bilan almashtirib bo‘lmaydi” [88], deb hisoblar edi.

Ta’lim muassasalarining ona tili fanini o‘qitishda pedagogik faoliyatning amaliy mohiyati muhim ahamiyatga kasb etadi. O‘quv mashg‘ulotlari usullariga oid bilimlarni berishga xizmat qiluvchi darslarning o‘rin olishi ta’lim oluvchilarni bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantiradi. Natijada maktab bitiruvchilari muloqotni olib borishning murakkab jarayoniga ruhiy jihatdan moslashadilar, ularda umumiy jarayonni tahlil qila olish layoqati

⁸⁸ Ушинский, К. Д. Избранные педагогические сочинения: в 2 т. / К.Д. Ушинский; под ред. А. И. Пискунова. - М.: Педагогика, 1994. - Т. 2

⁸⁹ Ушинский, К. Д. Избранные педагогические сочинения: в 2 т. / К.Д. Ушинский; под ред. А. И. Пискунова. - М.: Педагогика, 1994. - Т. 2

rivojlanadi, shuningdek, ular tomonidan vaziyatni kuzatish, baholash, to‘g‘ri hal etish tajribasi o‘zlashtiriladi.

“Maktab ta‘lim tizimi pedagog kadrlarning oldida turgan muhim vazifa – imkon qadar o‘qitish jarayonining tabaqalashtirilishiga erishish sanaladi. Zero, o‘quvchilarning individual xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyoji hamda o‘zlashtirish layoqatiga ko‘ra o‘quv predmetlari bo‘yicha yo‘naltiruvchi axborotlarni berishning o‘zi kifoya. Bunda asosan o‘quv adabiyotlari, manbalarning ko‘rsatilishi, ularda yoritilgan masalalar yuzasidan qisqacha ma‘lumotnoma berilishining o‘zi yetarli bo‘lsa, bir guruh o‘quvchilar esa o‘quv materialini yuzasidan batafsil ma‘lumot berilishiga ehtiyoj sezadilar. Ular ko‘p holatlarda berilgan hamda o‘zlari tomonidan o‘zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotda faol qo‘llay olish, ulardan foydalanishga ijodiy yondashishda pedagoglarning yordamlariga muhtoj bo‘ladilar”⁹⁰

“O‘quv predmetlari bo‘yicha yaratilgan Davlat ta‘lim standartlari yo‘nalishlarga muvofiq ta‘lim muassasalarida o‘qitilishi yo‘lga qo‘yilgan ona tili fani bo‘yicha o‘quvchilarda muayyan bilim, ko‘nikma va malakalar darajasining hosil bo‘lishi zarurligini nazarda tutadi. Ta‘lim oluvchilarning psixologik xususiyatlari hamda individual imkoniyatlari ularning esa talab etiluvchi bilim, ko‘nikma va malakalar darajalarini yetarlicha o‘zlashtirishlariga imkon bermaydi. Mazkur muammoni hal etishda ilg‘or g‘oyalarga asoslanuvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalari muhim o‘rin tutadi”⁹¹

O‘rganishlar natijasida, zamonaviy sharoitda har qanday jamiyatda umumiy o‘rta ta‘lim tizimini rivojlantirishning strategik yo‘nalishi – bu shaxsda turli sohalarga oid bilimlarni mustaqil egallash ko‘nikma va malakalarini hosil qilish orqali uni intellektual va ma‘naviy-axloqiy jihatdan rivojlantirishdan iborat.

Ta‘limni rivojlantirishning mazkur yo‘nalishi jahonning bir qator rivojlangan mamlakatlari – AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Kanada va boshqalar tomonidan o‘ta muhim deya tan olingan.

⁹⁰ Ушинский, К. Д. Избранные педагогические сочинения: в 2 т. / К.Д. Ушинский; под ред. А. И. Пискунова. - М.: Педагогика, 1994. - Т. 2

⁹¹ Ушинский, К. Д. Избранные педагогические сочинения: в 2 т. / К.Д. Ушинский; под ред. А. И. Пискунова. - М.: Педагогика, 1994. - Т. 2

An'anaviy ta'limga ko'ra ko'p holatlarda mashg'ulotlar sinf-dars tizimiga asoslangan bo'lib, unga ko'ra o'quvchilar asosan tinglovchi vazifasini bajaradilar. Shu sababli zarur shart-sharoit mavjud bo'lmaganligi tufayli yuqorida ko'rsatilgan vazifalar ijobiy hal etilmagan edi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan keyin o'tgan "vaqt ichida ta'lim tizimini qayta qurish hamda ta'lim jarayonida ilg'or axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga imkon beruvchi zarur shart-sharoitlar yaratildi. Ya'ni: har bir ta'lim oluvchining bilimlarni sust o'zlashtiruvchi sub'yekt bo'lishi inkor etilib, u mustaqil ta'lim olish, o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotda faol qo'llash, shuningdek, tashkil etayotgan faoliyatida muvaffaqiyatlarga erishish chora-tadbirlarini belgilashda mustaqil fikrlash imkoniyatiga ega bo'lishiga e'tibor qaratilmoqda.

Shuningdek, ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchilarni hamkorlikda ishlash, ularda kommunikativ qobiliyatni rivojlantirish, ularning ma'lum bir muammo yuzasidan nafaqat o'zi yashayotgan mintaqada, shu bilan birga boshqa mamlakatlarning yoshlari bilan o'zaro fikr almashishlari, hal etilayotgan masala yuzasidan shaxsiy fikrlarni ilgari surish, ularni dalillar asosida asosli bayon etishlariga erishish, ana shu maqsadda axborot texnologiyalarida mavjud bo'lgan ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishlari uchun sharoit yaratishi lozim deb hisoblaymiz.

Ayni vaqtda jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy va demografik vaziyat, milliy va umuminsoniy an'analar, asrlar davomida ulug'lanib kelingan tarixiy-madaniy qadriyatlarga mos barqaror hamda samarali ta'lim tizimini yaratish negizida ta'lim sifatini oshirish zarurligini inkor etib bo'lmaydi. Bu o'rinda pedagog-olim V.G.Razumovskiyning "keskin siyosiy va iqtisodiy vaziyatlarda fan va ta'lim zarur ko'radi. Kuchli ehtiyojlar ta'sirida va muayyan sharoitlardan kelib chiqqan holdagina ta'lim myassasalari tartibsiz qayta tashkil etiladi. Sinov maqsadlarida shet el tajribalaridan foydalanishga to'g'ri keladi",⁹² mazmunidagi fikriga qo'shib bo'lmaydi.

⁹² Разумовский, В. Г. Деятельность преподавания как стратегический ресурс образования / В. Г. Разумовский, Ю. А. Сауров // Наука и школа. – 2004. – № 6. – С. 2–9.

Mavjud manbalar bilan tanishish, umumiy o'rta ta'lim muassasalari faoliyatini o'rganish va o'quvchilarni kuzatish asosida maktab ta'lim tizimining rivojlanishida ma'lum an'analarning qaror topayotganligi kuzatildi. Ular:

1) qayta markazlashtirish negizida respublika uzluksiz ta'lim tizimida yangi tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari shakllanmoqda;

2) ta'lim muassasalarining yangi turlari paydo bo'lishi sababli pedagogika sohasi mutaxassislari faoliyatining mazmuni va xususiyati o'zgarimoqda;

3) ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi o'zgarishlar iqtisodiy nuqtai nazaridan o'zini oqlaydigan maqsadli ishlab chiqarish ehtiyojining yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda;

4) ta'lim sohasida ro'y berayotgan innovatsion jarayonlarni jiddiy anglab yetish zaruriyati yuzaga kelib, oliy ta'lim muassasalarida malakali mutaxassislarni tayyorlashni boshqarish takomillashib, nazoratsizlikka barham berilmoqda.

Ona tili fani o'qituvchilari oldida turgan muammolar o'z mohiyatiga ko'ra nafaqat ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarni emas, shu bilan birga ijtimoiy buyurtmaning mazmunan o'zgarishiga ham sabab bo'lmoqda. Ko'pgina fundamental va amaliy fanlarga xos bo'lgan xarakterli yo'nalishlarni qayd etish shunday xulosaga olib keldiki, ilmiy ob'yektlar, eng avvalo, ularning shaxs hayotidagi roli, ijtimoiy faoliyatiga ta'siri, shuningdek, shaxsni rivojlantirishdagi vazifalariga ko'ra o'rganilishi zarur.

Bunday yondashishning mohiyati ta'lim jarayoni sub'yektlarining o'zlarini to'la namoyon etishlari, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishlari hamda ichki imkoniyatlarini to'laqonli amalga oshirishlariga imkoniyat yaratishdan iboratdir.

Umumiy o'rta ta'limga xos bo'lgan an'analardan biri mutaxassislarning kasbiy tayyorgarliklari darajasini hamda ularning jamiyatda kechayotgan ijtimoiy o'zgarishlarni inobatga olgan holda ona tili fanini o'qitish oldiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtma va ta'lim oluvchilarning bajarishga tayyor ekanliklarini o'rganish borasidagi fanlararo dasturlarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan jarayonlarni muvofiqlashtirish harakati sanaladi. Ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim ma'naviy-axloqiy qadriyatlar hamda insonparvarlik g'oyalariga asoslangan pedagogik muhitni yuzaga

keltiradi. Bu vaziyatda o'quvchida o'z kuchi va ichki imkoniyatlariga nisbatan ishonch ortadi, uning qobiliyatlari rivojlanadi. Ijobiy sanaluvchi bunday psixologik holatlar ta'lim jarayonida shaxsning to'laqonli erkinligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shaxs erkinligining ta'minlanishi natijasida o'quvchilarda o'qish faoliyatiga nisbatan ijobiy munosabatning ortishi ular tomonidan kelajak kasblari bo'yicha bilimlarning puxta o'zlashtirilishiga imkon beradi. Pedagogik faoliyat negizida ona tili fanini o'qitish jarayonida shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalarini qo'llanilishi o'quvchilarni nazariy va amaliy bilimlar bilan puxta qurollantirilishi bilan birga olingan bilimlarni mustaqil hayotda qo'llashga yordam beradi. Shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar yordamida o'quvchilarning nutqi takomillashtiriladi, ta'sir ko'rsatish qobiliyati rivojlanadi, mavjud vaziyatlarni chuqur tahlil qilish, kuzatish va to'g'ri, oqilona baholay olish malakasi oshadi.

III BOB. ONA TILI FANINI O‘QITISHDA SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN PEDAGOGIK TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

3.1-§. Ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning samarali usullari

Har qanday mamlakatning qudrati uning intellektual salohiyati bilan belgilanadi. Bu esa bevosita ta’lim sifatiga bog‘liq. Istiqlol tufayli ma’naviy hayotimizda ulkan burilish sodir bo‘ldi. Mustaqillik bizning milliy, madaniy qadriyatlarimizning naqadar boy va teran tafakkur uslubini shakllantirishga imkoniyat ochib berdi. Oqibatda milliy qadriyatlarimiz jamiyatimiz taraqqiyotini tezlashtirish, yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda hamda ularni milliy iftixor ruhida tarbiyalashda qudratli tarbiyaviy negiz bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash borasidagi mavjud muammolarni hal etish, ta’lim va tarbiya samaradorligini zamon talablari asosida ta’minlash, uni dunyo talablari darajasiga olib chiqishga erishish, yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish orqali ta’lim-tarbiyaning mohiyati, mazmunini shakllantirish va takomillashtirish, ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalarni joriy etish va uning yangi samarali qirralarini izlash bugungi kunning dolzarb muammolaridir.

Ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalarining samaradorligi pedagogik faoliyat jarayonida ularning qanchalik muvaffaqiyatli qo‘llanilishiga bog‘liq. Pedagogik faoliyatning aynan qanday shakllarda tashkil etilishi shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalarining ta’lim jarayoniga tatbiqi darajasini belgilab beradi. Shu sababli so‘nggi yillarda ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik ta’lim texnologiyalarining qanday shakllarda qo‘llanilishini aniqlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, J.G‘.Yo‘ldoshev hamda S.A.Usmonovlar bu o‘rinda quyidagi dars shakllarini shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarining asosiy ko‘rinishlari sifatida e’tirof etadilar (3.1.1-rasm).




3.1.1-rasm. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari asosidagi dars shakllarining ko‘rinishlari.⁹³

Mualliflarning fikrlariga qo‘shilgan holda, sanab o‘tilgan pedagogik ta’lim texnologiyalari shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik

⁹³ J.G‘.Yo‘ldoshev, S.A.Usmonov. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. T.: Fan va texnologiya, 2008, 132 bet.

texnologiyalar shakllarini to‘la ifodalaganligini aytib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Bizning fikrimizcha, yuqorida qayd etilgan majmuani ona tili fanini o‘qitishda quyidagi pedagogik ta’lim texnologiya shakllari bilan to‘ldirish lozim (3.1.2-rasm):



3.1.2-rasm. Ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari asosidagi dars shakllarining ko‘rinishlari⁹⁴.

Quyida ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari turlarining mohiyati qisqacha ochib beramiz.

Muammoli dars zamonaviy ta’lim mohiyatini aks ettiruvchi ilg‘or pedagogik texnologiya asosida tashkil qilingan dars hisoblanadi. Muammoli ta’limning bosh maqsadi – ta’lim oluvchilarning muammoni to‘liq tushunib yetishiga erishish va ularni hal eta olishga o‘rgatishdan iborat. Muammoli ta’limni amaliyotda qo‘llashda asosiy masalalardan biri o‘rganilayotgan mavzu bilan bog‘liq muammoli vaziyat yaratishdan iborat. Turli o‘quv fanlari bo‘yicha o‘quvchilar dars o‘tish jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilishni va ularni yechish usullarini oldindan ko‘zda tutishlari kerak. Ta’lim amaliyotida undan foydalanish ta’lim oluvchilarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma’lum xulosalarga kelish kabi ko‘nikma, malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Muammoli vaziyat yaratish usullari quyidagilardan iborat:

⁹⁴ Muallif tomonidan taklif qilingan.

- o‘qituvchi o‘quvchilarga dars mavzusi bilan bog‘liq ziddiyatli holatni tushuntiradi va uni yechish yo‘lini topishni taklif etadi;

- o‘qituvchi bir masalaga doir turli nuqtai-nazarlarni bayon qilib, uni o‘quvchilarga tahlil qilish orqali yechim topishni taklif qiladi;

- o‘qituvchi hal etish uchun yetarli bo‘lmagan, ortiqcha ma‘lumotlar bo‘lgan yoki savolning qo‘yilishi noto‘g‘ri bo‘lgan masalalarni yechishni taklif etadi va boshqalar.

Muammoli o‘qitishda muammoli vaziyatlarni hal qilish metodi faol qo‘llaniladi. Muammoli vaziyatlarni hal qilishda bahs-munozaralardan foydalaniladi. Bunda, ayniqsa, kichik guruhlarda ishlash samarali kechadi. Muammoli o‘qitishda o‘quvchilar nafaqat muammo yechimi yuzasidan shaxsiy fikrlarni bayon etadilar, shu bilan birga tengdoshlari tomonidan ham ilgari surilgan xilma-xil fikrlar orqasidan eng to‘g‘ri, maqbul yechimni topishga ham rag‘batlantiriladilar. Bu esa ularda fikrlar xilma-xilligi sharoitida ularni tahlil qilish, samaradorligi, real hayotga mos kelishi va ob‘yektivligi nuqtai nazardan baholash layoqatini tarbiyalaydi. Buning natijasida ular ta‘lim jarayonining sust tinglovchisi emas, aksincha, faol ishtirokchisiga aylanadilar.

Bu yerda ona tili fanini o‘qitishda o‘qituvchi o‘quvchilarning invidual aqliy qobiliyati va imkoniyatlaridan kelib chiqib, muammoli vaziyatni hal etishning quyidagi darajalarini aniqlashtirib olishi zarur deb hisoblaymiz:

- o‘qituvchi muammoni qo‘yadi va o‘zi yechadi;

- o‘qituvchi muammoni qo‘yadi va uning yechimini o‘quvchilar bilan birgalikda topadi;

- o‘quvchilar o‘zlari muammoni qo‘yadilar va uning yechimini topadilar.

Shu bilan birga muammoli vaziyatni yechishda ona tili darslarida o‘qituvchi quyidagi usullardan foydalanishi maqsadga muvofiqligi tajriba sinov davomida aniqlandi:

- muammoni turli nuqtai nazardan o‘rganish, tahlil qilish;


- solishtirish, umumlashtirish;

- faktlarni aniqlash va qiyoslash;

- vaziyatga bog‘liq xulosalar chiqarish;

- o‘quvchilarning o‘zlari aniq savollar qo‘yishi va boshqalar.

Ye.L.Melnikova muammoli darsning quyidagi tuzilmasini taklif etadi (3.1.2- rasmga qarang).



3.1.2- rasm. Muammoli dars tuzilmasi⁹⁵.

Biroq ushbu sxema bo'yicha muammoli darsni tashkil etish bosqichlari o'zining pedagogik faoliyatni boshlayotgan pedagog kadrlar uchun birmuncha umumiy bo'lganligi uchun, biz unga aniqlik kiritgan holda, ona tili fanini o'qitishda muammoli darsni tashkil etishni quyidagicha algoritmini taklif etamiz (3.1.3-rasmga qarang).



3.1.3-rasm. Muammoli darsni tashkil etish algoritmi⁹⁶.

⁹⁵ Мельникова Е.Л. Проблемный урок, или Как открывать знания с учениками: Пособие для учителя. – М., 2002. – 168 с.

⁹⁶ Muallif tomonidan tadqiqot davomida ishlab chiqilgan muammoli darsning algoritmik sxemasi.

Ona tili darsida hosil qilinadigan muammoli vaziyat hamda o'quvchilarga hal etish taklif etiladigan muammoga qo'yiladigan eng asosiy talab – o'quvchilarning qiziqishini oshiradigan, eng kamida esa ularda qiziqish hosil qiladigan bo'lishi kerakligidir. Aks holda ko'zda tutilgan natijaga erishishning imkoni bo'lmaydi.

Muammo o'quvchilarning bilim darajalariga hamda intellektual imkoniyatlariga mos bo'lishi shart, hosil bo'lgan muammoli vaziyatni yechish uchun topshiriqlar yangi bilimlarni o'zlashtirishga yoki muammoni aniqlab, yaqqol ifodalab berishga yoki amaliy topshiriqni bajarishga yo'naltirilgan bo'ladi. O'quvchilarning muammoli vaziyatni tushunishlari, uning kelib chiqishi sabablari hamda nimalarga, qanchalik darajada bog'liqligini idrok qila olishlari natijasida hosil bo'ladi. Bunday tushuna olish esa o'quvchilarga mustaqil ravishda muammoni ifodalay olish imkoniyatini beradi.

Tadqiqot davomida muammoni yechish taxminlarini shakllantirishda o'quvchi o'zlashtirgan bilimlari asosida kuzatish, solishtirish, tahlil, umumlashtirish, xulosa chiqarish kabi aqliy faoliyatlarni bajarishi aniqlandi. Muammoli ta'lim texnologiyalaridan ona tili fanini o'qitishda foydalanilganda o'quvchilarning aqliy faoliyatdagi asosiy jarayon fikrlash jarayoni bo'lib, fikrlashning sifati uning mantiqiyliigi, mustaqilligi, ijodiyliigi, ilmiyliigi, asosliligi, uzviyliigi, tejamliligi, maqsadliligi, tezliigi, tahliliyliigi, qiyosiyliigi, umumlashtirilganliigi, xususiylashtirilganliigi, kengliigi, chuqurligi, ishonarliligi, realligi, haqqoniyliigi darajasi bilan belgilanishi isbotlandi.

Shu bilan birga intellektual sifatlar xotira, tasavvur, anglash va shu kabi psixologik jarayonlarning tezliigi hamda boshqa parametrlari bilan bog'liq bo'lib, intellektual taraqqiyot darajasi o'qituvchilarda qancha yuqori bo'lsa, shunchalik yaxshi natijalarga erishish imkoniyati hosil bo'ladi. Shunga ko'ra o'quvchilarda muammoni sezish, uni aniqlash, yechimiga doir taxmini to'g'ri belgilash va yechimning to'g'riligini tekshirish qobiliyatlari rivojlanib boradi.

Demak, ona tili fanini o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanish natijasida o'quvchilarga shaxs sifatida fanning mavzusidan kelib chiqqan turli muammoli masala yoki vaziyatlarning yechimini to'g'ri topishlariga, ularda muammoni yechishning ba'zi usullari bilan tanishtirish va muammoni yechishga mos uslublarni to'g'ri tanlashga, muammoning kelib chiqish

sabablarini va muammoni yechishdagi xatti-harakatlarni to'g'ri aniqlashga o'rgatishga qaratilgan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi degan xulosaga kelsak bo'ladi.

Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonida loyihalar bilan ishlashga asoslangan loyiha ta'limi faol qo'llanilmoqda.

N.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Sayfurov, A.To'rayevlarning fikriga ko'ra **“Loyiha darslari** – ta'lim oluvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo'yicha axborot yig'ish, tadqiqot o'tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishdan iborat pedagogik ta'lim texnologiyasidir”.⁹⁷ Ushbu ta'rifga aniqlik kiritgan holda “Loyiha darslari - ta'limiy xarakterdagi aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ta'lim” degan ta'rifni keltirishimiz mumkin.

Ilk bora o'quv jarayonini loyihalarini tuzishning ilmiy-nazariy asosini yaratgan olimlar B.Ziyomammedov, L.V.Golish, D.M. Fayzullayeva, M.Tojiyev, H.Qarshiboyev, D.Yunusova boshqalarning ishlarida, uning amaliyotga tatbig'ini G.Izetayeva, M.Qo'shqarov, E.Sharipov, I.Zulfiqarov, M.O'ralova, K.Mamadaliyev, G.Opayeva, A.Xurramov va boshqalarning ishlarida ko'rish mumkin.⁹⁸

⁹⁷ N.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Sayfurov, A.To'rayev. Innovasion ta'lim texnologiyalari – Toshkent: 2015. – 208 bet.

⁹⁸ 1. Ziyomammedov B., // M.Tojiyevning umumiy tahriri ostida. «Ta'lim texnologiyalari» o'quv predmeti bitta mavzusi nazariy va amaliy mashg'ulotlarning o'zbek modeli asosida tuzilgan loyihalari, //metodik qo'llanma. – t.: 2012. – 60 b.; 2. Golish L.V. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: mazmun, loyiha lashtirish va amalga oshirish. Ekspress kullanma, – T.:TASIS, 2001. 3. Tojiyev M, Sharipov E. Pedagogik texnologiya milliy modeli ning ta'lim jarayoniga tatbig'i: «Matematik analiz asoslari» o'quv fa ni darslarining loyihalari Q.I: O'quv va ilmiy-uslubiy qo'llanma/ – T.: «VORIS – NASHRIYOT», 2012. – 170 b. 4. Qarshiboyev H.Q., Suvonov O., Qarshiboyev J.H. Mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning ilmiy-metodik asoslari. – guliston, 2011. – 60 b. 5. Yunusova D.I. Matematikani o'qitishning zamonaviy texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiyalar», 2011, – 200 b. 6. Izetayeva G.K. O'quv mashg'ulotlarni modulli texnologiya asosida loyihalash va ta'lim jarayoniga qo'llash – kunning talabi. J.: And DU «ilmiy xabarnoma». 2013 yil, 2-soni, 34-39 b. 7. Qo'chqorov M.U., Zulfiqorov I.M., Izetayeva G.K., Opayeva G.A. / Oliy matematika. toshkent, «TAFARRUR BO'STONI», 2011. 8. Tojiyev M., Ziyomuxammadov B. O'ralova M. «Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat fanining o'quv mashg'ulotlarini loyihalash» (Pedagogik texnologiya milliy modelining amaliyotga tatbig'i). Q.I: O'quv qo'llanma/ – T.: «MUMTOZ SO'Z», 2011. – 196 b. 9. Mamadaliyev K. Yangi ochilgan ta'lim yo'nalishlari, yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish va ta'lim jarayoniga qo'llash metodikasi.// J.: 3 son, 2015. 67-71 b. 10. Xurramov A. «Matematika o'qitish metodikasi» fanini loyihalab o'qitishning zamonaviy konsepsiyasi.// J.: «Universitet axborotnomasi» 2-son, 2017.

Ilmiy-uslubiy manbalarda loyihali ta'lim texnologiyasini to'liq ochib berilishida quyidagilarga tayanish kerakligi qayd etilgan:

- loyihalash asoslari, ahamiyati va mazmuni;
- loyihalash tamoyillari, me'yorlari hamda qoidalari;
- loyihalash maqsadi va vazifalari, undan kutilayotgan natija;
- loyihalash ishtirokchilari, ularning vazifalari hamda o'zaro hamkorligi;
- loyihalash tarkibi, uning mantiqiy tuzilishi, bosqishlari;
- loyihalash texnologiyasi, uslubi, vositalari;
- loyihalash faoliyatini tashkil etish shakli;
- loyihalash uchun zarur bo'lgan vosita va resurslar;
- loyihalash faoliyati shartlari;
- loyihalash sub'yektlariga talablar, ularni tayyorlash.⁹⁹

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda loyihalash texnologiyalari asosida darslarni tashkil etish samarali ekanligi olib borayotgan ilmiy – tadqiqot ishlarimiz o'z aksini ko'rsatmoqda.^{100 101}

Dars jarayonida ushbu pedagogik ta'lim texnologiyasini qo'llash natijasida ta'lim oluvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, ma'lum bir ish vazifani bajarish amalga oshirish, tekshirish, xulosa chiqarish va natijalarni baholash kompetensiyalariga ega bo'ladilar.


Loyiha natijasi sifatida ona tili darslarida o'quvchilar buklet, nashr ishi, elektron o'quv-ta'lim resursi shaklida taqdim etilgan, tanlab olingan, tahlil qilingan, umumlashtirilgan hamda tizimlashtirilgan axborotlar yaratadilar.

Mohiyatiga ko'ra loyihaning asosini ilmiy, ijodiy yoki nazariy xarakterga ega g'oyalar tashkil etib, ular quyidagi turlarga ajratiladi (3.1.4 - rasm):

⁹⁹ Краля Н.А. Метод учебных проектов как средство активизации учебной деятельности учащихся. Учебно–методическое пособие. Россия. Омск. 2005. 42 с.

¹⁰⁰ To'raqulov X. A. Orishev J.B.Loyihali ta'lim –ta'lim samaradorligi garovi // Ta'lim tizimida ijtimoiy -gumanitar fanlar. Ilmiy –uslubiy jurnal. Toshkent, No 3-4 , 2011 y. B.38-41

¹⁰¹ Orishev J.B.O'quv fanlari bloklari aloqadorligini ta'minlash ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili// Kasb–hunar ta'limi. Ilmiy–uslubiy jurnal. Toshkent, No 2 2012y.B.8-9.



3.1.4 – rasm. Loyiha darslari turlari¹⁰².


Loyiha ishlab chiqish yakka tartibda yoki guruhiiy bo‘lishi mumkin, lekin har bir loyiha o‘quv guruhining birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir. Bu jarayonda ta‘lim oluvchining vazifasi belgilangan vaqt ishida yangi mahsulotni ishlab chiqish yoki boshqa bir topshiriqning yechimini topishdan iborat. Ta‘lim oluvchilar nuqtai-nazaridan topshiriq murakkab bo‘lishi va u ta‘lim oluvchilardan mavjud bilimlarini boshqa vaziyatlarda qo‘llay olishni talab qiladigan topshiriq bo‘lishi kerak. Loyiha o‘rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishi, ta‘lim oluvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo‘lishi kerak.

V.P.Oveshkin tomonidan taklif etilgan “Loyiha” ta‘lim texnologiyasining *ma‘lumot yig‘ish, reja tuzish, qaror qabul qilish, loyihani amalga oshirish, nazorat qilish, xulosa chiqarish* bosqishlari¹⁰³ keltirilgan, N.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Sayfurov, A.To‘rayevlar tomonidan *ma‘lumot yig‘ish, rejalashtirish, qaror qabul qilish, loyihani ishlab chiqish, loyihani amaliyotga tatbiq etish, loyihaning amaliyotga tatbiqini nazorat qilish va amaliyot natijalariga*

¹⁰² N.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Sayfurov, A.To‘rayev. Innovasion ta‘lim texnologiyalari – Toshkent: 2015. – 208 bet.

¹⁰³ Овечкин В.П. Основы проектной деятельности: учеб. - метод. пособие / В.П. Овечкин, А.Е. Причинин. - Ижевск, 2007.

ko'ra xulosa chiqarish bosqishlari tadqiq etilgan bo'lib, ushbu olimlar tomonidan taklif qilingan bosqishlarni to'ldirgan holda quyidagi algoritmik sxemaning ijobiy samara berishi olib borilgan ilmiy–tadqiqot ishlarimiz davomida isbotlandi (3.1.5-rasmga qarang):



3.1.5-rasm. Loyihalash darsi bosqishlari¹⁰⁴.

Ona tili fanini o'qitish jarayonlarini loyihalashtirishda ta'lim mazmunini, ta'lim maqsadi, kutilayotgan natijani to'g'ri belgilash, ta'lim metodlari, shakllari va vositalarini to'g'ri tanlash, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashni aniq mezonlari oldindan ishlab chiqish, mashg'ulotga ajratilgan vaqt ichida ularni to'g'ri amalga oshirish va bir-biri bilan uyg'unlashuviga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq sanaladi.

Ona tili fani darslarini loyihalashning har bir bosqichini amalga oshirish uchun o'ziga xos talablar qo'yiladi. Jumladan, ta'lim maqsadlarini to'g'ri belgilab olish; qaralayotgan ta'lim jarayonining kutilayotgan natijasini loyihalashtirish; qaralayotgan ta'lim jarayoniga oid ma'lumotlar va ular asosidagi axborotlar tayyorlay olish hamda ularni ta'lim maqsad–vazifalariga mos tizimlarga ajratish; o'qitish

¹⁰⁴ Muallif tomonidan tadqiqot davomida ishlab chiqilgan loyihalash darsining bosqilari.

jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyasining asosiy tashkil etuvchilari orasidagi o'zaro bog'lanish qonuniyatlariga doimo e'tiborda bo'lish va boshqalar bu texnologiyaning samarali amalga oshirish garovidir.

Ona tili darslarini loyihalash bosqishlarini amalga oshirish davomida loyiha mavzusi, maqsadi va vazifalari, undan kutilayotgan natija aniq belgilanadi; o'quvchilar soni tanlanadi: o'quvchilarning yakka xoldagi yoki kichik guruhlari shakllantiriladi, ularning vazifalari hamda o'zaro hamkorlikda o'qitish jarayoni amalga oshiriladi; loyihalash faoliyatini tashkil etish shakli rejalashtiriladi; zarur bo'lgan o'quv vositalari va resurslari tayyorlanadi; loyihalash sub'yektlariga talablar ishlab chiqilib, shu asosda dars o'tkazilishi amalga oshiriladi.

Ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'limda ko'proq treninglardan foydalaniladi. **Treninglar** ta'lim oluvchilarda muayyan bilimlarni puxta o'zlashtirish, ularni amaliyotda samarali qo'llay olish ko'nikma, malakalarini shakllantirishga, bu jarayonda ularning mavjud imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarishga yordam beradi. L.A.Petrovskaya ijtimoiy psixologik treningga ta'rif berar ekan, uni quyidagicha izohlaydi: «Trening - shaxslararo munosabatlardagi bilimlar, ijtimoiy ustanovkalar, ko'nikma va tajribalarni rivojlantirishga qaratilgandir», shuningdek «Muloqotda kompetentlikni rivojlantirish vositasi hamdir»¹⁰⁵. Ya'ni, treninglar o'rganilishi lozim bo'lgan nazariy g'oya va bilimlarni amaliy ish hamda mashqlar davomida o'zlashtirish imkoniyatini beradi va dars qatnashchilardagi o'zaro hamkorlikni, samarali muloqot ko'nikmasini shakllantirishga yo'naltiriladi. Har qanday trening quyidagi bosqishlarga ajratish maqsadga muvofiq deb uylaymiz:

1. *Izyuminka* – (joziba – o'quvchilar bilan ishlashning o'ziga xos antiqa tarafi) o'quvchilarning qiziqishini uyg'otish uchun qisqa bahs boshlash, savollar berish, o'quvchilar fikrini chalg'ituvchi (provakasion) ta'kidlarni ilgari surish yoki qandaydir faoliyat turini faraz qilish bosqishi hisoblanadi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarning dastlabki bilimlari va ularning amaliy tajribalarini bog'lashga, trening ahamiyati va maqsadlarini tushuntirishdan boshlaydi.

¹⁰⁵ Петровская Л.А. Теоретические и методические проблемы социально-психологического тренинга. М.: МГУ, 1998 г.

2. Treningdan *kutilayotgan natijani* o'quvchilarga tushuntirish. Bunda o'quvchilar trening yakunida "Treningdan so'ng nimalarni bilishim va qila olishim lozim?" degan savolga javob berishlari kerak.

3. *O'qituvchi faoliyati*. Treningni tashkil etish va o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv ta'minoti va treningning mazmuni bilan o'qituvchi o'quvchilarni tanishtiradi.

4. Treningning o'zagi – *interfaol usul*. Bunda qo'yilgan masala jamoaviy muhokama qilinadi, o'quvchilar o'z fikrlarini erkin bayon etadi, masala yechimi tahlil qilinadi va o'quvchilarning bilimi baholanadi. Bu bosqishda o'qituvchi o'quvchilarning tushunganlik darajasini muntazam nazorat qilib boradi.

5. Debrifing (xulosa) baholash. Bu bosqichda o'quvchilar olgan bilimlari bo'yicha xulosa qiladilar, bir-birlari bilan o'zlashtirgan ma'lumotlarni boshqa (tanish va notanish) holatlarda qo'llashni muhokama qiladilar hamda o'qituvchi trening davomida o'quvchilar olgan bilimlari kutilgan natija bilan mos kelishini solishtiradi.

Tajribalardan kelib chiqib aytish mumkinki, treninglar uchun umumiy bo'lgan vazifalar mavjud bo'lishi mumkin emas. Chunki har bir trening o'z oldiga qo'ygan o'zining o'ziga xos va mos vazifalariga egaki, shunga muvofiq holda ham aytish mumkin-ki, treninglarda vazifa sifatida har bir tanlab olingan muammo yuzasidan ma'lum holatlar nazarda tutiladi. Lekin umumiy holda treninglarning vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Guruh a'zolarining bir-birlari bilan tanishuvini tashkil etish;
2. Guruh a'zolari bilan birgalikda normalarga amal qilishga o'rganish;
3. Guruh a'zolarining muammolarini gapirtirishga sharoit yaratish;
4. Guruh a'zolari o'rtasida o'zaro do'stona muhit yaratish;
5. Guruh a'zolarining kayfiyatini ko'tarish;
6. Guruh a'zolari o'rtasida samimiylik muhitini yaratish;
7. Guruh a'zolarining o'zaro jipsligini, ahilligini ta'minlash;
8. Guruh a'zolarining "qayta aloqa"sini ta'minlash;
9. Guruh a'zolarida turli xil hayotiy ko'nikma va malakalarni hosil qila oluvchi mashg'ulotlar tashkil etish.

Ona tili fanini o'qitishda o'qituvchi treningni boshlar ekan, o'quvchilar ongiga quyidagilarni yetkaza olishi kerak:

- trening har bir o'quvchiga albatta foydali bo'ladi va ularning bir-birlariga yordami tegadi;

- trening o'zaro muloqotning bir shakli bo'lib, har bir o'quvchi bir-biriga oshiq va samimiy munosabatda bo'lishi kerak;

- trening darslari o'quvchilarning o'zaro bilim va tajribalarini almashinishlari uchun qulay sharoitdir;

- treningda barcha o'quvchilar o'z fikrini erkin bayon etishi, noto'g'ri fikr bildirishdan qo'rqmasligi kerak;

- trening davomida qo'yilgan masala yoki vaziyat tushunarli bo'lmasa, savol berishdan tortinmang;

- o'quvchilar bilimlarini sinfdoshlaridan ayamaydi, chunki boshqalar ham bundan manfaatdor bo'lib, "yashiringan bilim - bilim emas"ligi unutmazlik lozim deb hisoblaymiz.

Ona tili fanini o'qitishda trening darslari quyidagicha

1 - sinfda diqqat va idrokni rivojlantirishga,

2 - sinfda xotirani rivojlantirish,

3 - sinfda tafakkurni rivojlantirish,

4 - sinfda nutq va xayolni rivojlantirish mashqlarini qamrab olishi mumkin.

5-sinfda kommunikativ, o'quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirishga qaratilgan trening darslarni,

6 - sinfda kreativ, o'quvchilarda ijodkorlikni rag'batlantiruvchi va rivojlantiruvchi treninglarni,

7-sinfda hissiyotlarni boshqarishga o'rgatuvchi treninglarni,

8-sinfda o'quvchilarda o'ziga bo'lgan ishonchni oshirishga qaratilgan treninglari,

9-sinfda o'quvchilar o'zligini anglash va hayotiy maqsadlarni rivojlantirish bo'yicha treninglar,

10-sinfda kasbiy o'zlikni anglash treninglari hamda

11-sinfda oilaviy hayotga tayyorlash bo'yicha treninglarni o'tkazishi maqsadga muvofiq degan xulosaga keldik.

Trening darslarini o'tkazish natijasida o'quvchilar passiv ta'lim oluvchilar bo'lib qolmasdan, balki darsda faol ishtirok etib, qo'yilgan muammoni anglaydi va ularning hayotiy vaziyatlarda qo'llashni o'rganadilar.

Bugungi kunda, bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyalar tatbiqiy asosini shaxsiy faoliyatli yondashuv, tanqidiy-ijodiy fikrlash,

muammolarni hal etish, qaror qabul qilish, *jamoada hamkorlikni qaror toptirishga oid pedagogik texnologiyalarni* ishlab chiqish ehtiyoji yuzaga kelmoqda. Bunda umumiy oʻrta taʼlim tizimi rivojining hozirgi bosqichida hamkorlik pedagogikasi muhim oʻrin tutadi. Pedagog olimlar hamkorlik pedagogikasiga «taʼlim beruvchilar va taʼlim oluvchilarning oʻzaro muloqotiga asoslangan shaklda taʼlim berishga yoʻnaltirilgan ijodiy faoliyat jarayonidir», deya taʼrif berishadi¹⁰⁶. Bu muloqotda taʼlim beruvchi va taʼlim oluvchi oʻzaro masʼuliyat sezadi, tomonlarning hamkorligi taʼlim sifatining oshishiga xizmat qiladi. Oʻqituvchining hamkorlikdagi pedagogik jarayonni tashkil etishga oid faoliyati birinchi navbatda oʻquvchilarning jamoada asosiy qadriyat sifatida oʻzlarini namoyon qilishlarini taʼminlashga yoʻnaltirilgan oʻquv-tarbiya jarayonini tashkil etish yoʻllari va usullarini izlashga qaratilishi lozim.

Oʻzbek olimi J. Boʻronov "...hamkorlikdagi taʼlim, tahsil oluvchi, oʻqituvchi va maʼmuriyat orasida doʻstona munosabat ustuvorligi asosida sifatli taʼlim berish jarayoni vujudga keladi"¹⁰⁷-deb yozadi, oʻzining "Hamkorlikda oʻqitish texnologiyalari" kitobida. Olim tahsil oluvchilarga nisbatan doʻstona munosabat muhitini loyihalashda ham oʻquvchi va oʻqituvchi orasida oʻzaro hurmat shakllangan taʼlim jarayonida partisipativ asosdagi oʻquv muhiti qaror topishini taʼkidlaydi.

Ona tili fanini oʻqitishda shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlim nazariyasi pedagogik jamoa va har bir oʻqituvchining faoliyatida oʻz aksini topishi kerak. XXI asrga kelib taʼlim tizimi oldiga yangicha shaxsiy sifatlarga ega boʻlgan oʻquvchi, yaʼni fenomen (favqulodda qobiliyatli shaxs)ni shakllantirish vazifasi qoʻyildi. Hamkorlikka asoslangan shaxsga yoʻnaltirilgan oʻquv jarayonini tashkil etish bugungi kunda taʼlim tizimi oldiga qoʻyilgan ijtimoiy buyurtmaning asosini tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda, oʻquvchining oʻz-oʻzini rivojlantirish, fan-texnika yutuqlarini egallashga boʻlgan ehtiyojini qondirish, oʻqitish jarayonida unga insonparvar yondashuv zarurligini talab qilmoqda.

Oʻtgan asrning 70-yillarida amerikalik olim J.Dyui hamkorlikda oʻqitishda natijalarni oldindan koʻra bilish, amaliy faoliyatni tashkil

¹⁰⁶ Hasanboyev J., Toʻraqulov X. Pedagogika nazariyasi fanidan izohli lugʻat. - T.: «Fan», 2008. - 182-b.

¹⁰⁷ Boʻronov J. Hamkorlikda oʻqitish texnologiyalari.

etish g'oyasini hamda pragmatizm nazariyasi ilgari surdi. Hamkorlik pedagogikasini novator-pedagoglar (Sh.A.Amonashvili, I.P.Volkov, Ye.N.Ilin, S.N.Lisenko, V.F.Shatalov va boshqalar) pedagogik jarayon ishtirokchilari (o'qituvchi va o'quvchilar) o'rtasidagi insonparvarlik tamoyiliga asoslangan o'zaro munosabatlar tashkil etishi zaruratini ta'kidlaydilar. Hamkorlik pedagogikasi uchun konseptual ahamiyatga ega qoidalar A.Avloniy, A.S.Makarenko, Ya.Korshak, J.J.Russo, K.Rodjers, B.A.Suxomlinskiy, K.D.Ushinskiy va boshqalarning pedagogik qarashlarida o'z ifodasini topgan. Pedagogik hamkorlik g'oyalari bugungi kunda pedagogik texnologiyalar mazmuniga singdirilgan va «XXI asr ta'limi konsepsiyasi» asosini tashkil etadi.

Hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasi nimanidir birgalikda bajarish emas, balki birgalikda o'qishdir. Hamkorlik ta'limi pedagog va o'quvchilarni ta'limiy faoliyat jarayonida birgalikda rivojlanishi, bir-birini chuqur tushuna olishi, bir-birlariga nisbatan qalban yaqinlikni his qilishi, faoliyat bosqichlari va shu bosqishlarda erishilgan natijalarni hamkorlikda tahlil qilishdan iborat bo'lib, ilg'or, rivojlantiruvchi g'oyalarni o'zida aks ettirishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.¹⁰⁸

Hamkorlik pedagogikasining to'rtta asosiy yo'nalishi mavjud:

1. Insonparvarlikka asoslangan yondashuv.
2. Didaktik faollashtiruvchi va rivojlantiruvchi majmua.
3. Tarbiya konsepsiyasi.
4. Atrof-muhitni pedagogizatsiyalash (tarbiyaviy faoliyat).¹⁰⁹

Ona tili darslarida hamkorlikda o'qitish o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar guruhi, yakka tartibda, jamoa bilan o'zaro samarali hamkorlikni tashkil qilishi, o'quvchilarning o'zaro qo'llab-quvvatlovchi hamkorligini amalga oshirishdagi interfaol jarayon hisoblanadi. O'quvchilar topshiriqlar ustida kichik guruhlarda hamkorlikda ishlaydilar va o'zlariga hamda o'z guruhlaridagi o'rtoqlariga birgalikda yordam beradilar. Ona tili fanini o'qitishda hamkorlik ta'limi ush bosqish asosida amalga oshiriladi (3.1.1-jadvalga qarang).

¹⁰⁸ Dilova N.G'. O'quvchi shaxsini rivojlantirishda hamkorlik pedagogikasining o'rni. Zamonaviy ta'lim, 2017, №1. –B. 50-55

¹⁰⁹ Abdullayeva O'. Pedagogika. – T.: TDPU, 2015. -45-b.

3.1.1-jadval

Hamkorlik ta'limi bosqishlari¹¹⁰

Tayyorgarlik bosqichi.	O'quvchilar ta'lim jarayonini tashkil etishga tayyorgarlik ko'radilar. Bunda ma'lumotlar oldindan o'rganiladi, muammoli vaziyatlar sodir bo'lishi mumkinligini bilgan holda muqobil usullardan foydalanish e'tiborga olinadi, jihozlar va o'quv xonasi tayyorlanadi.
Amalga oshirish bosqichi.	Ta'lim jarayonini amalga oshirishda (ya'ni guruh ishini tashkil etishda) muammoni guruhlar ishtirokida hal etish yo'llarini ishlab chiqish va eng maqbullarini tanlash.
Yakuniy bosqich.	Ta'lim jarayonining borishi va uning yakunlarini tahlil qilish, xulosalash.

Ona tili fanini o'qitishda hamkorlik darslarida shaxsga yangicha qarash ta'lim berishning maqsadi sifatida, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayonining shaxsga yo'naltirilganligi; o'quvchining qiziqishlari va layoqati inobatga olinganligi; barcha tarbiyaviy tizimlar markazida o'quvchi shaxsini qo'yilganligi hamda oila, maktab va ijtimoiy borliq o'sib kelayotgan avlodni shakllantiruvchi muhim ijtimoiy institutlar sifatida namoyon bo'ladi. Hamkorlik usuli asosida tashkil etilgan ona tili darslarida o'quv topshiriqlari birgalikda bajarilibgina qolmay, shu bilan birga o'quvchilarni hamkorlikda o'qishga o'rgatiladi. O'quvchilar o'rtasida hamkorlik, o'zaro yordam, fikr almashish jarayoni vujudga keltiriladi. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasidan unumli foydalanish bilimi kuchli va bilimi o'rtacha o'quvchilarni zaif o'quvchilar bilan hamkorlikda o'qishga o'rgatadi. O'quvchi-yoshlar o'rtasida hamkorlik, o'zaro yordam, fikr almashish jarayoni vujudga keltiriladi degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalash masalalarini ijobiy hal etishda o'quvchilar bilan ilmiy-tadqiqot faoliyatninig *anjuman darslarining* o'rni kattadir. Anjuman darslari passiv tafakkurni emas, balki nimani xohlashini biladigan va unga qanday erishishni

¹¹⁰ Dilova N.G'. O'quvchi shaxsini rivojlantirishda hamkorlik pedagogikasining o'rni. Zamonaviy ta'lim, 2017, №1. –B. 50-55

tushunadigan faol, ijodiy shaxsni tarbiyalashda noyob imkoniyatni beradi.

Darsning ushbu shakli uchun nazariy mavzu tanlanadi, biroq bu mavzu o'quvchilar uchun mustaqil ravishda o'zlashtirishda qiyinchilik tug'dirmasligi kerak.


Anjuman darslari asosan o'rta va yuqori sinflarda tashkil etilib, ularni tashkil qilishda biz umumiy didaktik tamoyillarni hisobga olib, ular orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin: shaxsga yo'naltirilganlik tamoyili, o'zaro ta'sir tamoyili, erishimlilik tamoyil; maqsadga muvofiqlik tamoyili; ilmiylik tamoyil; madaniy muvofiqlik tamoyili; o'quvchilar va o'qituvchi o'rtasida hamkorlik tamoyili; muvaffaqiyat tamoyili va differensiallashuv tamoyili.

Anjumanning nostandart dars sifatida o'ziga xos xususiyati shundaki, o'quvchilar bilimlarni asosan uyda o'rganilgan adabiyotlardan, shuningdek sinfdoshlarining hisobotlaridan oladilar hamda o'quvchilar barcha hisobotlarni o'qituvchi tomonidan tuzilgan algoritm bo'yicha mustaqil ravishda tayyorlaydilar. Ushbu turdagi darsda ma'ruza qiladigan o'quvchilar sinfdoshlarning psixologik xususiyatlarini, o'zlarning notiqlik qobiliyatlarini hisobga olgan holda taqdimotlar o'tkazadilar. O'qituvchining vazifasi o'quvchilar tomonidan ma'ruzalar va taqdimotlar bilan darslarni tashkil etish, o'quvchilar taqdim etgan materiallarni to'ldirish va ularga aniqlik kiritish, o'quvchilarning ishlarini baholash va anjuman natijalarini umumlashtirishdan iborat bo'ladi.

A. I. Bugayev tomonidan olib borilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, "anjumanga yangi o'rganilayotgan hodisalar, jismlarning xususiyatlari, qonunlari va nazariyalarini olib chiqish mantiqsizdir"¹¹¹, ya'ni tushunchalarning dastlabki shakllanishi bilan bog'liq ma'lumotlarni anjuman darsi mavzusiga kiritish darsning samaradorligini pasayishiga olib keladi. Tadqiqot davomida o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini inobatga olgan holda, anjuman darslarida kashfiyotlar va ixtirolar tarixini, ishlab chiqarishda fizik qonunlarning qo'llanilishini, asbob va texnik qurilmalar tuzilishini, ya'ni o'quvchilar o'zlari demontaj qila oladigan materialni ko'rib chiqish eng samarali yo'nalishlardan hisoblanadi degan xulosaga keldik.

¹¹¹ Бугаев А. И. Методика преподавания физики в средней школе. – М., Просвещение, 2001г.

Ona tili fanini o‘qitishda anjumanga tayyorgarlikni quyidagi mantiqiy ketma-ketlikdagi bosqichlarda tashkil etish maqsadga muvofiqligi tajriba sinov ishlari davomida isbotlandi (3.1.6-rasmga qarang):



3.1.6-rasm. Anjuman darsining bosqichlari.¹¹²

Ona tili fanini o‘qitishda o‘quvchilar anjuman darslarida taqdimotlar va namoyishlar o‘tkazadilar. Ma’ruzalar ushbu turdagi darsning asosi hisoblanadi. Ma’ruzani tayyorlash uchun qo‘shimcha adabiyotlar - ilmiy-ommabop kitoblar va jurnallar, gazetalar asos bo‘ladi.

Anjumanlarni an’anaviy darsdan *taqdimot darslariga* o‘tish shakli sifatida ko‘rib chiqishimiz mumkin.

Hozirgi davrda o‘quv materialini vizual texnologiya asosida taqdim etish muammosini hal qilish sifat jihatidan axborotlashgan jamiyat talablari asosida amalga oshirilishi lozim. Nafaqat o‘quv materialini aks ettiradigan, balki o‘quvchilarning aqliy va bilim faolligini yuksaltirishga yordam beradigan bunday didaktik ko‘rgazmalilik vositalardan foydalanish hozirgi davrda ta’lim jarayonining eng zaruriy talablaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Bugungi kunda ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etishda, aniq va tabiiy fanlarni bo‘yicha taqdim etilayotgan bilimlarni o‘quvchilar yuqori darajada o‘zlashtirishlarida taqdimotlardan samarali foydalanish tajribasi to‘plandi. Taqdimot darslari o‘quvchilarda o‘quv faoliyatini tashkil etishga ijodiy


¹¹² Muallif tomonidan tajriba ishlari davomida shakllantirilgan.

yondashish, o‘z ustida ishlash, mustaqil ta‘lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Taqdimot (prezentatsiya) – aniq mavzu bo‘yicha ma‘lumotni taqdim etishning umum qabul qilingan usuli hisoblanadi.

Taqdimot metodni qo‘llashda mavzuning asosiy g‘oyalari, tayanch tushunchalari, muhim xususiyatlari kichik matn, jadval, tasvir, sxema, rasm va diagrammalar asosida yoritiladi. Ushbu metod o‘quvchilarda mavzu mazmunini obrazli, yaxlit tarzda o‘zlashtirish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Taqdimot maqsadi o‘quvchilarning saviyasi, dunyoqarashi, bilimiga bog‘liq holda turli xususiyatlarga ega bo‘lib, uni bir necha turlarga bo‘lish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz (3.1.7-rasmga qarang).



3.1.7-rasm. Taqdimot turlari.¹¹³

Yuqoridagilardan tashqari taqdimotning boshqa turlari ham mavjud bo‘lib, ularning barchasi mavzu (ob‘yekt) to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni tinglovchilarga yetkazish uchun xizmat qiladi.

Turli mavzular sohalari bilimlarining tabiati va xususiyatlarining sezilarli farqlari tufayli vizual tizimlashtirishning bir qator metodlari mavjud. “Neyropsixologiya yutuqlariga ko‘ra, o‘rganish odam miyasining imkoniyati qonuniyatlarni belgilash orqali ma‘noni

¹¹³ Muallif tomonidan tadqiqot davomida ishlab chiqilgan taqdimot turlari.


izlashdagi intellektual qiyinchiliklarni bartaraf etish orqali rivojlanganda samarali bo'ladi"¹¹⁴

Shunday qilib, ona tili fanini o'qitishda o'quv materialining vizual ko'rinishda taqdim etilishi, o'quv materialini jadal o'zlashtirishga va o'quvchilarning o'quv bilish faoliyatini faollashtirish imkonini beradi. Ushbu yondashuv o'qituvchilardan an'anaviy vizual o'qitish vositalarini o'zgartirishi lozimligini talab qiladi hamda mashg'ulot jarayonida namoyish(taqdimot)lardan foydalanish darsni faol o'qitish usullari toifasiga kiritib, o'quvchilarni faol o'quv-bilish faoliyatiga jalb qilish orqali bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, o'quvchilar tomonidan axborotni qabul qilish va idrok etish jarayonini sezilarli darajada takomillashtirish imkonini beradi.

Ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'nalitirilgan ta'lim texnologiyalardan *rolli (yoki ishbilarmonlik) o'yin darslaridan* foydalaniladi. Pedagogik o'yinlar yangi o'quv materialini asosini o'zlashtirish, mustahkamlash, o'quvchining ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'nikma, malakalarini shakllantirish kabi masalalarni yechishga qaratiladi. Ular yordamida o'quvchilar turli holatlarda o'quv materialini tushunish, uning negizida ma'lum ko'nikma, malaka va sifatni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

D.B.Elkoninning fikriga ko'ra, rol va uni amalga oshirishga tegishli harakatlar o'yin birligini tashkil etadi (3.1.8-rasmga qarang).

¹¹⁴ Бабаева В.В. Реализация инновационных технологий в процессе подготовки будущих преподавателей профессионального образования // Молодой ученый, 2012. № 8. С. 307. [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://moluch.ru/archive/43/5169/> (дата обращения: 14.04.2018).



3.1.8-rasm. D.B.Elkoninning Rolli o'yini" ta'lim texnologiyasining tuzilmasi¹¹⁵.

Bunda o'quvchi shunchaki u yoki bu rolni o'z zimmasiga olmaydi, ("men onaman", "men haydovchiman", "men shifokorman") u bu rolda kattalar kabi harakat qiladi. O'yin harakatlari – bu rol amalga oshiriladigan harakatlarni, o'yin ob'yektlaridan foydalanish – haqiqiy ob'yektni o'yin ob'yekti bilan almashtirishni bildiradi. Syujet – bu xayoliy vaziyat, ya'ni o'yinda stimulyasiya qilingan, takrorlangan haqiqiy soha (oila, kasalxona, do'kon, qurilish va hokazo). O'yin qoidalari rolli o'yini uchun xayoliy vaziyat, o'quvchi o'z zimmasiga olgan rol bilan bog'liq qoidaga bo'ysunish bilan ifodalanadi. Qoidalar xayoliy vaziyatdan kelib chiqadi. Agar o'quvchilar "do'konda" o'ynasa va o'quvchi sotuvchi rolni o'ynasa, demak, u sotuvchi kabi o'zini tutish qoidalariga rioya etishi lozim bo'ladi. O'ynayotgan o'quvchilar o'rtasidagi real munosabatlar – bu birgalikdagi o'yin faoliyatida sherik sifatida o'zaro munosabatlardir. Haqiqiy munosabatlarning funksiyalariga o'yinlar syujetini rejalashtirish, rollarni va o'yin buyumlarini taqsimlash, syujetning rivojlanishini boshqarish va tuzatish hamda sinfdosh-sheriklar tomonidan rollarni bajarish kiradi.¹¹⁶

Mashhur pedagog G.K.Selevko pedagogik o'yinlarni quyidagi tartibda tasniflagan:

¹¹⁵ Эльконин Д.Б. Детская психология. – М.: Академия. 2011

¹¹⁶ Эльконин Д.Б. Детская психология. – М.: Академия. 2011.

A) faoliyat mohiyatiga ko‘ra: jismoniy, intellektual, mehnat, ijtimoiy, psixologik;

B) pedagogik jarayonning xarakteriga ko‘ra: o‘rgatuvchi, mashqlantiruvchi, nazorat qiluvchi, umumlashtiruvchi; ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi; produktiv, reproduktiv, ijodiy; muloqotga asoslangan, tashxislovchi, kasbga yo‘naltiruvchi, psixologik-texnik;

V) o‘yin metodikasiga ko‘ra: didaktik, syujetli, rolli, ishbilarmonlik, imitatsion, dramatik;

G) fan sohalariga ko‘ra: matematik, biologik, kimyoviy, fizik, ekologik; musiqiy, sahna ko‘rinishi, bidiiy; mehnat, texnik, ishlab chiqarishga doir; jismoniy, sport, xarbiy, sayyohlik, xalqona; ijtimoiy, boshqaruv, iqtisodiy, tijorat xarakterdagi;

D) predmetli, predmetsiz; stol o‘yinlari, xona o‘yinlari, ko‘sa o‘yinlari, joy bilan bog‘liq o‘yinlar; kompyuter, televizion, texnik vositalarga asoslangan o‘yinlar; texnik, harakatni ta’minlovchi o‘yinlar.¹¹⁷

Bizning fikrimizcha, yuqorida G.K.Selevko tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik o‘yinlar tasnifini ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilganligiga (individuallashtirilgan o‘yinlar, guruh o‘yinlari, jamoa o‘yinlari) ko‘ra degan band bilan to‘ldirish lozim. Chunki shaxsga yo‘naltirilgan rolli (ishbilarmonlik) o‘yinlari o‘quvchilarni yakka tartida va jamoaviy bo‘lib muayyan jarayonga tayyorlash, ularda ma’lum hayotiy voqelik, hodisalar jarayonida bevosita ishtirok etish uchun dastlabki ko‘nikma-malakalarni hosil qilishga xizmat qiladi.

O‘quvchilarning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari, ular tomonidan o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda duch kelayotgan muammolar, o‘quvchilarning bilim, dunyoqarash, o‘quv fanining imkoniyatlarini inobatga olgan holda tashkil etiladigan ta’lim - **dasturli o‘qitish** deb hisoblaymiz.

Ona tili fanini o‘qitishda dasturlashtirilgan ta’lim o‘quvchilarga muayyan bilimlarni qismlarga bo‘lib taqdim etilishi asosida ta’lim jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Dasturlashtirilgan ta’lim mazmunida uning maqsadlari, baholash mezonlari ta’lim jarayoni mohiyatining aniq tavsifini ko‘rsatuvchi ko‘rsatgichlar ekanligiga alohida o‘rin ajratiladi.

¹¹⁷ Селевко Г.К. Энциклопедия образовательных технологий. В 2-х т. Т. 1. – М.: Народное образование, 2005.

Texnologik yondashuv va uning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan dasturlashtirilgan o'qitishda o'qituvchining asosiy funksiyasi ta'lim jarayonini boshqarish hisoblanadi. Bunda:

1. Nazorat natijalari o'quv jarayonining samaradorlik darajasining ko'rsatkichlaridir.

2. O'quv maqsadiga erishilmaganligi – o'quv jarayonini tashkillashtirishda xatoga yo'l qo'yilganligining belgisidir. Bunday hollarda o'quv jarayoniga zaruriy o'zgartirishlar kiritish lozim.¹¹⁸

Dasturlashtirilgan o'qitishni, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi bevosita muloqotning sub'yektiv omilini maksimal imkonlikda bartaraf etish bilan o'qitish jarayonini formallashtirishga bo'lgan urinish deb qarashimiz mumkin.

Ona tili fanini o'qitishda o'quvchilarning yosh psixologiyasini inobatga olgan holda dasturlashtirilgan ta'limni quyidagi tamoyillar asosida tashkil etish lozimligi tadqiqot davomida asoslandi:

- *Ma'lumotlilik tamoyili.* Ona tili fanini o'qitishda bilim oluvchiga albatta yangi ma'lumot berilishi kerak.

- *O'quvchi faolligini ta'minlash tamoyili.* Ona tili fanini o'qitishda o'quvchining faolligini ta'minlab berishi kerak. Ushbu faollik ma'lumotni ishlab chiqish bilan bog'liq.

- *Kichik bosqichlar tamoyili.* Ushbu tamoyilga muvofiq, ona tili fanidan o'quv materialini imkoni boricha kichik bosqichlarga bo'lish lozim, chunki kattalarga qaraganda, ularni o'quvchilar oson egallaydi.

- *Tezkor javobni tasdiqlash tamoyili.* Ushbu tamoyilga muvofiq dasturlashtirilgan matn dasturda joylashgan savolga javobdan keyin oq birdaniga o'quvchi o'zining javobini to'g'risi bilan taqqoslab to'g'ri javob berganligini tekshirish imkonini beradi. Javoblar to'la mos kelgandagina o'quvchi materialni o'rganishda davom etadi.

- *O'qishni individallashtirish tamoyili.* Bu tamoyil o'quvchilar o'zi uchun optimal bo'lgan ishlash shakllarini tanlab oladi, chunki faqat shundagina ular o'qishda tegishli natijalarga erisha oladilar.

- *Qiyinchiliklarni bosqichma-bosqish oshirish tamoyili.* Unga ko'ra ona tili fanini o'qitishda o'quvchilarga ko'mak bosqichma-

¹¹⁸ Xurramov A.J., Mamadaliyev K. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda dasturlashtirilgan o'qitishning o'rni va ahamiyati // Respublika ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarni tabiiy-ilmiiy fanlarni o'qitish jarayoniga tatbiq etish muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T., 2015. – B. 308-310.

bosqish kamayib boradi, natijada dasturning qiyinlik darajasi ortib boradi.

- *Bilimlarni mustahkamlashda diffrensiyalashtirish tamoyili.* Ushbu tamoyilda ona tili fan dasturi matnidagi mavjud har bir umumlashmani turli mazmun kontekstlarda bir necha bor takrorlash va sinchiklab tanlab olingan namunalarning yetarli miqdori yordamida illyustratsiyalashtiriladi.

Shunday qilib, dasturlashtirilgan ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ilmiy jihatdan asoslangan hamda kutilgan natijaga erishishni ta'minlovchi pedagogik jarayonning barcha bosqish va qismlarining vazifalari aniq belgilangan tizimni ifodalaydi.

Maktab va har bir ona tili fani o'qituvchisining vazifasi bolaning shaxsini iloji boricha o'zini o'zi anglashi, o'z qobiliyatlarini, shu jumladan intellektual qobiliyatini rivojlantirishga imkon beradigan sharoitlarni yaratishdir. ***Tanqidiy fikrlash texnologiyasidan*** foydalanish ushbu muammolarni hal qilishda va maktab o'quvchilarining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishni maksimal darajada rag'batlantiradigan sharoitlarni yaratishda yordam beradi. Tanqidiy fikrlash-bu fikrlashning alohida turi bo'lib, faktlarni tahlil qilish orqali xulosalar hosil qiladi¹¹⁹

I.G.Agapovning fikriga ko'ra, tanqidiy fikrlash – o'quvchilarda matn bilan ishlash malakasini rivojlantirish, og'zaki va yozma nutqning barcha ko'rinishlarini egallash, muayyan matn bo'yicha tengdoshlari bilan fikr almashuv (muloqot malakalari, guruh bilan ishlash malakalari)ga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyadir.¹²⁰


Ushbu texnologiya ona tili fanini o'qitishda munozarali masalalarni hal etishda, baxs-munozaralar o'tkazishda yoki mavzuni mustahkamlashda o'quvchilarning mavzu bo'yicha bilimlarini tekshirish maqsadida qo'llanish mumkin. Chunki bu texnologiya o'quvchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, oshiq holda bahslashishga, shu bilan qatorda o'quvchilarni o'quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishda, qay

¹¹⁹ O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi T-2011

¹²⁰ Агапов И.Г. Теоретические основы технологического обеспечения развития общих компетенций обучающихся в школе. Дисс. Москва – 2001.

darajada egallaganliklari baholash va bahslashish madaniyatiga o'rgatadi.¹²¹

Ona tili fanini o'qitish bo'yicha tajriba sinov ishlarini tashkil etish davomida, biz tanqidiy fikrlash texnologiyasini quyidagi bosqishlarda amalga oshirish tajriba guruhlarining ta'lim sifati samaradorligini ta'minlashini isbotladik (3.1.9-rasmga qarang):



3.1.9-rasm. Tanqidiy fikrlash texnologiyasi.¹²²

1-bosqich. O'qituvchi tomonidan o'quvchilar bilan birga bahs mavzusini yoki muhokama etilishi kerak bo'lgan muammoni, yoki o'rganilgan bo'limni belgilab oladi va o'quv mashg'ulotida avval har

¹²¹ Ishmuhamedov R.Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar T-2013

¹²² Muallif tomonidan tajriba sinov ishlari davomida ishlab chiqilgan.

bir o‘quvchi yakka tartibda ishlashi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib borilishi va nihoyat dars oxirida jamoa bo‘lib ishlanishi haqida o‘quvchilarga ma’lumot beradi, mashg‘ulot davomida har bir o‘quvchi o‘z fikrini erkin holda to‘liq bayon etishi mumkin ekanligi eslatib o‘tiladi.

2-bosqich. O‘quvchilar uchun mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda umumlashtirilgan fikr o‘rtaga tashlanadi. (Masalan: Ibtidoiy odamlarni qo‘rquv birlashtirdi¹²³). Har bir o‘quvchilar FSMU texnologiyasining 4 ta bosqishi asosida o‘z fikrlarini daftarga yozma bayon etadi.

3-bosqich. Har bir o‘quvchi o‘z qog‘ozlarini to‘ldirib bo‘lgach, o‘qituvchi ularni kichik guruhlariga bo‘ladi va har bir guruhga FSMU texnologiyasining 4 ta bosqishi yozilgan katta formatdagi qog‘ozlarni tarqatadi hamda kichik guruhlariga har birlari yozgan qog‘ozlardagi fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirgan holda yozishlarini taklif etadi.

4-bosqich. Kichik guruhlarda avval xar bir o‘quvchi o‘zi yozgan har bir bosqishdagi fikrlari bilan guruh a‘zolarini tanishtirib o‘tadi. Guruh a‘zolarining barcha fikrlari o‘rganilgach, kichik guruh a‘zolari ularni umumlashtirishga kirishadi va FSMU ning har biri bo‘yicha umumlashtirib, uni himoya qilishga tayyorgarlik ko‘radi. Fikrlarni umumlashtirish vaqtida har bir o‘quvchi o‘z fikrlarini himoya etishi, isbotlanishi mumkin.

5-bosqich. Kichik guruhlar umumlashtirilgan fikrlarini himoya qiladilar: guruh spikeri (sardori) har bir bosqish bo‘yicha javoblar bilan tanishtiradi (iloji borisha izoh bermagan holda), ba’zi bo‘limlarni isbotlashi, ya’ni guruhlarining aynan nima uchun, shu fikrga kelganini aytib o‘tishi mumkin.

6-bosqich. O‘qituvchi spikerlarning javoblarini umumlashtiradi, bildirilgan fikrlarga o‘z munosabatini bildiradi hamda darsga yakun yasaydi. Bunda:

- dalillarni aniq hisobga olish;
- olingan natijalarga tayangan holda yangi mavzu yoki o‘quv vaziyatini rejalashtirish;

¹²³ Sagdullayev A.S. Kostasliy V. A. Tarix (Qadimgi dunyo) T-2022

- o'quvchilarning o'zlashtirishlari uchun qulay bo'lgan axborot va dalillarni tizimlashtirish;

- tanqidiy fikrlashga mos kelmaydigan mezonlar va xulosalardan voz keshish;

- o'qituvchi o'zining tajribasi, nuqtai nazari va qarashi doirasida ta'lim oluvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirishga yo'naltirilgan yangi o'quv vaziyatlarini tashkil etishi nazarda tutiladi.

Ona tili fanini o'qitishda o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish uchun darslarda syujetli matnlar, hikoyalar hamda ertaklar yozish haqida topshiriqlar berish lozim deb hisoblaymiz. Ayniqsa, syujetli matnlar yozdirish haqidagi topshiriqlar muhim ahamiyatga ega. Bunday topshiriqlar o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lishi bilan bir qatorda, ularda tanqidiy fikrlashni shakllantirish nuqtai nazaridan juda foydali hamdir.

Shunday qilib, ona tili fanini o'qitishda tanqidiy fikrlashni shakllantirishga yo'naltirilgan texnologiyalar yalpi ta'lim jarayonini o'zaro hamkorlik, birgalikda rejalashtirish, fikrlash asosida amalga oshirilishini ta'minlashi tajriba-sinov ishlari davomida o'z tasdig'ini topdi hamda bu texnologiyalar yordamida o'quvchilarda mustaqil tanqidiy fikr shakllantirilishi isbotlandi.

Bugungi kunda zamonaviy mehnat bozorining harakatchanligi, vakolatlarning moslashuvshanligi, hayot davomida o'rganishga tayyorligi va qobiliyatini talab qiladigan o'zgarishlar, taraqqiyot bilan bog'liq holda ijtimoiy buyurtma – jamiyat, davlat talablari o'zgarishi o'qituvchi oldiga yangi maqsadlarni qo'yimoqda. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchilar uchun mustaqil ishlashga, faol aqliy faoliyatga sharoit yaratishi lozim. O'qituvchining vazifasi nafaqat zarur fazilatlarni shakllantirish yoki rivojlantirish, balki bola o'sib-ulg'aygan va yetuk shaxs sifatida jamiyatda munosib o'rin egallashi mumkin bo'lgan muhit bilan o'zaro aloqada bo'lishini ham ta'minlashdir. YUNESKO tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha xalqaro ta'lim konsepsiyasida "Butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish" dolzarb vazifa sifatida belgilangan bo'lib, unda innovatsion texnologiyalar qatoridan o'rin olgan o'quv-didaktik axborotlarni o'zlashtirishning pedagogik, psixologik va metodik xususiyatlarini

o‘rganish bilan birga *gymifikatsiya* texnologiyalaridan foydalanish masalalari yetakchilik qilmoqda.

“Gymifikatsiya – ta’lim jarayonini o‘yin elementlari bilan boyitish orqali o‘quvchilarning faolligini oshirishga qaratilgan yondashuv” – degan fikrdamiz. Gymifikatsiya ta’lim jarayonida o‘quvchilarning shaxsiy qiziqishlarini hisobga oladi va bilimlarni o‘zlashtirishni soddalashtiradi.

Ona tili fanini o‘rganishda o‘quvchilarning qiziqishini oshirish hamda ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda gymifikatsiya samarali yondashuv bo‘lib, u lug‘at boyligini rivojlantirishga yordam beradi, grammatik qoidalarni qiziqarli usullarda o‘zlashtirishni ta’minlaydi, matn tahlili va insholar yozish ko‘nikmasini oshirishga xizmat qiladi. Gymifikatsiyani ona tili darslarida qo‘llash uchun quyidagi uslublar va o‘yin elementlaridan foydalanish mumkin:


Ballar va mukofotlar tizimi: o‘quvchilar darsdagi faolligi uchun ballar yoki “oshkolar” yig‘adilar; ballar orqali turli darajalarni oshish yoki mukofotlar qo‘lga kiritish imkoniyati yaratiladi.

Viktorina va test o‘yinlari: “So‘zlarni toping”, “Gaplarni tugating” yoki “Kim zukko?” kabi viktorinalarni tashkil qilish; matndan turli so‘zlarni topish va ularni lug‘atga kiritish.

Kvestlar (missiyalar): dars mavzusiga oid missiya yoki vazifalarni bajarish (masalan, matnni tahlil qilish yoki uning asosiy g‘oyasini topish); o‘quvchilar guruhlariga bo‘linib, har bir missiya uchun o‘z hissalarini qo‘shadilar.

Mozayka va pazzllar: matnning turli qismlarini to‘g‘ri joylashtirish; lug‘atdan so‘z topish o‘yinlari.

Ona tili darslariga gymifikatsiyani joriy etish, o‘yinni ta’lim muhitiga kiritish jarayoni ko‘p bosqichda tashkil etilishi lozim, degan xulosaga keldik (3.1.10-rasmga qarang).



3.1.10-rasm. Geymifikatsiya darsining bosqishlari.¹²⁴

Bu bosqichlarni quyidagicha izohlaymiz:

Birinchi bosqichda sinf (bizning tadqiqot ob'yektimiz – boshlang'ich sinf o'quvchilari) tashkiliy moslashtirishdan boshlash lozim. Bunda boshlang'ich sinf (nechanchi sinf) o'quvchilari uchun, qaysi fan va qaysi mavzular o'quv rejaga muvofiq belgilab olinishi kerak.

Ikkinchi bosqichda o'quv maqsadlarini aniqlashtiriladi, masalan, yangi so'zlar o'rganish, yangi mavzuni o'qish, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, takrorlash darsi yoki nazorat darsi kabi. Shuningdek, ta'lim turi va dars shakli, uning qayerda o'tkazilishini ham aniqlash lozim. Bunda onlayn, aralash yoki oflayn darslar, balki qo'shma darslarni ham nazarda tutish lozim. Shuningdek, o'rganishdagi dinamikaga to'sqinlik qiluvchi omillarni aniqlash o'qituvchiga o'quv maqsadlarini aniqlashga va o'quv dasturida o'yin elementlarini joylashtirishni tuzishga imkon beradi.

Uchinchi bosqichda o'qituvchi o'quv maqsadlari asosida shakllantirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malaka, kompetensiyalarga tayangan holda tajrib ballari tizimini ishlab chiqishi lozim. Bunda bajariladigan o'yin elementlarining oddiydan murakkabgacha bo'lgan darajalariga qarab, ballar tizimini ishlab chiqish zarur bo'ladi.

To'rtinchi bosqichda o'qituvchi resurslarni taqdim etishi lozim. Bunda, oldindan mavjud bo'lgan yoki aynan shu mavzu uchun aynan maxsus ishlab chiqilgan adaptiv, ya'ni, murakkabdan juda oddiygacha bo'lgan o'yinlarni aniqlash lozim.

¹²⁴ Tadqiqot natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan va taklif qilingan.

Beshinchi bosqichda o‘qituvchi o‘yin strategiyalarini amalga oshiradi. Albatta, o‘yin strategiyalarining bajarilishi asosida tajriba ballari berilishi va yakunda ushbu ballarni baho tizimiga aylantirish lozim bo‘ladi.

Bunda, geymifikatsiyalangan ona tili fanini o‘qitishda hal etilishi zarur bo‘lgan vazifalar negizida quyidagilar namoyon bo‘ldi (3.1.2-jadvalga qarang):

3.1.2-jadval

Ona tili fanini o‘qitishda geymifikatsiyaning pedagogik imkoniyatlari¹²⁵

Maqsadlar	Vazifalar	Natijalar
Ta’lim berish	O‘quvchilar ongida tinglab tushunish, so‘zlash, o‘qish, yozish, fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksika, grammatikaga oid tushunchalarini hosil qilish.	1. o‘quvchilar tushunchalarni puxta o‘zlashtiradilar; 2. o‘quvchilar muammoning mohiyatini anglaydi va idrok etadilar; 3. o‘quvchilarda muammoga doir bilimlarni amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmalari shakllanadi.
Tarbiyalash	O‘quvchilarda o‘yin elementlari orqali bilimlarni o‘zlashtirish, axborotlarni izlash, umumlashtirish, saralash, qayta ishlash va ulardan foydalanish, foydali va zararli ma’lumotlarni ajrata olish, foydali axborotni ahamiyatini to‘g‘ri	1. o‘quvchilar har bir o‘yin negizida singdirilgan ma’lumotni g‘oyaviy jihatdan tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar; 2. o‘quvchilar o‘yinlarni muayyan mezonlar asosida baholay oladilar;

¹²⁵ Tadqiqot natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan va taklif qilingan.

	<p>baholash, zararli ma'lumotlarni keltirib chiqaradigan ma'lumotlarni oqibatlarini bashoratlash, o'yinlardan to'g'ri foydalanish, ona tili fani asoslarini o'zlashtirish bo'yicha ko'nikma, malakalarini hosil qilish.</p>	<p>3. o'yin mazmuniga singdirilgan ibora, tushunchalarni ularning g'oyaviy va amaliy nuqtai nazaridan maqsadli, o'rinli va samarali qo'llaydi.</p>
<p>Rivojlantirish</p>	<p>O'quvchilarni o'yinlardan ijodiy foydalanish malakasiga ega bo'lishni ta'minlash, o'quvchilar tomonidan milliy g'oya, ma'naviyat, mentalitet mazmuniga mos ravishda qadriyatlari tizimi, shaxsiy fazilatlari va xislatlarini belgilab olishlarini ta'minlash.</p>	<p>1. o'yinlar orqali berilayotgan tushuncha va iboralardan o'z ichki imkoniyatini tshla namoyon qilish maqsadida foydalanadi; 2. nazariy va amaliy jihatdan o'yinlarda foydalanilayotgan tushuncha va iboralar tahlil qila oladilar (masalan, matnni tahlil qila oladilar, uning asosiy g'oyasini topa oladilar).</p>
<p>Kompetensiyani shakllantirish</p>	<p>O'yin elementlari bilan boyitilgan darslarda o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'zgalar fikrini anglaydigan — muloqot va nutq</p>	<p>1. o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyalari rivojlanadi; 2. to'g'ri va ravon bayon eta olishni</p>

	madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirish	rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalar shakllanadi; 3. o‘yin elementlari orqali hosil bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni hayotda qo‘llay oladi.
--	--	--

Tajriba davomida ona tili fanini o‘qitishda geymifikatsiyadan foydalanish natijasida o‘quvchilarning darslarda ishtirok darajasining oshishi, o‘quvchilarning shaxsiy motivatsiyasini kuchayishi, matn va grammatik topshiriqlarni osonroq o‘zlashtirishi hamda jamoaviy ish ko‘nikmalarini rivojlanishi kuzatildi.

Ona tili fanini o‘qitishning yangi modeli sifatida e’tirof etilayotgan **“Flipped Classroom”** (teskari sinf) modeli tadqiqotchilarning tomonidan Flipped Classroom modeli shulardan biri bo‘lib, unda an’anaviy dars jarayoni teskari shaklda tashkil etiladi. Bu modelda o‘quvchilar asosiy ma’lumotni uyda o‘rganib, sinfda esa amaliy mashg‘ulotlarga e’tibor qaratadilar. Ona tili darslarida bu usul orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va malaka ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Flipped Classroom modelining asosiy g‘oyasi – ta’lim jarayonini ikkiga bo‘lish:

Mustaqil o‘rganish: o‘quvchilar dars mavzusini oldindan, o‘qituvchi tomonidan taqdim etilgan videodarslar, matnlar yoki interaktiv manbalar orqali o‘rganadilar.

Sinfidagi faoliyat: dars vaqtida o‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligida mavzuni mustahkamlaydilar, savollarga javob beradilar, ijodiy topshiriqlarni bajaradilar.

O‘qitishga no’anaviy yondashuv o‘quvchilarning bilim olishga, o‘z-o‘zini rivojlantirishga motivatsiyasini oshishini tadqiqot natijasida kuzatdik. Chunki bunda o‘quvchi sinfda o‘tiladigan yangi ma’ruzani uyida o‘qib, tushunib, tasavvurga ega bo‘lib darsga mavzu bo‘yicha amaliy vazifalar yechishga tayyor holda keladi. Dars vaqti uyda mustaqil o‘zlashtirgan bilimlari asosida fanga oid ko‘nikma va

malakalarni rivojlantiruvchi metodikalar vositasida “uyga vazifa”ni bajaradi. “Flipped Classroom” modeli o‘quvchilar bilan birga o‘qituvchiga ham juda katta motivatsiya va yengillik beradi. Chunki, dars o‘tish uchun kelgan o‘qituvchi yangi mavzuni bayon etishi, tushuntirishi shart emas, balki uyda mustaqil o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, tashxis qo‘yish va baholashdan iborat bo‘ladi. Shuningdek, fan va mavzuga oid ilmiy g‘oyalarning gipotetik-strategik ahamiyatini ham tushuntirib ketishi lozim bo‘ladi.

Teskari sinf modelida o‘qituvchi tomonidan mavzuga oid barcha o‘quv materiallari darsdan avval o‘quvchilarga beriladi. O‘quv materiallari matnlar, audio va video fayllar va birinchi manbalar bo‘lishi mumkin. O‘quvchilar ularni uyda mustaqil o‘qib – o‘rganib sinfda turli o‘yinlar va faol metodlar yordamida qanchalik o‘zlashtirganliklarini namoyon etadi. Ta’kidlash lozimki, Flipped Classroom o‘quvchilarning bilim olishga mas’uliyatini kuchaytiradi.

Ona tili fanini o‘qitishda Flipped Classroom modelidan foydalanish uchun quyidagi komponentlarga ega bo‘lish talab qilinadi:

- matnli, audioli va videoli o‘quv materiallari;
- power point taqdimotlari;
- o‘qituvchi va o‘quvchining onlayn muloqotini ta’minlab beruvchi kontent va boshqalar.

Ona tili fanini o‘qitishning Flipped Classroom modelining samarali jihatlari yanada chuqurroq tushunish uchun Google Classroom ilovasining imkoniyatlari bilan qiyoslash mumkin. Google Classroomda tizim to‘liq masofaviy ish olib boradi. Ikkala tizimda ham yangi mavzu oldindan e’lon qilinadi; asosiy e’tibor berilgan vazifalarning bajarilishiga qaratiladi. Ushbu model o‘z-o‘zini rivojlantirish tamoyiliga tayanadi, o‘qib-o‘rganishga ongli yondashuv modelning samaradorligini ta’minlaydi.

Flipped Classroom modeli ona tili fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarga materialni mustaqil o‘rganish imkonini beradi, natijada, sinfda ko‘proq vaqt amaliy va ijodiy mashg‘ulotlarga ajratiladi, o‘qituvchi har bir o‘quvchi bilan alohida ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladi, dars jarayonida ijodiy yozuvlar, insho yozish va matn tahliliga ko‘proq e’tibor qaratiladi. Barcha o‘quvchilarni tinglash va barchaning fikr bildirish imkoniyati oshadi.

Flipped Classroom texnologiyasini amalga oshirish qadamlari quyidagi bosqichlardan iborat (3.1.3-jadvalga qarang):

3.1.3-jadval

Flipped Classroom texnologiyasini amalga oshirish bosqichlari¹²⁶

№	Bosqishlar	Qadamlar
1.	Darsdan oldin tayyorgarlik	<ul style="list-style-type: none"> - O‘qituvchi mavzuga oid videodars, slayd-prezentatsiya yoki matn materiallarini tayyorlaydi. - Materiallar onlayn platformalar (Google Classroom, Edmodo yoki YouTube) orqali o‘quvchilarga taqdim etiladi.
2.	Mustaqil o‘rganish jarayoni	<ul style="list-style-type: none"> - O‘quvchilar uyda o‘qituvchi tomonidan tayyorlangan materiallarni mustaqil o‘rganadilar. - Materiallarni o‘rganish davomida o‘quvchilar savollar yozib, ularni darsda muhokama qilish uchun olib keladilar.
3.	Sinfdagi faoliyat	<p>Sinfdagi o‘quvchilar o‘qituvchi rahnamoligida quyidagi ishlarni bajaradilar:</p> <ul style="list-style-type: none"> - mavzuga doir savol-javob; - guruhlarda ishlash; - matnlarni tahlil qilish; - lug‘at ishi, ijodiy yozuvlar yoki topshiriqlar.
4.	Natijalarni baholash	O‘quvchilarning darsga tayyorgarlik darajasi testlar, lug‘at topshiriqlari yoki ijodiy yozuvlar orqali baholanadi.

Tajriba sinov ishlari davomida Flipped Classroom texnologiyasi asosida Ona tili darsida insho yozishdan avval o‘qituvchi insho yozish qoidalari va strukturasi haqida videodars tayyorladi va o‘quvchilarga darsdan oldin tarqatdi. Dars vaqtida esa o‘quvchilar videodan o‘rgangan bilimlarini umumiy muhokama qiladilar, ikki guruhga

¹²⁶ Tadqiqot natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan va taklif qilingan

bo‘linib, o‘quvchilar qisqa insho yozdilar hamda guruhlar o‘z ishlarini taqdim etib va bir-birini baholadilar. Natijada o‘quvchilarning mustaqillikka asoslangan va ijodiy yondashuvi shakllandi.

Flipped Classroom modelining natijalari va samaradorligi quyidagilarda o‘z aksini topdi:

O‘quvchilar faolligi: Flipped Classroom ta‘lim o‘quvchilarni faol ishtirokchiga aylantiradi.

Shaxsiy yondashuv: o‘qituvchi har bir o‘quvchining bilim darajasini chuqur baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Bilimlarni mustahkamlash: materiallar chuqur va tizimli ravishda o‘zlashtiriladi.

Ijodiylik va tanqidiy fikrlash: mavzularni mustaqil tahlil qilish va ijodiy ishlash ko‘nikmalari shakllanadi.

Flipped Classroom texnologiyasi zamonaviy ta‘lim jarayonida yanada samarali va faoliyatga yo‘naltirilgan usul sifatida ahamiyat kasb etmoqda. Ona tili darslarida ushbu texnologiyadan foydalanish o‘quvchilarning bilim olishga qiziqishini oshiradi, mustaqil o‘qishga o‘rgatadi hamda ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Zamon talabidan kelib chiqib, Flipped Classroom texnologiyasi ona tili fanini o‘qitish jarayoniga tatbiq etishda zamonaviy ta‘lim platformalaridan foydalanish, dars materiallarini sodda va tushunarli shaklda taqdim etish hamda o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasini muntazam nazorat qilishni talab etishi ilmiy jihatdan asoslandi.

Zamonaviy ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda **Refleksiya va tahlil texnologiyalari** alohida o‘rin tutadi. Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarga o‘quv materiallarini faqat o‘zlashtirib qolmasdan, ularni chuqur tahlil qilish, shaxsiy fikr va munosabat bildirish imkonini ham yaratadi¹²⁷. Ona tili darslarida refleksiya va tahlildan foydalanish o‘quvchilarning murakkab grammatik qoidalarni tushunishini va adabiy matnlar mazmunini shuqur tahlil qilishini ta‘minlaydi.

Refleksiya va tahlil texnologiyasi ona tili darslarida lug‘at, grammatik qoidalar yoki adabiy matnlarni qismlarga ajratib o‘rganishda ma‘lumotlarni tartibli o‘rganish, qismlarga ajratish va

¹²⁷Yusupov N.R. Ijodiy ta‘lim metodlari. Toshkent, 2020

xulosa chiqarish, o‘quvchilarning shaxsiy tajribasini tahlil qilish, o‘z bilimlari va amaliy faoliyatiga baho berish jarayonida o‘rganilgan bilimlarni tahlil qilish orqali ularni mustahkamlash va yangilarini o‘zlashtirish, ma’lumotlarni tanqidiy baholash va ularga asoslangan qarorlar qabul qilish samaradorligini oshiradi.

Darsda refleksiya va tahlil texnologiyalaridan foydalanish qadamlari quyidagi bosqishlardan iborat (3.1.4-jadvalga qarang):

3.1.4-jadval

Refleksiya va tahlil texnologiyasini amalga oshirish bosqishlari¹²⁸

№	Bosqishlar	Qadamlar
1.	Dars boshida Masala qo‘yish: Masalan, “Berilgan matndan markaziy g‘oyani toping.”	O‘quvchilarning oldingi darslarda olgan bilimlarini qayta eslatib, ulardan “Nimaga erishganmiz?” yoki “Qanday savollar tug‘ildi?” kabi savollarni so‘rash.
2.	Dars vaqtida Qismlarga ajratish: Matnni bo‘laklarga bo‘lib, har bir bo‘lakning mazmunini tahlil qilish.	Matn yoki grammatik topshiriq bo‘yicha shaxsiy fikrlarni yozma yoki og‘zaki shaklda bildirish.
3.	Dars oxirida Xulosa shiqarish: Matn bo‘yicha umumiy fikr va g‘oyalarni aniqlash.	O‘quvchilardan “Bugungi darsdan qanday xulosa chiqardingiz?” yoki “Qanday bilimlar men uchun yangi bo‘ldi?” kabi savollarga javob berishlarini so‘rash.

Refleksiya va tahlil texnologiyasining natijasi va samaradorligi o‘quvchilarning o‘quv jarayoniga faol qatnashishini ta’minlanishida, o‘quvchilar materialni chuqur o‘zlashtirishi va uning mohiyatini

¹²⁸ Tadqiqot natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan va taklif qilingan

tushunishida, o'quvchilarning tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuv ko'nikmalari shakllanishida o'z ifodasini topdi deb hisoblaymiz.

Ona tili darslarida refleksiya va tahlil texnologiyalaridan foydalanish ta'lim jarayonini yanada samarali va interaktiv qiladi. Bu texnologiyalar o'quvchilarning mustaqillik, ijodkorlik va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Refleksiya va tahlil texnologiyasini qo'llashda o'qituvchi dars jarayonida refleksiya va tahlil uchun yetakchi savollar va topshiriqlar tayyorlashi zarur, o'quvchilarning javoblari va fikrlarini baholashda ijobiy yondashuv qo'llashi lozim, texnologiyalarni qo'llash jarayonida zamonaviy pedagogik metodlar bilan uyg'unlikka e'tibor qaratish tavsiya etiladi.

Tajriba-sinov ishlarini olib borish davrida maktab o'quvchilariga yuqorida qayd etilgan pedagogik texnologiyalar yordamida darslarni tashkil etish natijasida kutilgan natijalarni berishi isbotlandi.

Mazkur pedagogik ta'lim texnologiyalari o'quvchilarda o'quv faoliyatni tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashish, o'z ustida ishlash, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berdi.

3.2-§. Ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonlarini loyihalashtirish texnologiyalari.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchi markazli yondashuvni tatbiq etishning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim jarayonining asosiy maqsadi faqat bilim berish emas, balki har bir o'quvchining individual qobiliyatini rivojlantirish, uning mustaqil fikrlashini ta'minlash va ijodiy salohiyatini oshirishdir. Ona tili fanini o'qitishning barcha bosqishlarida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv o'quvchilarning tilga nisbatan qiziqishini oshirish va ularning kommunikativ ko'nikmalarini takomillashtirishga xizmat qiladi. O'qitishning har bir bosqishining vazifalaridan kelib chiqib, ta'lim oluvchilarning aksiologik, kognitiv, emosional va xulq-atvorlariga qarab ta'sir ko'rsatishning ba'zi usullaridan foydalanish muhimdir. Jumladan, darsning bir bosqichida dinamik yondashuv foydali bo'lib, ta'lim oluvchining bilim doirasini kengayadi, boshqa bosqishda – xulq-atvorning yangi, konstruktiv harakatlarni rivojlantirishga yordam beradi (3.2.1-jadvalga qarang).

3.2.1-jadval

Ona tilini o‘qitish bosqishlari va ta’lim oluvchilarga ta’sir ko‘rsatish usullari

Dars Bosqishlari / Ta’sir usullari	Yangi bilimni o‘zlashtirish (tashxislash) bosqichi	Mustahkamlash va faollashtirish bosqichi	Qo‘llash va amaliyotga joriy etish bosqichi	Baholash va xulosa chiqarish bosqichi
<i>Dasrning maqsad va vazifalari</i>	<ul style="list-style-type: none"> - yangi mavzularni tushuntirish; - o‘quvchining mavzug bo‘yicha umumiy tasavvurini shakllantirish 	<ul style="list-style-type: none"> - yangi bilimni mustahkamlash; - ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish 	<ul style="list-style-type: none"> - bilimni amaliyotda qo‘llash; - turli vaziyatlarda foydalanish 	<ul style="list-style-type: none"> - o‘quvchilar natijalarini baholash; - refleksiya va fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish
<i>Kognitiv ta’sir</i>	<ul style="list-style-type: none"> - vizual materiallar (prezentatsiya, rasm, diagramma); - konseptual xaritalar (mazmun va bog‘liqlikni tushunish uchun); - atama va terminlarni tushuntirish 	<ul style="list-style-type: none"> - keys-stadi (real hayot misollarini tahlil qilish); - muammoli vazifalar yechimi 	<ul style="list-style-type: none"> - tahlil va sintez qilish, shuqur o‘ylash vazifalari; - konseptual sxemalar 	<ul style="list-style-type: none"> - savol-javob asosida tahlil qilish; - esse yozish va shaxsiy fikrlar bildirish
<i>Aksiologik ta’sir</i>	<ul style="list-style-type: none"> - savol-javoblar orqali mavzuga 	<ul style="list-style-type: none"> - interaktiv so‘rovlar va viktorinalar; 	<ul style="list-style-type: none"> - oshiq savollar va tezkor javob topish mashqlari; 	<ul style="list-style-type: none"> - testlar, anketa va so‘rovnomalar;

	qiziqish uygʻotish; -aqliy hujum” (brainstorming)	-guruhda muhokamal ar (debatlar)	-interaktiv muloqot	- oʻzini baholash va oʻzaro baholash
<i>Emosional taʼsir</i>	- qiziqarli voqealar, misollar va hikoyalar keltirish; - videomateriallar yoki multimedia vositalari orqali tasvirlash	- rolli oʻyinlar, ijodiy vazifalar (esse, hikoya yozish); - inssenirovka va sahnalashtirilgan mashqlar	- real hayot misollari asosida tahlil va baholash; - hissiy videolar yoki turli real keyslar	- taqdimotlar tayyorlash va ijodiy yondashuv; - ragʻbat va motivatsiya vositalarini qoʻllash
<i>Xulq-atvor taʼsiri</i>	- jonli muloqotga chorlash (tahlil va fikr bildirish); - guruhda ishlash orqali hamkorlik koʻnikmalarini rivojlantirish	- loyiha ishlab chiqish (guruh yoki individual); - amaliy mashqlar, real muammolar yechimi	-rolli oʻyinlar (huquqiy, ijtimoiy, kasbiy simulyasiyalari); -laboratoriya va tajriba mashgʻulotlar	-mustaqil rejalar tuzish va tajribani amaliyotda qoʻllash -hayotiy voqealar asosida baholash

Bunda, ona tili fanini oʻqitish samaradorligini taʼminlash maqsadida, umumtaʼlim maktab oʻqituvchilarining shaxsga yoʻnaltirilgan pedagogik texnologiyalarni qoʻllashdan avval va qoʻllanganidan keyingi taʼlim faoliyatini tizimli oʻrganish va tahlil qilishni taqozo qilmoqda. Ushbu muammoni oʻrganish jarayonining «modeli»ni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etib, umumtaʼlim maktab oʻqituvchilarining shaxsga yoʻnaltirilgan pedagogik texnologiyalardan foydalanganidan keyingi pedagogik faoliyati tahlilini amalga oshirish dolzarb hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, “model” atamasiga tadqiqotchi olimlar tomonidan berilgan ta’riflarni ko‘rib chiqsak.

B.Ya.Sovetov va S.Ya.Yakovlevlarning tadqiqotlariga ko‘ra, «model – asl nusxaning ayrim xususiyatlarini o‘rganishni ta’minlaydigan asl ob’jektning o‘rnini bosuvchi ob’jektdir».¹²⁹

M.R.Kogalovskining tadqiqotlariga ko‘ra, «model – bu voqelikning muayyan jihatlarini ifodalashga mo‘ljallangan va o‘rganilayotgan savollarga javob olish imkonini beradigan, voqelikning biron bir shakl (masalan, matematik, fizik, simvolik, grafik yoki tavsifiy)dagi abstrakt ifodasidir»¹³⁰

«Model – bu tadqiqot boshqa tizim haqida ma’lumot olish uchun vosita bo‘lib xizmat qiladigan tizimdir»¹³¹ «ayrim real jarayon, qurilma yoki tushunchaning ifodalanishi»¹³²

B.S.Styopin ta’kidlashicha “model odatda asl nusxaning moddiy nusxasi yoki mavhum (ruhiy yoki ramziy) shaklda taqdim etilgan va modellashtirilgan ob’jektning muhim xususiyatlarini o‘z ichiga olgan an’anaviy tasvirdir”.¹³³ Modellarni yaratish tartiblari ham ilmiy, ham nazariy, ham inson faoliyatining amaliy sohalarida keng qo‘llaniladi. Ilmiy izlanishlarda modellashtirish metodidan foydalanish ob’yektlarni bevosita o‘rganish orqali idrok etib bo‘lmaydigan jihatlarini ochib berish zaruratini taqozo etadi, chunki ularni har qanday cheklashlar tufayli shu tarzda o‘rganish samarasiz bo‘ladi. «Ob’yektni uning xususiyatlarini modellashtirish orqali o‘rganish mumkin, chunki har bir model ma’lum darajada voqelikni aks ettirishning o‘ziga xos shaklidir».¹³⁴

Zamonaviy ilmiy izlanishlarda ilmiy tadqiqotning maxsus texnikasidan modellashtirish ilmiy bilishning muhim uslubiga aylandi va ob’jektning alohida ajralib turadigan jihatlarini o‘rganish uchun ishlatiladi. Ijtimoiy yo‘naltirilgan pedagogika fanining rivojlanishi va

¹²⁹ Советов Б.Я., Яковлев С.А. Моделирование систем. — М.: Высш. шк., 2001. — 343 с.

¹³⁰ Когаловский М. Р. и др. Глоссарий по информационному обществу Архивная копия от 31 марта 2020 на Wayback Machine / Под общ. ред. Ю. Е. Хохлова. — М.: Институт развития информационного общества, 2009. - 160с.

¹³¹ Уёмов А. И. Логические основы метода моделирования, М.: Мысль, 1991. — 311 с, с.48

¹³² ISO/IEC/IEEE 24765:2010 Systems and software engineering — Vocabulary IEEE Std 1233—1998 (R2002) IEEE Guide for Developing System Requirements Specifications

¹³³ Стёпин В.С. Теоретическое знание. Структура, историческая эволюция. — М., 2000 г.

¹³⁴ Аменд А.Ф. Дошкольная образовательная система: модели развития // Управление дошкольными образовательными учреждениями. М., 2004. № 5.

ilmiy ishlanmalar natijalarini ta'lim amaliyotiga tatbiq etish uchun ijtimoiy hodisa va jarayonlarni bilishda modellashtirish muammosi alohida ahamiyat kasb etadi. Biz takomillashtirayotgan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim pedagogik texnologiyalardan foydalanish jarayonini modellashtirish ijtimoiy omillar ta'siridan xoli emas.

A.F.Lazurskiy¹³⁵ va V. M. Myasishevlar¹³⁶ tomonidan ishlab chiqilgan "munosabatlar psixologiyasiga asoslangan shaxs nazariyasi"ga ko'ra samarali ta'lim olishda shaxsiy munosabatlar tushunchasi (birinchi navbatda, o'ziga va boshqalarga bo'lgan munosabatlar), uning turli xil ta'lim vaziyatlari bilan ziddiyati o'quvchining keskinligi va muvaffaqiyatsizliklari manbasini belgilaydi.

Umumta'lim maktab o'qituvchilarining ona tili darslarida shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalarni qo'llaganlaridan keyingi pedagogik faoliyatini samaradorligi bir qator omillarga bog'liq bo'lib, ushbu muammo ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'limni tashkil qilinishidan avval va tashkil qilingandan keyingi boshqaruv faoliyatini tizimli ravishda ko'rib chiqishda namoyon bo'ladi. Modelni ishlab chiqishda yuqorida qayd etilgan S.Ya.Yakovlev, M.R.Kogalovskiy, B.S.Styopin kabi olimlarning ishlari o'rganildi.

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq, O'zbekiston pedagogikasining mazmun va mohiyati, ta'lim nazariyasi, usul va uslublarida katta o'zgarishlar ro'y berib, rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimida muvaffaqiyatli qo'llanilib kelinayotgan pedagogik texnologiya tamoyillaridan og'ishmagan holda, sistema (majmui)lar nazariyasining barcha qonuniyatlaridan kelib chiquvchi va Respublikamizdagi ijtimoiy - pedagogik sharoitni hisobga olingan, hududdagi professor-o'qituvchilar va pedagoglarning ma'rifiy mentalitetidan kelib chiqqan, hududimizning pedagoglar jamoatchiligiga tushunarli bo'lgan "pedagogik texnologiyaning zamonaviy milliy modeli"¹³⁷ vujudga keldi.

¹³⁵ Лазурский А.Ф. Очерк науки о характерах. - М., Просвещение, 2005. - 271 с.

¹³⁶ Мясищев В.Н. Основные проблемы и современное состояние психологии отношений человека //Психологическая наука в СССР. - М., 2000, ч.2, с. 110-125.

¹³⁷ . В.Зиёмухамедов, М.Тожиёв. Педагогик texnologiya-zamonaviy o'zbek modeli. /"Lider Press", Toshkent-2009y.

Bugungi kunda, shaxsga yo'naltirilgan pedagogikaning mavjud modellarini uchta asosiy guruhga bo'lish mumkin:

ijtimoiy-pedagogik;

didaktik;

psixologik.

Ijtimoiy-pedagogik model ta'lim uchun ijtimoiy tartib-qoidalarni shakllantirgan jamiyat talablarini – oldindan belgilangan xususiyatlarga ega shaxsni tarbiyalashni amalga oshiradi. Jamiyat mavjud barcha ta'lim muassasalari orqali bunday shaxsning tipik modelini shakllantirdi. Ona tili o'qituvchisining vazifasi, birinchi navbatda, har bir o'quvchining o'sib ulg'aygan sayin ushbu modelga mos kelishini ta'minlash bo'lib, uning o'ziga xos tashuvchisidir. O'qituvchi shaxsni umumiy hodisaning bir turi, “o'rtacha” fenomen, ommaviy madaniyatning tashuvchisi va notig'i sifatida tushungan. Bu shaxs uchun asosiy ijtimoiy talablarni keltirib chiqardi: shaxsiy manfaatlarni jamoat manfaatlariga bo'ysundirish, muvofiqlik, itoatkorlik, kollektivizm va boshqalar.

Majoziy ma'noda ushbu texnologiyaning diqqat markazini quyidagicha ta'riflash mumkin: “men hozir kim ekanligingiz bilan qiziqmayman, lekin kim bo'lishingiz kerakligini bilaman va bunga erishaman”. Demak, taniqli pedagogik optimizm, avtoritarizm, ta'lim dasturlari, usullari va shakllarining bir xilligi, shuningdek umumiy o'rta ta'limning global maqsadlari (barkamol, har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash) shakllangan.

Shaxsga yo'naltirilgan pedagogikaning *didaktik modeli*, uning rivojlanishi an'anaviy ravishda ilmiy bilimlarni fan mazmunini inobatga olgan holda tashkil etish bilan bog'liq. Bu ta'lim berishda individual yondashuvni qo'llashga imkon beradigan o'ziga xos fan differentsiatsiyasidir.

Bilimning o'zi ta'limni individuallashtirish vositasiga. Bilim mavzuning ob'yektiv qiyinligi, yangiligi, integratsiya darajasi, oqilona o'qitish usullari, materialning “porsionalligi”, uni qayta ishlashning murakkabligi va boshqalarni hisobga olgan holda tashkil etilgan. Didaktika mavzuni farqlash asosida qurilgan bo'lib, uning maqsadi quyidagilarni aniqlashdan iborat: 1) o'quvchining turli mavzu tarkibidagi materiallar bilan ishlash afzalliklari; 2) uni shuqur o'rganishga qiziqish; 3) o'quvchini turli fan (kasb)lar bilan

shug‘ullanishga yo‘naltirish. Fan differentsiatsiyasi metodikasi o‘quv materialining murakkabligi va miqdorini hisobga olishga asoslangan.

Shaxsga yo‘naltirilgan pedagogikaning *psixologik modeli* yaqin vaqtgacha genetik, anatomik, fiziologik, ijtimoiy sabablar va ularning o‘zaro murakkab ta’siridagi omillar tufayli murakkab psixologik ta’lim sifatida tushunilgan kognitiv qobiliyatidagi farqlarni tan olishga nisbatan tushinilgan.

Bunda, ta’lim jarayonida kognitiv qobiliyatlar o‘rganish qobiliyatida namoyon bo‘ladi va bu insonning bilimlarni o‘zlashtirish qobiliyati sifatida tavsiflanadi (3.2.1-jadvalga qarang).

3.2.1-jadval

Pedagogik modellarining qiyosiy jadvali.

An’anaviy model	Shaxsga yo‘naltirilgan model
Maktabgacha ta’lim yoshi – kelajak hayotga asos yaratish davridir. Umumta’lim muassasalarining asosiy maqsadi esa o‘quvchilarni oliy ta’lim muassasasiga tayyorlashdan iborat.	Maktab yoshidagi bolaning shaxsiy qadr-qimmatini inson hayotining betakror bosqishi sifatida anglashi muhim. Umumta’lim muassasalarining asosiy maqsadi esa bolani ijtimoiy muhitga moslashtirish va mustaqil hayotga tayyorlashdan iborat.
O‘rta ta’limda asosiy e’tibor ta’lim dasturini hayotga tatbiq etishga qaratilgan. Pedagog kadrlarning bosh vazifasi esa ushbu dasturni samarali tarzda amalga oshirishdan iborat.	Umumiy o‘rta ta’limining asosiy ustuvor jihati — o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi samarali hamkorlikdir. Bosh maqsad esa shaxsiy rivojlanish uchun mavjud imkoniyatlardan to‘la foydalanishni rag‘batlantirishdan iborat.
O‘quvchi ta’lim-tarbiya jarayonida ta’sir qabul qiluvshi sub’yekt sifatida ko‘riladi. Ularning faolligi esa maktabdagi tartib va rasmiy intizomni saqlash maqsadida sheklanadi.	O‘quvchi ta’lim jarayonida faol ishtiroki, tashabbuskorligi va mas’uliyati bilan ajralib turadigan markaziy sub’yekt hisoblanadi.

<p>O‘quvchiga ta’sir o‘tkazuvshi manipulyativ yondashuv qo‘llaniladi, buning asosiy tamoyili – “mening yo‘limdan yur!” shioriga asoslanadi.</p>	<p>O‘quvchiga hamkorlik muhitida teng huquqli sherik sifatida yondashiladi. O‘qituvchilar o‘quvchining manfaatlari va rivojlanish istiqbollari inobatga olgan holda dars jarayonini tashkil etadilar.</p>
<p>Muloqotning asosiy usullari – ko‘rsatmalar berish, cheklovlar qo‘yish va jazolash. O‘zaro ta’sir taktikasi esa qat’iy nazorat va vasiylikka asoslanadi.</p>	<p>Muloqot usullari o‘quvchining o‘z nuqtai nazarini shakllantirish, uning fikrini hamda his-tuyg‘ularini inobatga olish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Muloqot o‘zaro hamkorlikka asoslangan holda tashkil etiladi.</p>
<p>O‘qituvchilar o‘quvchilar o‘rtasidagi nizolarni mustaqil hal qilib, haqlarni rag‘batlantiradi va aybdorlarga jazo tayinlaydi.</p>	<p>O‘qituvchilar o‘quvchilarni ziddiyatli vaziyatlarni muhokama qilishga va ularni mustaqil ravishda hal etish yo‘llarini izlashga rag‘batlantiradi.</p>
<p>Dasturning maqsadi – bilim, ko‘nikma va malakalarni bevosita o‘rgatish orqali har bir o‘quvchini samarali va ishonchli darajada tayyorlash. Ushbu ta’lim tarzi o‘quvchini nafaqat nazariy bilimlar bilan, balki ularni hayotda qo‘llash qobiliyati bilan ham qurollantiradi.</p>	<p>Har bir o‘quvchiga o‘z shaxsiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkonini berish va ularni yangi kashfiyotlarga ilhomlantirish maqsadiga qaratilgan. Bu jarayonda individual va kichik guruhlarda ishlash asosiy usul bo‘lib, bu o‘quvchining har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydi.</p>
<p>O‘qituvchilar barcha o‘quvchilarga belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashda qo‘llab-quvvatlash va yordam ko‘rsatish orqali ularning salohiyatini rivojlantiradi.</p>	<p>O‘qituvchilar har bir bolaning shaxsiy tajribasini boyitish va uning o‘rganish jarayonida yuqori natijalarga erishishida muhim rol o‘ynaydi.</p>

<p>O'qituvchilar o'quvchilarga topshiriqlarning shaklini belgilash va ularga topshiriqni samarali bajarish uchun namuna ko'rsatish orqali ularni yo'naltiradi.</p>	<p>O'qituvchilar o'quvchilarga turli topshiriqlar va ish shakllarini tanlash imkonini beradi, shunda ular mustaqil ravishda yechim izlashga va har bir vazifani ijodiy yo'l bilan hal qilishga ilhomlanadilar.</p>
<p>O'qituvchilar o'quvchilarni o'z taklif qilgan materialga qiziqishini uyg'otishga harakat qiladilar, ularga mazmunli va ilhomlanarli ta'lim berishga intiladilar.</p>	<p>O'qituvchilar o'quvchilarning haqiqiy manfaatlarini aniqlash va material tanlashda ularning ehtiyojlariga mos keladigan yo'lni topishga harakat qiladilar, bu esa har bir o'quvchining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.</p>
<p>O'qituvchilar o'zlashtirishda qiyinshilikka dush kelgan bolalar bilan individual mashg'ulotlar o'tkazib, ularga alohida e'tibor qaratidilar.</p>	<p>O'qituvchilar har bir bola bilan individual ishlash orqali uning xususiyatlariga va ehtiyojlariga mos kelgan yordamni ko'rsatadilar.</p>
<p>O'qituvchi o'quvchilarning ish natijalarini baholab, ularning xatolarini aniqlab, tuzatishga yo'naltiradi.</p>	<p>O'qituvchi o'quvchilarni o'z ishlarining natijalarini mustaqil ravishda baholashga va xatolarni o'rganib, tuzatishga ilhomlantiradi, bu ularning samarali rivojlanishiga yordam beradi.</p>
<p>O'yin, dasturiy ta'minot talablari bilan belgilangan bilimlarni egallash jarayonida didaktik vosita sifatida ishlatiladi.</p>	<p>O'yin – bu o'qituvchi, o'quvchilar va ularning bir-birlari bilan erkin hamkorligiga asoslangan bolalar hayotini tashkil etishning asosiy shakli bo'lib, o'quvchilarning ijodiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.</p>

Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, dunyoni o‘quvchining ko‘zi bilan ko‘rishni o‘rganish va uning qiziqishlaridan kelib chiqib, uning individualligini tushunish muhim ahamiyatga ega. Bunda o‘quvchining yutuqlaridan quvonish va, shu bilan birga, o‘qituvchi va o‘quvchining munosabatlarini shaxsiyat asosida, ya’ni o‘quvchining xos xususiyatlariga hurmat bilan, qurish kerak.

S.I.Ashurovaning tadqiqotlariga ko‘ra ta’lim texnologiyasining modeli quyidagilarni o‘z ishiga oladi¹³⁸:

o‘qitish maqsadlarini aniq ifodalash;
nazariy va amaliy materialni tanlash hamda uni talabalarga yetkazish yo‘llarini aniqlash;

aniq mavzuning tayanch tushuncha va iboralarini ajratish;
o‘qishga qiziqtirishga yo‘naltirilgan usul va texnologiyalarni belgilash;

o‘quv jarayonini yakka va jamoa holda tashkil etishni tashkillashtirish;

o‘quv mashg‘ulotlari rejasi va loyihalarini tuzish;
o‘quv faoliyatida oldindan kutilayotgan natijalarni aniqlash;
natijalarga erishish uchun zarur bo‘lgan pedagogik vazifalarni belgilash;

ta’lim oluvchining dastlabki bilimlarini aniqlash;
o‘quv mashg‘ulotlari loyihalarini tuzib chiqish;
teskari aloqani yo‘lga qo‘yish va ta’lim vositalarini, ya’ni tezkor so‘rov, savol-javob, o‘quv topshirig‘i natijalari taqdimotini baholashni aniqlash;

loyihaviy faoliyat natijasini jadval ko‘rinishda, ya’ni o‘quv jarayoni innovatsion ta’lim texnologiyasi modeli ko‘rinishida rasmiylashtirish;

o‘quv mashg‘ulotida ta’lim texnologiyasini rejalashtirishni texnologik xarita ko‘rinishida amalga oshirish.

Bugungi kunda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning g‘oyalari va tamoyillari, psixologik va pedagogik asoslari, o‘quvchilarning shaxsiyatini rivojlantirishga qaratilgan muammolarni hal qilish va ularning individualligini aniqlash asosida I.S.Yakimanskaya tomonidan ishlab chiqilgan model metodist-olimlar tomonidan eng


¹³⁸Ashurova S.I. Maxsus fanlarni modullar o‘qitish jarayonini tashkil qilish va o‘tkazish // Kasb-hunar ta’limi. –T., 2004. – № 5

samarali model deb topilgan. Bu metodologiya, har bir o'quvchining shaxsiyat xususiyatlariga e'tibor berib, uning rivojlanishida yangi imkoniyatlar oshadi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv sharoitida har bir o'quvchi o'qituvchiga noyob hodisa sifatida ko'rinadi.

Ona tili fanning bitta o'quv mashg'uloti, ya'ni bitta darsi, pedagogik texnologiya tili bilan aytganda, bitta o'rta modulni ifoda etadi. Uning *birinchi*, asosiy elementida, shu mashg'ulotda beriladigan materiallarni hajmi va mazmuniga qarab kichik modullarga ajratib, har birining maqsadi va unga ajratilgan vaqt aniqlab olinadi. *Ikkinchi* elementida har bir kichik modulda beriladigan bilimlar tizimi ichidan tayanch tushunchalar ajratib olinib, shu tushunchalar asosida nazorat savollari va bu savollar asosida test yoki boshqa nazorat shakllari tuzilishi lozim. *Uchinchi* elementida har bir kichik modulda qo'llanadigan dars turi va tipi belgilanadi. *To'rtinchi* elementida har bir kichik modulda qo'llanadigan pedagogik uslublar ko'rsatiladi. *Beshinchi* elementida har bir kichik modulda foydalaniladigan axborot texnologiyalari ko'rsatiladi. *Oltinchi* elementida har bir kichik modulda foydalaniladigan didaktik materiallar turi va joylarining ko'rsatilishi ko'zda tutilgan. *Yettinchi* elementida esa avvalgi oltita elementida rejalashtirilgan maqsadlardan kelib chiqib, shu maqsadlarga erish uslublari va vositalari ko'rsatilgan dars senariysi ifodalangan bo'ladi. Bunda o'quv jarayonida ishtirok etadigan barcha vositalar o'zaro sintezlashib bir butunlikni, ya'ni dars degan majmuni tashkil qiladi.

Ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiya asosida amalga oshirishda ularda ishtirok etadigan elementlarning o'zaro funksional bog'liqlikda ekanligini ko'rsatuvchi elementlardan iborat majmuiy bo'laklarining o'zaro birlashtirilishini, ona tili fanining har bir darsidagi pedagogik jarayonni shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalari asosida amalga oshirilishini pedagogik texnologiyaning modeli deb nomladik.

O'qituvchi har bir o'quvchiga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishga, o'quv maqsadlariga erishishga va shaxsiy ta'lim trayektoriyasini rivojlantirishga yordam beradi (3.2.1. - rasmga qarang).



3.2.1-rasm. Ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'limning tuzilmaviy modeli.

Qilingan tahlillar asosida pedagogik texnologiyani har tomonlama puxta o'ylangan pedagogik loyihalashtirish, ta'lim jarayonini tashkil qilish va albatta o'quvchi va pedagog uchun erkin, qulay shart sharoit yaratish orqali xamjihatlikda ishlab chiqilgan model desak bo'ladi.

Ona tili darslarini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosidagi modelini tuzishda pedagogik texnologiyaning milliy modeli tamoyillariga ilmiy asosda yondashildi. Pedagogik texnologiya o'zining ilmiy asoslangan tamoyillari va bajarilishi shart bo'lgan muayyan vazifalariga suyanadi. Bunda Ona tili fanini o'qitishda samarali natijaga olib keluvchi o'quv jarayonini tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Samarali va kafolatlangan natijaga erishish uchun har bir o'qituvchi-pedagog quyidagi to'rt bosqichli komponentlarga asoslanishi kerak deb hisoblaymiz:

1. Aniq belgilangan maqsad – darsni mavzu yuzasidan to'g'ri tashkil qilish, mavzuni to'liq va izchillikda yoritib berish, o'quvchilar faoliyatini tashkil qilish va boshqarish, belgilangan aniq vaqt davomida o'quvchilarning mavzuni qay darajada tushunganligi, ular tomonidan o'quv topshirig'ini to'g'ri bajarilganligini baholash, shuningdek, agarda xatolikka yo'l qo'yilgan bo'lsa, yana mustahkamlash chora-tadbirlariga oldindan tayyorgarlik ko'rishi tushuniladi.

Ona tili fanini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosida o'qitishning asosiy maqsadi – har bir o'quvchining bilimi, qobiliyati va ijodiy salohiyatini rivojlantirishdir. Bu yondashuv orqali o'quvchilar nafaqat tilni yaxshi o'zlashtiradi, balki erkin fikrlash, tahlil qilish va muammolarni mustaqil yechish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

2. Ona tilini o'qitishda tashkiliy komponent darsni rejalashtirish, o'qitish metodlari, muhit va baholash tizimini o'z ichiga oladi. Bu omillar dars samaradorligini oshirish va o'quvchilarning tilni yaxshi o'zlashtirishini ta'minladi. Bunda qoida va tamoyillar – davlat ta'lim standartlari qoidalariga, o'quv muassasasi nizomiga, umuman me'yoriy-huquqiy normalarga amal qilish, shuningdek o'qituvchi-kadrlarning auditoriya muhiti uchun yaratgan o'z qoidalariga amal qilindi.

Ona tili fanini o'qitish jarayonining loyihasini tuzishda va sinergetikaning ijtimoiy-pedagogik, didaktik va psixologik tamoyillariga va uning qonun-qoidalariga amal qilindi.

O'quv mashg'ulotlar mazmuni aksiologik, kognitiv, emosional va xulq-atvorlariga qarab ta'sir ko'rsatishning ba'zi usullaridan foydalanish muhimdir. Jumladan, darsning bir bosqichida dinamik yondashuv foydali bo'lib, ta'lim oluvchining bilim doirasini kengayadi, boshqa bosqichda – xulq-atvorning yangi, konstruktiv harakatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Ona tili fanini o'qitishda geymifikatsiya, Flipped Classroom modeli, refleksiya va tahlil texnologiyalari hamda ijodiy xarakterdagi o'quv topshiriqlarini bajarildi.

3. Ona tilini o'qitishda ta'lim mazmuni sifatida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim usullari, shakllari va vositalari o'rganildi. Ona tilini o'qitishda ta'lim mazmuni o'quvchilarning nutqiy madaniyati, grammatik bilimlari, ijodiy tafakkuri va ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. U o'quvchilarning tilni chuqur o'zlashtirishi, ma'naviy-axloqiy tarbiyasi va ijtimoiy faolligiga ta'sir qildi.

Tadqiqot davomida ona tilini o'qitish darslarida og'zaki, yozma, amaliy va evristik usullaridan foydalandik. Ta'lim vositalari – o'quv materialini ko'rgazmali taqdim etish va shu bilan birga o'qitishning samaradorligini oshiruvchi yordamchi materiallar hisoblanadi. Tajriba-sinov ishlari davomida o'quv-biluv topshiriqlar, tarqatma materiallar media va vizual ko'rgazmalar qo'llanildi. Ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini hisobga olib, uning qiziqishlarini inobatga olgan holda tashkil etiladi hamda interaktiv, raqamli va tadqiqotga asoslangan jamoaviy, guruhli, yakka tartibdagi va differensiallashgan ta'lim shakllarini o'z ishiga oladi.

Ona tili darslarini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosida modellashtirish jarayonida o'quvchilarni faollashtirish texnologiyasini ishlab chiqish uchun innovatsion o'qitish g'oyalarining genezisini tahlil qilish orqali o'quvchilarni faollashtirishning pedagogik imkoniyatlarini tamoyillar (ijtimoiy-pedagogik, didaktik va psixologik), shaxsga yo'naltirilgan ta'lim metodlari (geymifikatsiya, Flipped Classroom modeli, refleksiya va tahlil) va ijodiy o'quv topshiriqlari asosida kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha (ijtimoiy, kommunikativ, intellektual) tayyorgarlik darajalari optimallashtirilgan (maqsad, tashkiliy, mazmun, natija) komponentlarini o'z ishiga olgan modelgi takomillashtirdik.

4. Ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni baholashning an’anaviy metodlaridan farqli ravishda, o‘quvchining faqatgina bilim darajasini emas, balki uning ijtimoiy, kommunikativ va intellektual salohiyatini ham baholashga asoslangan holda amalga oshirdik (3.2.2. - jadvalga qarang).

3.2.2-jadval

Ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni baholash mezonlari

Mezonlar	Ko‘rsatkishlar	Baholash usullari
ijtimoiy	<ul style="list-style-type: none"> - Guruhda ishlash va hamkorlik ko‘nikmasi - Tengdoshlari va ustozlar bilan samarali muloqot qila olish - Fikrini ochiq ifoda qilish va hurmat bilan munosabatda bo‘lish - Milliy va umuminsoniy qadriyatlarga rioya qilish. 	<ul style="list-style-type: none"> - Guruhda ishlash faoliyati bo‘yicha kuzatuv - O‘quvchi ishtiroki va faolligi bo‘yicha o‘qituvchi fikri - Loyiha va ijtimoiy tashabbuslarda ishtirok etish darajasi.
kommunikativ	<ul style="list-style-type: none"> - O‘z fikrini yozma va og‘zaki ravishda ravon bayon qila olish - Turli vaziyatlarda to‘g‘ri uslubda muloqot qila olish - Eshitish va tushunish, savollarga javob berish qobiliyati - Turli manbalardan ma’lumot olib, tahlil qila bilish. 	<ul style="list-style-type: none"> - Yozma diktantlar, esse yozish, erkin insho tayyorlash - Hamkorlikdagi bahs va munozaralarda ishtirok etish - Ommaviy chiqishlar va taqdimotlarni baholash.
intellektual	<ul style="list-style-type: none"> - Matnni tahlil qilish va asosiy g‘oyani ajrata olish 	<ul style="list-style-type: none"> - Tilshunoslik va adabiyot bo‘yicha tahliliy ishlar - Keys-stadi va voqealar tahlili

	<ul style="list-style-type: none"> - Muammoli vaziyatlarga ijodiy yondashish - Til qoidalarini bilish va ularni amalda qo'llay olish - Yozma va og'zaki nutqda uslubiy o'zgarishlarni tushunish. 	<ul style="list-style-type: none"> - Tadqiqot loyihalari tayyorlash va ularni taqdim qilish.
--	---	---

Ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosida baholash jarayoni faqat test va imtihonlar orqali emas, balki ijtimoiy, kommunikativ va intellektual mezonlar asosida amalga oshirilishi kerak. Bu yondashuv o'quvchilarni faqatgina grammatik bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, jamiyatda faol va muloqotga tayyor shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'limning tuzulmaviy modelini amaliyotga tatbiq etish natijasida:

1. Har bir o'quvchining shaxsiy qobiliyatini rivojlantirishga erishdik. Bunda:

o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqini rivojlandi;
ijodiy fikrlash qobiliyati shakllandi;
erkin va to'g'ri fikrlashga yordam berdi.

2. Interaktiv va innovatsion usullar orqali samarali ta'lim berish imkoni paydo bo'ldi. Bunda:

dialog, bahs va muloqot orqali o'quvchilar faollashdi;
guruhda ishlash, tadqiqot olib borish kabi usullar joriy etildi;
axborot texnologiyalaridan foydalanib ta'lim jarayonini yanada qiziqarli qilish imkoni paydo bo'ldi;

3. Insonparvarlik va ma'naviy tarbiya kushaytirish orqali;
ona tilini o'qitish orqali milliy qadriyatlar va an'analar o'rgatildi;
o'quvchilarda vatanga mehr va faxr tuyg'usini shakllantirildi;
axloqiy, ma'naviy va madaniy me'yorlarni o'zlashtirildi;

4. Mustahkam bilim va kompetensiyalarni shakllantirish asosida:
har bir o'quvchi o'z qobiliyatiga ko'ra maksimal darajada bilim olish imkoniyatiga ega bo'ldi;

o'quvchilarga erkin fikrlash va izlanish qobiliyati singdirildi;

fanga bo'lgan qiziqishni oshirish orqali muvaffaqiyatga erishildi;
5. Individual yondashuv orqali ta'lim sifatini oshirildi, ya'ni;
har bir o'quvchi uchun mos o'quv strategiyalar ishlab chiqildi;
o'quvchining mustaqillik va mas'uliyat hissi oshirildi;
o'quvchining kuchli va zaif tomonlarni aniqlab, ularni
rivojlantirish yoki bartaraf etish ishlari olib borildi;

Ona tili fanini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosida o'qitishning asosiy maqsadi – har bir o'quvchining bilimi, qobiliyati va ijodiy salohiyatini rivojlantirishdir. Bu yondashuv orqali o'quvchilar nafaqat tilni yaxshi o'zlashtiradi, balki erkin fikrlash, tahlil qilish va muammolarni mustaqil yechish ko'nikmalariga ega bo'ldi.

Shunday qilib, umumiy o'rta ta'lim tizimida ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan *ta'limning tuzulmaviy modeli* 4 ta asosiy tarkibiy qism va 20 dan ortiq komponentlarni o'z ichiga oladi. Taqdim etilgan model umumiy hisoblanadi va umumiy o'rta ta'lim tizimida ona tili fanini o'qitishda ta'lim sifatini oshirish uchun tavsiya etiladi.

XOTIMA

1. Mamlakatimizda umumiy oʻrta taʼlim sohasida davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish, ayniqsa, taʼlim-tarbiya tizimini tubdan isloh etish maqsadida shaxsga yoʻnaltirilgan pedagogik texnologiyalar sohasida juda katta ishlar amalga oshirilayotganiga toʻxtalangan, bu ishlar qanchalik zarur va dolzarb ekanligi asoslandi.

2. Bugungi kunda umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida amalga oshirilayotgan taʼlimning oʻrni va darajasini aniqlashga ona tili fanini oʻqitishda shaxsga yoʻnaltirilgan tadqiqotlarda pedagogik texnologiyaning vazifalaridan kelib chiqib, uning imkoniyatlaridan keng foydalanishni, oʻquv-tarbiya jarayonini yangi tamoyillar va yangi mafkuraviy negizda, yangi taʼlim berish usullarida qayta qurish, taʼlim sohasida islohotlarni amalga oshirish mumkin va bu zaruriy ehtiyojga aylanganligi aniqlandi.

3. Umumiy oʻrta taʼlim tizimida malakali pedagog kadrlarga ortib borayotgan ehtiyoj, ularning pedagogik kompetensiyalarini doimiy takomillashtirib borish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shundan kelib chiqib, ona tili fanini oʻqitishda shaxsga yoʻnaltirilgan pedagogik taʼlim texnologiyalarini taʼlim jarayoniga tatbiq etish orqali oʻquv jarayonining samarali mexanizmlarini joriy etish zarurati isbotlandi.

4. Pedagogik texnologiyalarni taʼlim jarayoniga keng tatbiq etish taʼlim paradigmalarining oʻzgartirilishiga olib keladi hamda ona tili fanini oʻqitishda yoʻnaltirilgan pedagogik texnologiyalarigina ilgʻor pedagogik texnologiyalarda jam boʻlgan imkoniyatlardan samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi.

5. Metodologik tahlil natijalarini umumlashtirish oʻqituvchining oʻqitish vositalari yordamida taʼlim oluvchilarga muayyan sharoitda taʼsir koʻrsatish texnologiyalari, oʻquv maqsadlarining aniq belgilanishi, yakuniy natijaning kafolatlanishi, oʻquv jarayoni takrorlanuvchanligining taʼminlanishi va tezkor qaytuvchan aloqaning mavjudligi bilan xarakterlanuvchi texnologiyalar, oʻquv muhitining (yoki sharoitlarining) tabiatiga qarab texnologik oʻqitish usullari, taʼlimni tashkil etishning modulli, moslashuvchan, toʻliq assimilyasiya qilish, koʻp bosqichli, individual, parasyentrik, nazorat va tuzatish, oʻqitishning shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlim texnologiyalari yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilganligi aniqlandi.

6. Tadqiqot doirasida ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan pedagogik ta'lim texnologiyalarining mazmun mohiyatini o'rganish orqali shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiya atamasiga mualliflik ta'rifini ishlab chiqishga erishdik.

7. Tadqiqot doirasida ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan pedagogik ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning ijtimoiy-psixologik jihatlarini aniqlashtirdik hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchining individual xususiyatlarini inobatga olgan holda har tomonlama rivojlanishi, barkamol shaxs sifatida yetishishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi degan xulosaga keldik.

8. Ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan pedagogik ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlarni uchta katta guruhga bo'lish mumkin: tashkiliy-pedagogik, pedagogik-psixologik, didaktik.

9. Ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan pedagogik ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning tashkiliy pedagogik shart-sharoitlari ushbu pedagogik tizimning o'ziga xos xususiyati bo'lib, u o'rta ta'limning potensial imkoniyatlarini aks ettiradi va pedagogik tizimning tartibli va muvaffaqiyatli ishlashini ta'minlaydigan tizimdagi tashkiliy tuzilmalar va ta'sir choralari majmui sifatida ta'lim sifati samaradorligini oshirish imkonini berishini asosladik.

10. Jamiyatga kirib kelayotgan shaxsning jamiyat talablariga javob beradigan, hayotga tayyorligi bilan zamondan orqada qolmagan yetuk va komil inson sifatida shakllanishida qo'llanilayotgan ta'lim texnologiyalari o'quvchilarining qobiliyatlari, qiziqishlari, ijtimoiy-psixologik jihatlari yetarli darajada o'rganilmaganligi bugungi kunda maktab ta'limi tizimining dolzarb masalalaridan hisoblanib, ona tili darslarida takomillashtirilgan shaxsga yo'naltirilgan pedagogik ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali maktab o'qituvchilarining pedagogik faoliyati samaradorligini ta'minlanishini asosladik.

11. Ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning tashkiliy-pedagogik shartlari (har bir o'quvchini alohida, o'ziga xos shaxs sifatida ko'ra olishi; o'quvchini hurmat qilishi; o'quvchining ruhiy holatini to'g'ri baholay olishi; o'quvchining xohish-istak, qiziqishlarini inobatga olishi; har bir o'quvchiga tolerant munosabatda bo'lishi; o'quvchining kuchi,

imkoniyati va intilishlariga ishonch bildirishi; har bir o'quvchi uchun qulay ta'lim muhitini yaratishi; o'quvchilarning mustaqil yoki kichik guruhlarga erkin ishlashlari uchun imkoniyat yaratish; o'quvchilarni o'z faoliyatlarini mustaqil nazorat qilish, faoliyati samaradorligini aniqlash, yutuqlarning omillari va yo'l qo'yilgan xatolarning oqibatlarini tahlil qilish o'rganish; ta'lim jarayonida hech bir o'quvchiga tazyiq o'tkazmaslik; alohida o'quvchining kamchiliklarini bo'rttirib ko'rsatmaslik; bordi-yu, o'quvchi tomonidan bilimlarni o'zlashtira olmaslik, ta'lim jarayonida o'zini odobsiz tutish holati qayd etilsa, u holda qat'iy xulosa chiqarmasdan, buning sabablarini aniqlash; aniqlangan sabablar asosida o'quvchining sha'ni, g'ururiga ziyon etkazmagan holda u tomonidan bilimlarni o'zlashtira olmaslik, o'zini odobsiz tutish kabi holatlarni bartaraf etish; ta'lim jarayonida har bir o'quvchi uchun "muvaffaqiyat muhiti"ni yarata olish; har bir o'quvchiga ta'lim olish jarayonida muvaffaqiyatga erisha olishiga yordam berish; o'quvchining qobiliyatini o'stirish, shaxs sifatida rivojlanishiga yordam berish; o'quvchining shaxsini emas, balki uning aniq xatti-harakatlarini baholashi; pedagog sifatida har bir o'quvchining hurmati va ishonchini qozona olishi)ni aniqladik.

12. Tadqiqot doirasida ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan pedagogik ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning ijtimoiy, didaktik vosita sifatida aniqlashtirdik hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchining individual xususiyatlarini inobatga olgan holda har tomonlama rivojlanishi, barkamol shaxs sifatida yetishishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi degan xulosaga keldik.

13. Ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan pedagogik ta'lim texnologiyalar asosida darslarni tashkil etishning didaktik shart-sharoitlarning yaratilishi o'quvchilarda idrok, sezgi, xotira, tafakkur, nutqni rivojlantirishga yordam berish orqali ularni ma'naviy-axloqiy, aqliy, jismoniy va estetik jihatdan tarbiyalashga xizmat qilishi, tezkorlik, sezgirlik, topqirlik, xushyorlik, qat'iyatlik, bilimdonlik, mustaqillik, tadbirkorlik, ijodkorlik kabi ijodiy sifatlarni tarbiyalashda dasturi amal bo'lib xizmat qilishini asosladik.

14. Ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan pedagogik ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning samarali usullari o'rganildi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosidagi dars

shakllarining asosiy ko‘rinishlari sho‘ng‘ish, musobaqa, konsultatsiya, ijod, sinov, shubha bildirish, ijodiy hisobotlar, umumlashtirish, ilmiy fantastika, haqiqatni izlash, “Paradokslar”, seminar va ekskursiya darslari ekanligi aniqlandi.

15. Ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarining muammoli, loyiha, trening, hamkorlik, anjuman, namoyish (taqdimot), rolli (yoki ishbilarmonlik) o‘yin, dasturli o‘qitish, tanqidiy fikrlash, geymifikatsiya, Flipped Classroom hamda refleksiya va tahlil ta’lim texnologiyalari o‘quvchilarda o‘quv faoliyatni tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashish, o‘z ustida ishlash, mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam berishi tadqiqot davomida isbotlandi.

16. Ona tili fanini o‘qitishning barcha bosqishlarida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv o‘quvchilarning tilga nisbatan qiziqishini oshirish va ularning kommunikativ ko‘nikmalarini takomillashtirishga xizmat qildi. O‘qitishning har bir bosqishi(yangi bilimni o‘zlashtirish (tashxislash), mustahkamlash va faollashtirish, qo‘llash va amaliyotga joriy etish, baholash va xulosa chiqarish)ning vazifalaridan kelib chiqib, ta’lim oluvchilarning aksiologik, kognitiv, emosional va xulq-atvorlariga qarab ta’sir ko‘rsatishning usullari aniqlandi.

17. Ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning tuzulmaviy modeli ishlab chiqildi. Bunda Ona tili fanini o‘qitishda samarali va kafolatlangan natijaga erishish uchun to‘rt bosqichli komponent (aniq belgilangan maqsad komponenti: darsni rejalashtirish, o‘qitish metodlari, muhit va baholash tizimini o‘z ishiga olgan tashkiliy komponent; o‘qitish metodikasi, ta’lim usullari, shakllari va vositalaridan tarkib topgan ta’lim mazmuni komponenti; baholash mezonlarini o‘zida aks etgan natijaviy komponent)ga asosladik.

18. Ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni baholashning zamonaviy tendensiyalarida ta’limni tashkil etish bilan bog‘liq noan’anaviy, ijtimoiy ahamiyatga ega sifat mezonlari va ko‘rsatkichlariga katta e’tibor qaratgan holda, o‘quvchining ijtimoiy, kommunikativ va intellektual salohiyatini baholashga asoslangan holda amalga oshirdik. Bu yondashuv o‘quvchilarni faqatgina grammatik bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, jamiyatda faol va muloqotga tayyor shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

19. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning tuzulmaviy modeli 4 ta asosiy tarkibiy qism va 20 dan ortiq komponentlarni o‘z ichiga oladi. Taqdim etilgan model umumiy hisoblanadi va umumiy o‘rta ta’lim tizimida ona tili fanini o‘qitishda ta’lim sifatini oshirish uchun tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun 2020 yil 22-sentyabr
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish masalalari»ga bag‘ishlab o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilish ma’ruzasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi 34-son bayoni, 2019 yil 23 avgust.
4. Абдуллаева Ў. Педагогика. – Т.: ТДПУ, 2015. -45-6
5. Абдуллаева Қ. Шахсга йўналтирилган таълим технологиялари. - Т.: ТДПУ, 2005.
6. Авлиякулов Н. Х., Мусаева Н. Н. Янги педагогик технологиялар. – Т.: “Янги аср авлоди”, 2003. – 191 б.
7. Агапов И.Г. Теоретические основы технологического обеспечения развития общих компетенций обучающихся в школе. Дисс. Москва 2001.
8. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технологиялар ва педагогик махорат / – Т.: “Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси” нашриёти. 2006.
9. Алина Ю.Ш., Татьяна В.С. Педагогические условия использования проектной деятельности для формирования проектно-исследовательских компетенций обучающихся педагогического колледжа // https://dspace.kpfu.ru/xmlui/bitstream/handle/net/131739/277_284.pdf?sequence=-1
10. Аменд А.Ф. Дошкольная образовательная система: модели развития // Управление дошкольными образовательными учреждениями. М., 2004. № 5.
11. Ашурова С.И. Махсус фанларни модуллар ўқитиш жараёнини ташкил қилиш ва ўтказиш // Касб-хунар таълими. -Т., 2004. – № 5.
12. Бабаева В.В. Реализация инновационных технологий в процессе подготовки будущих преподавателей

профессионального образования // Молодой ученый, 2012. № 8. С. 307. [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://moluch.ru/archive/43/5169/> (дата обращения: 14.04.2018).

13. Баженова Н. Г., Хлудеева И. В. Педагогические условия, ориентированные на развитие: теоретический аспект // <file:///C:/Users/User/Downloads/pedagogicheskie-usloviya-orientirovannye-na-razvitie-teoreticheskiy-aspekt.pdf>

14. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М.: ИРПО, 2000. - 212 с.

15. Бугаев А. И. Методика преподавания физики в средней школе. – М., Просвещение, 2001г.

16. Бўронов Ж. Ҳамкорликда ўқитиш технологиялари

17. В.С.Зайцев Современные педагогические технологии: учебное пособие. – В 2-х книгах. Книга 1. Челябинск, ЧГПУ, 2012 – 411 с.

18. Виготский Л.С. Педагогическая психология/ Под ред. В.В.Давыдова. – М.: Педагогика, 1991. - 480 с.

19. Волков, И.П. Приобщение школьников к творчеству: из опыта работы / И.П. Волков. – Москва: Просвещение, 2002. 144 с.

20. Гальперин, П.Я. Введение в психологию: учебн. пособие для вузов/ П.Я. Гальперин. - М.: Книжный дом «Университет», 2000. - 3-е изд. - 336 с.

21. Гершунский Б. С. Прогностические методы в педагогике. М., Просвещение. 2001

22. Голиш Л.В. Замонавий таълим технологиялари: мазмун, лойиҳалаштириш ва амалга ошириш. Экспресс кўлланма, – Т.: Таъсис, 2001.

23. Гаффорова Т. ва бошқ. Таълимнинг илғор технологиялари. Қарши: Насаф. 2003. – 112 б.

24. Дилова Н.Ғ. Ўқувчи шахсини ривожлантиришда ҳамкорлик педагогикасининг ўрни. Замонавий таълим, 2017, №1. -Б. 50-55

25. Дьяченко В.К. Сотрудничество в обучении: О коллективном способе учеб. работы: Кн. для учителя. - М.: Просвещение, 2001. – 192 с.

26. Железнякова, С. И. Ориентации и установки учителей на инновационную деятельность Текст. : Автореф. дис. .канд. социол.

наук: 22.00.08 : Уральск. гос. ун-т им. А. М. Горького / С. И. Железнякова. Екатеринбург, 1997. - 22 с.

27. Ж.Ф.Йўлдошев, С.А.Усмонов. Педагогик технология асослари. Халқ таълими ходимлари учун қўлланма. Тошкент: “Ўқитувчи”, 2004

28. Зимняя И. А. Психология обучения иностранным языкам в школе. М.: Просвещение 2001, 222 с.

29. Зиёмухамедов Б, М.Тожиев. Педагогик технология-замонавий ўзбек модели. /”Lider Press”, Тошкент-2009й.

30. Ziyomuhamedov B., “Pedagogik mahorat asoslari” O‘quv qo‘llanma// “ТІВ-КІТОВ” Toshkent- 2009 yil.

31. Изетаева Г.К. Ўқув машғулотларни модулли технология асосида лойиҳалаш ва таълим жараёнига қўллаш — куннинг талаби. Ж.: Анд ДУ «илмий хабарнома». 2013 йил, 2-сон, 34-39 б.

32. Ильин Г.Л. Теоретические основы проектирования образования: докторская диссертация. – М., 2005. – 180 С.

33. Ипполитова Н. Анализ понятия «педагогические условия»: сущность, классификация / Н. Ипполитова, Н. Стерхова // General and Professional Education. – 2012. – № 1. – Р. 8-14.

34. Ишмухамедов Р.Юлдашев М. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар Т-2013

35. Кальней, В.А. Мониторинг качества образования Текст. / В.А. Кальней, С.Е., Шишов. - М.; Вологда, 2000. 163с.

36. Кларин М.В. Инновации в мировой педагогике: обучение на основе исследования, игры и дискуссии. (Анализ зарубежного опыта). Рига: НПЦ «Эксперимент», 2005.

37. Коменский Я.А. Избранные педагогические сочинения. Тт.1-2. 38.Коменский.Я.А. – М.: Педагогика, 1982.- Т.1. – 656 с. – Т.2. – 576 с.

39. Краля Н.А. Метод учебных проектов как средство активизации учебной деятельности учащихся. Учебно-методическое пособие. Россия. Омск. 2005. 42 с.

40. Крюкова Е.А. Личностно-развивающие образовательные технологии: природа, проектирование, реализация / Монография. - Волгоград: Перемена, 2000.

41. Лазурский А.Ф. Очерк науки о характерах. - М., Просвещение, 2005. – 271 с.
42. Латюшин В.В. Антропоцентрированный подход к профессионально-педагогической подготовке будущего учителя // Педагогика, 2003, № 9. С. 50-57.
43. Леонтьев, А.Н. Деятельность. Сознание. Личность/ А.Н. Леонтьев. - М., 2001. - 301 с.
44. Лысенко А.В. Психолого-педагогические условия формирования профессиональноценностных ориентаций будущего учителя музыки // Дис. ... канд. пед. наук. – Майкоп, 2005. –203 с.
45. Б.Т. Лихачёв. “Педагогика. Курс лекций” (Педагогика. Маруза курси). // ВЛАДОС-2010 г
46. Макарова Т.Д. Обеспечение итогового контроля // Образовательные стандарты и контроль качества образования. - Вологда., 1966 г.
47. Макаренко А.С. Книга для родителей// Художественная литература.-1937 г
48. Мамадалиев К. Янги очилган таълим йўналишлари, янги авлод ўқув адабиётларини яратиш ва таълим жараёнига қўллаш методикаси.// Ж.: 3 сон, 2015. 67-71 б.
49. Meyer H., Klapper A. Unterrichtsstandards für ein kompetenzorientiertes Lernen und Lehren. - Berlin, 2009
50. Мельникова Е.Л. Проблемный урок, или Как открывать знания с учениками: Пособие для учителя. – М., 2002. – 168 с.
51. Монахов В.М. Введение в теорию педагогических технологий: Монография. // Волгоград: Изд-во «Перемена», 2006.
52. Монахов В.М. Технологические основы проектирования учебно го процесса: Монография. – Волгоград: Перемена, 2005, – 152 с.
53. Монахова Г.А., Монахов Н.В. Проектирование собственной методической системы учителя: дидактический практикум для студентов педагогических университетов. – м., риЦ «альфа» мгопу, 2003. – 60 с.
54. Монтессори М. Развитие потенциальных возможностей человека. / Пер. с англ..Д.Смоляковой. // Бюллетень МАМА, 1993, №2,3,5

56. Муравьева Г.Е. Педагогическое проектирование в деятельности школьного учителя : учебно-методическое пособие для начинающих учителей / Е.В. Куренная, Е.А. Дубова; Г.Е. Муравьева . — Шуя : ФГБОУ ВПО "ШГПУ", 2011. — 110 с

57. Муслимов Н.А., Усмонбоева М. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари. - Т.: "САНО-СТАНДАРТ" нашриёти, 2015.

58. Мясищев В.Н. Основные проблемы и современное состояние психологии отношений человека // Психологическая наука в СССР. - М., 2000, ч.2, с. 110-125

59. Нишоналиев У.Н. Тошкент-2011. Инструментарий обучения, воспитания и развития // Учитель Узбекистана. 59 с.

60. Н.Муслимов, М.Усмонбоева, Д.Сайфуров, А.Тўраев. Инновацион таълим технологиялари – Тошкент: 2015. 208 бет.

61. Оришев Ж.Б. Ўқув фанлари блоклари алоқадорлигини таъминлаш таълим самарадорлигини оширишнинг муҳим омилли// Касб-хунар таълими. Илмий-услубий журнал. Тошкент, № 2 2012й.Б.8-9.

62. Овечкин В.П. Основы проектной деятельности: учеб. - метод. пособие / В.П. Овечкин, А.Е. Причинин. - Ижевск, 2007.

63. Очиллов М. Янги педагогик технологиялар. - Қарши: Насаф, 2000

64. Парсонс Т. О структуре социального действия. – М.: Академический Проект, 2002. – 800 с.

65. Перегудова Ф. Ф.И., Тарасенко Ф.Г. Введение в системный анализ. М.: Высшая школа, 2002.

66. Питюков В.Ю. сновы педагогической технологии / В.Ю. Питюков. – 3-е издание, исправленное и дополненное. – Москва: Гном и Д, 2001. – 192 с.

67. Разумовский, В. Г. Деятельность преподавания как стратегический ресурс образования / В. Г. Разумовский, Ю. А. Сауров // Наука и школа. – 2004. – № 6. – С. 2-9.

68. Сагдуллаев А.С. Костецкий В. А. Тарих (Қадимги дунё) Т-2022

69. Саидахмедов Н. Янги педагогик технологиялар. - Т.: «Молия», 2003. -63-б.

70. Сверчков А.В. Организационно-педагогические условия формирования профессиональнопедагогической культуры будущих спортивных педагогов // Молодой ученый. 2009. – №4. – С. 279-282.

71. Слостенин В.А., Исаев А.М., Мищенко А.М. Педагогика // Учеб. пособие для студентов педагог. учебных заведений. – М.: Школа-Пресс, 1997. – 512 с.

72. Столяренко Л.Д. Педагогическая психология. Ростов-на-Дону: Феникс, 2000. - 544 с.

73 В.А. Сухомлинский. Сердце отдаю детям. //Радянська школа, 1969 г

74.С. Фуломов. Педагогик технологиялар ва уларни таълим жараёнига татбиқ этиш. - Т.: ТДПУ, 2010.

75. Tchoshanov, M., Cruz, M., Shakirova, K., Ibragimova, E., Shakirova, L. (2017). Comparative analysis of mathematics teachers' content knowledge in USA and Russia through the lens of TIMSS re

76. Тиллаева Г.Х. Акмеология асослари. – Т.: Тафаккур бўстони, 2014, - Б. 31-бет.

77. Тиллаева Г.Х. Акмеология асослари. – Т.: Тафаккур бўстони, 2014, - Б. 192.; Индиаминов Н., Бабажанов Б. Таълим самарадорлигини оширида шахсга йўналтирилган таълим // Замонавий таълим. 2014. №8. 18-22 бетлар; Основы личностно-ориентированного образования. / И.С.Якиманская. – М.: «Бином. Лаборатория знаний», 2011;

78. Тожиев М., Зиёмухаммадов Б. Ўралова М. «Педагогик технология ва педагогик маҳорат фанининг ўқув машғулотларини лойиҳалаш» (пе дагогик технология миллий моделининг амалиётга татбиғи). Қ.И: Ўқув қўлланма/ – Т.: «MUMTOZ SO‘Z», 2011. – 196 б.

79. Толипов Ў. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. – Т.: «Фан», 2006. -82-бет.

80. Толипов Ў.Қ., Усмонбоева М. Педагогик технология: назария ва амалиёт. – Т.: “Фан”, 2005

81.Турғунов С. Педагогик маҳорат ва шахсга йўналтирилган таълим. - Т.: Ўқитувчи, 2006

82. Тўрақулов Х. А. Оришев Ж.Б.Лойиҳали таълим –таълим самарадорлиги гарови // Таълим тизимида ижтимоий -гуманитар

фанлар. Илмий –услужбий журнал. Тошкент, No 3-4, 2011 й. Б.38-41

83. Ушинский, К. Д. Избранные педагогические сочинения: в 2 т. / К.Д. Ушинский; под ред. А. И. Пискунова. - М.: Педагогика, 1994. - Т. 2

84. Файзуллаева Д.М., Ганиева М.А., Неъматов И. Назарий ва амалий ўқув машғулотларда педагогик технологиялари тўплами / Мет.қўлл. Ўрта махсус, касб-хунар таълимида инновацион таълим технологиялари сериясидан – Т.: ТДИУ, 2013. – 137 б.

85. Farberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. -Т.: Fan, 2000.

87. Философский энциклопедический словарь / Е. Ф. Губский, Г. В. Кораблева, В. А. Лутченко. – М., 2000. – 134 с.

88. Хасанбоев Ж., Тўракулов Х. Педагогика назарияси фанидан изоҳли луғат. - Т.: «Фан», 2008. -182-б.

89.Холматов Н. Таълимда инновацион технологиялар. - Т.: Иқтисод-молия, 2007.

90. Хушбахтов А. Х. Терминология «педагогические условия» // Молодой ученый. 2015. – № 23 (103). – С. 1020 1022.

91. Хуррамов А. «Математика ўқитиш методикаси» фанини лойиҳалаб ўқитишнинг замонавий концепцияси.// Ж.: «Университет ахборотномаси» 2-сон, 2017.

92. Хуррамов А.Ж., Мамадалиев К. Таълим сифати ва самарадорлигини оширишда дастурлаштирилган ўқитишнинг ўрни ва аҳамияти // Республика таълим тизимида амалга оширилаётган ислохотларни табиий-илмий фанларни ўқитиш жараёнига татбиқ этиш муаммолари. Республика илмий-амалий конференция материаллари. – Т., 2015. – Б. 308-310.

93. Шалин М. И. Организационно-педагогические условия развития конкурентоспособности личности старшеклассника // Теория и практика образования в современном мире: материалы III Междунар. науч. конф. (г. Санкт-Петербург, май 2013 г.). – Санкт-Петербург: Реноме, 2013. – С. 47-49.

94. Шамова Т.И. - Исследовательский подход в управлении школой. - М., 2002.; Менеджмент в управлении школой. -/Науч. ред. Т.И. Шамова. - М., 1992 г.

95. Шарипов Ф.В. «Педагогика и психология высшей школы» Москва 2012 г.

96. Шарипов Ш. Педагогик технологиялар ва таълим сифати. - Т.: Фан, 2008.

97. Шайхова Х.А. Маънавият – камолот кўзгуси. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2009, - Б. 115.

98. Ширяева В. А. Педагогические условия формирования универсальной ключевой компетенции [Электронный ресурс] // http://www.sgu.ru/sites/default/files/textdocsfiles/2013/07/15/i-09_shiryaeva.pdf.

99. Эльконин, Б. Д. Психология развития: учеб. пособие для студентов/ Б.Д. Эльконин. - М.: Academia, 2001. - 141 с.

100. Юсупов Н.Р. Ижодий таълим методлари. Тошкент, 2020.

101. YUNESKO (UNESCO). “New Trends in the Utilization of Educational Technology for Science Education” 1974-yil

MUNDARIJA

SO‘Z BOSHI.....	3
I-BOB. O‘QUVCHILARGA ONA TILI FANINI O‘QITISHDA SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA‘LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	5
1.1-§. Umumta‘lim maktablarida shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalaridan foydalanishning metodologiyasi	5
1.2-§. Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik xususiyatlari.....	32
1.3-§. O‘quvchilarga ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalar va ularning didaktik imkoniyatlari	45
II BOB. ONA TILI FANINI O‘QITISHDA SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA‘LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING METODIK TIZIMI.....	58
2.1-§. Ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari.....	58
2.2-§. Ona tili fanini o‘qitish pedagogik ta‘lim texnologiyalarining shaxsga yo‘naltiruvchi metodik vositasi sifatida	71
2.3-§. Ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik ta‘lim texnologiyalar asosida darslarni tashkil etishning didaktik tizimi.	88
III BOB. ONA TILI FANINI O‘QITISHDA SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN PEDAGOGIK TA‘LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI.....	104
3.1-§. Ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik ta‘lim texnologiyalaridan foydalanishning samarali usullari	104
3.2-§. Ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim jarayonlarini loyihalashtirish texnologiyalari.	140
Shunday qilib, umumiy o‘rta ta‘lim tizimida ona tili fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan <i>ta‘limning tuzulmaviy modeli</i> 4 ta asosiy tarkibiy qism va 20 dan ortiq komponentlarni o‘z ichiga oladi. Taqdim etilgan model umumiy hisoblanadi va umumiy o‘rta	

ta'lim tizimida ona tili fanini o'qitishda ta'lim sifatini oshirish uchun tavsiya etiladi.	156
XOTIMA	157
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	162

Taylakova Dilnoza Norbekovna

**O‘QUVCHILARGA ONA TILI FANINI
O‘QITISHDA SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN
PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARIDAN
FOYDALANISH METODIKASI**

Monografiya

Monografiya muallifning tahririda taqdim etilgan.

Monografiyada keltirilgan faktlar, atoqli otlar va boshqa ma’lumotlarning aniqligiga, hamda imloviy xatolar uchun javobgarlik Muallifning zimmasidadir.

1692



“Bookmany print” nashriyoti

Nashriyot tasdiqnoma raqami № 022246. 28.02.2022-y.

Bosishga ruxsat etildi: 05.06.2025.

“Times New Roman” garniturasida. Qog‘oz bichimi: 60x84 ¹/₁₆

Nashriyot bosma tabog‘i 9,2. Shartli bosma taboq 9,6.

Adadi 100 nusxa. Ofset bosma usulida bosildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

E-mail: bookmany_print@mail.ru

t.me/Bookmanyprint ☎ +998 99 180 97 10